

ANDRAGOGIKA



Namangan

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

O'.M.ASQAROVA, M.A.ABDULLAEVA, M.BOLTAEVA

ANDRAGOGIKA

(o'quv qo'llanma)

Namangan-2014

ANNOTASTIYA

Hozirgi kunda ijtimoiy amaliyot sohasida andragogikani o'zlashtirish, kattalarga ta'lim berishning mohiyatidan kelib chiqqan xolda kasbga oid yo'nalish, bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatli munosabatlarni ko'zda tutadi. Andragogikani o'quv fani sifatida tushunish uchun, uning mutaxassis tayyorlash tizimidagi o'rni va imkoniyatlarini belgilay olish muxim sanaladi.

Qo'llanma oliy o'quv yurtining pedagogika mutaxassisligi magistratura ta'lim rejasi bosqichida tanlov fan sifatida o'qitiladi. Andragogikaning ta'lim nazariyasi va pedagogika bilan o'zaro uzviy aloqadorligi, ularning predmetini taqqoslaganda yaqqol ko'zga tashlanadi.

АННОТАЦИЯ

Изучения андрагогики в социальной практике предусматривает, обучения взрослых с учётом профессиональной направленности и формирования соответствующей направленности.

Усвоение андрагогики как учебного предмета предусматривает определения её места и возможности в системе подготовки специалистов.

Учебное пособие назначено для магистрантов направления педагогики. В нем раскрыта сущность андрагогики, её связь с системой педагогических наук. Представлены также специфические особенности андрагогики.

SUMMARY

The studies androgogy in social practical person provides education adult with account of the professional directivity and shaping corresponding to directivities Assimilation androgogy as scholastic subject provides the determinations of her(its) place and possibility in system of preparation specialist.

The scholastic allowance is fixed for magistrantov of the direction pedagogiki. In him is revealed sущnost' androgogiki her(its) relationship with system of the pedagogical sciences. Specific particularities androgogy are presented also.

Tuzuvchilar

O'.M.Asqarova, M.A. Abdullaeva, M.Boltaeva

Taqrizchilar

p.f.d. N. Erkaboeva

p.f.n. dost.X.Raxmatova

Namangan muxandislik pedagogika institutining 15 aprel 263- sonli Ilmiy Kengashida muxokama qilingan va nashr etishga ruhsat berilgan.

KIRISH

Mustaqillik yillarida shaxsni kundalik turmush tarzining jamiyat normalariga mosligi ularda sog'lom g'oya va dunyoqarashning shakllanishiga asos bo'ladi. Bu haqda Prezidentimiz I.A.Karimov: «O'zining hayotini, oldiga qo'ygan maqsadlarini aniq tasavvur qila oladigan, o'z kelajagi haqida qayg'uradigan millat hech bir davrda milliy g'oya va milliy mafkurasiz yashamagan va yashay olmaydi»,¹ deb ta'kidlaganlar.

YUqoridagi fikrga asosan biz jamiyatimiz hayotida ro'y berayotgan barcha o'zgarishlarni hisobga olib, kattalarga ta'lim berish orqali ijtimoiy hayotni mohiyatini o'zlashtirishlariga ko'mak beruvchi zamonaviy o'quv jarayonini ahamiyatini ta'kidlashni istardik.

Ushbu pedagogik andragogika, kattalar ta'limi va andragogikani nazariy amaliyotini rivojlanish tarixidan, uzliksiz ta'lim tizimida kattalar ta'limi, shaxsni kasbiy rivojlanishning androgogik asoslari, ijtimoiy himoyaga muxtoj yoshi katta aholi guruxi ta'limini o'ziga xosligi, yoshi katta nogironlar ta'limini, kattalarni o'qitishda masofali ta'lim texnologiyalari, halq universitetlari, ayollar ta'limi, kattalar ta'limini texnologik shakllari, yoshi katta kitobxonlar ta'limi, ta'limiy turizm kabi masalalar qo'llanmaning asosiy mazmunini tashkil qiladi.

Fanning maqsadi magistrnlarni andragogika nazariyasi hamda amaliyoti boracida bilimli, etuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

“Andragogika” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

- andragogikaning ilmiy asoslari;
- pedagogik andragogika va kattalar ta'limini bilishi zarur;
- andragogikani muayyan tizimga solish va uni o'zida shakllantirish;
- pedagogik andragogika, kattalar ta'limiga doir ko'nikmalarni egallashi zarur;
- andragogika tamoyillari, uzliksiz ta'lim tizimida kattalar ta'limi qonuniyatlaridan foydalana olish malakalarini egallashi kerak

O'quv rejasida andragogika fani tanlangan fan hisoblanib, umummetodologik (oliy maktab pedagogikasi, oliy maktab psixologiyasi), mutaxassislik (pedagogik fanlarning metodologiyasi, mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi, pedagogika tarixi, O'zbekiston Respublikasi va jahon ta'lim tizimi, pedagogik tizimni boshqarish) fanlari bilan o'zaro bog'liqlikda ish olib boradi

Andragogika – kasbiy rivojlanish, kattalarni o'qitishda masofali ta'limning imkoniyatlari, halq universitetlari, ayollar ta'limi, kattalar ta'limining shakllari

¹ И. Каримов. Жамиятимизнинг мафкуриси халқни-халқ, миллатни миллат қилишга хизмат этсин.- Т.: Ўзбекистон, 7 жилд, 89 бет

va texnologiyalari, yoshi katta kitobxonlar ta'limi, ta'limiy turizm, pedagogik jarayonni tashkil etishda pedagogik andragogikani egallashni talab etadi. Andragogika kattalar ta'limi va andragogikani nazariy amaliyotini rivojlanish tarixi, uzliksiz ta'lim tizimida kattalar ta'limi pedagogik andragogikaning tarkibiy qismlaridir. Ana shuning uchun ham bo'lajak pedagoglarda pedagogik andragogikaga doir ko'nikma va malakalarni shakllantirishda mazkur fan alohida ahamiyatga ega.

Qo'llanma, muayyan mavzusi va davomiyligidan qat'iy nazar, doim bir xil bosqichdan o'tadigan ta'lim jarayoni mantiqiga mos keladi. Shuning uchun qo'llanmaning 2-bo'limidagi kattalar ta'limi uchun seminar mashg'uloti va kattalar ta'limida interfaol metodlar hamda turli mashqlarni keltirildi. Shuningdek glossoriy bilan boyitildi.

Mazkur o'quv qo'llanmadagi materiallar bayoni quyidagi ketma-ketlik asosida keltiriladi:

- mavzuning nomi;
- tayanch iboralar va atamalar;
- mavzuning matni;
- mavzuni o'zlashtirishni ta'minlashga oid savollar;
- mavzuni o'rganishda foydalanish mumkin bo'lgan adabiyotlar.

Bu o'quv qo'llanma haqidagi fikr va mulohozalarni mualliflar mamnuniyat bilan qabul qiladi.

BIRINCHI BO'LIM

ANDRAGOGIKA FANINING NAZARIY ASOSLARI.

1.1. Andragogika fanining maqsad va vazifalari

- Andragogika fani haqida umumiy tushuncha.
- Kattalarga ta'lim berishning o'ziga xos jihatlari.
- Andragogika fanini o'rganishga qo'yilgan talablar, muammolar, insonshunoslik tizimida andragogikaning o'рни.
- Andragogika faoliyatning nazariy va metodologik asoslari, insonni butun xayot yo'li davomida o'qitish va ta'lim berish tamoyillari, usul xamda vositalar.
- Andragogika - kattalar xayotini rivojlantiruvchi, ijtimoiy muxitga moslashtiruvchi va ta'lim bilan boyituvchi fan sifatida.

Tayanch iboralar va atamalar: Andragogika, pedagogika sohasi, kattalar ta'limi, muammolar, insonshunoslik, kattalar ta'limi amaliyoti, metodologik asoslar, xayot yo'li, tamoyillar, vositalar, rivojlantiruvchi, ijtimoiylashtiruvchi, moslashtiruvchi, mavke, o'z-o'zini taxlil, o'z-o'zini sinash, refleksiya, o'z-o'zini baxolash, o'z-o'zini tuzatish, jarayon, kasbiy ta'lim, mustaqil ta'lim, madaniy-estetik faoliyat, ma'naviy yuksalish, shakl, funkstiya, modellashtirish.

«**Andragogika**» tushunchasi ilmiy atama sifatida 1833 yilda nemis pedagog-tarixchisi A.Kapp tomonidan fanga kiritilgan. Agar «Pedagogika» so'zi bilan yonma-yon, o'hshash tarzda talqin etilsa kelib chiqishi grekcha so'zlardan (andros-erkak, odam; agogeyn-etaklash) iborat ekanligi oydinlashadi. So'zma-so'z tarjima qilinsa, andragogika bu – «katta odamni etaklash» dir.

Ushbu termin pedagogik voqelikka dahldorligi uchun, o'qitish yordamida etaklash haqida so'z boradi. Andragogikani turli sohalarini ko'rib chiqish mumkin:

- ilmiy bilimlar sohasi;
- ijtimoiy amaliyot sohasi;
- o'quv predmet sohasi;

Andragogikani ilmiy bilimlar sohasiga doirligi to'g'risida fikr yuritish uchun quyidagilarni aniqlash lozim:

- u o'rganayotgan predmetni;
- predmetni izohlab beruvchi tushunchalar tizimini;
- ilmiy bilish va yangilanishga zamin yaratuvchi asosiy tamoyil va usullarni.

SHunga ko'ra andragogik bilimlarning zamonaviy fanlar tizimida tutgan o'rni va tuzilishlarida o'z ifodasini topadi.

Ijtimoiy amaliyot sohasida andragogikani o'zlashtirish, kattalarga ta'lim berishning mohiyatidan kelib chiqqan xolda kasbga oid yo'nalishlarni aniqlashtirish, bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatli munosabatlarni ko'zda tutadi.

Andragogikani o'quv fani sifatida tushunish uchun, uning mutaxassis tayyorlash tizimidagi o'rni va imkoniyatlarini belgilay olish muxim sanaladi. Ilmiy bilimlarning nisbatan yangi tarmog'i xisoblanuvchi andragogika, tiklanish jarayonini boshdan kechirmokda.

«Pedagogika» va «Andragogika» terminlarining o'zaro yaqinligi, ko'p yillardan buyon turli munozara hamda baxslarga sabab bo'lmokda. «Andragogika» tushunchasi pedagogika sohasiga yaqin tursada, kattalarga ta'lim berishning o'ziga xos jixatlarini xam unutmaslik lozim. Mazkur karama-karshiliklar tufayli andragogika fanining asosiy joylashgan o'rni xam belgilanmagan.

Ayrimlar uni pedagogikani bir bo'limi sifatida maktablarga pedagogika, boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi, didaktika, oliy maktab pedagogikasi kabi fanlar qatoriga qo'shadi.

Boshqalar, o'qitish ob'ekti sanaluvchi katta odamning o'ziga xos tabiatini nazarda tutgan xolda, andragogikani pedagogikadan aloxida soxa sifatida baxolaydilar.

Mazkur nukta-nazar tarafdorlari andragogikaning integrativ tabiatiga aloxida urg'u beradilar.

Bir narsa aniqki – andragogika fanlararo bog'liklikka ega. Andragogikaning ta'lim nazariyasi va pedagogika bilan o'zaro uzviy aloqadorligi, ularning predmetini taqqoslaganda yaqqol ko'zga tashlanadi. Pedagogikaning umumiy tarzdagi predmeti, shaxsning pedagogik vokelikdagi shakllanish jarayonidir. Kattalarga ta'lim berish nazariyasi predmeti – ijtimoiy-madaniy institut sifatida kattalarga bilim berish tizimidir. Andragogikaning o'ziga xos xususiyati esa, uzluksiz ta'lim jarayonida kattalarni o'qitish nazariyasi va metodikasi xisoblanadi.

YUqorida tilga olingan barcha ilmiy izlanishlarning kesishgan nuqtasi, katta odamni o'rganish sohasiga taalluqlidir. Buning uchun esa, kimni etaklayotganini, uning o'ziga xos tabiati va xususiyatlarini aniqlash talab etiladi.

SHunga ko'ra andragogikani, XX asrning 60 yillarida taniqli rossiyalik psixolog B.G.Anan'ev odamni o'rganuvchi fanlar tizimi deb atagan, ilmiy-amaliy soxalar bilan o'zaro uyg'unlik va xamkorlikda faoliyat ko'rsatishi zarur deb baholagan.

Diagnostika markazida yaxlit(bir butun) odam, uning tasavvur shakli sifatida xizmat qiluvchi obraz (timsol) turadi. Turli-tuman bilimlarni sintezlash (yig'ish) natijasida odamning ilmiy obrazi (yaxlit xolda) dunyoga keladi ya'ni «kosmik, biologik, ijtimoiy va ruxiy ibtido birgalikda mujassamlashtiriladi»

(V.I.Solov'ev). Mazkur yaxlit tasavvur - bilishning konkret, tarixiy darajasiga mos keladi.

Ushbu doirada andragogik bilim, katta odamlarning o'zaro birgalikdagi faoliyati tizimida o'qitish bilan bog'liq muammolarni xal etishga yo'naltiriladi.

Andragogika – bilimlarning gumanitar soxasidir. Unda nafaqat odamni bilish, balki ijtimoiy bilimlar, ta'lim falsafasi, madaniyatshunoslik kabi soxalarga oid tushuncha va g'oyalar sintezi xam amalga oshiriladi.

SHunday qilib andragogika, zamonaviy ilmiy bilimlar rivojining umumiy holatini aks ettiruvchi namuna bo'la oladi.

Bir tomondan, dolzarb muammolar xususida axborotlarni umumlashtirish, ikkinchi tomondan – ularni ixtisoslashtirish va joy –joyiga qo'yish. SHu tufayli andragogika pedagogika, kattalar ta'limi nazariyasi tarkibiy qismiga kirishi, xamda bilim soxasining mustaqil tarmog'i sifatida odamni o'rganuvchi fan deb e'tirof etilishi mumkin.

Andragogik bilimlarning ilmiy talqini quyidagi kategoriyalar orkali belgilanadi:

- odam (kattalik bilan xarakterlanuvchi hayot faoliyati davridagi yaxlitlik);
- kattalik (katta odamning o'qitish sub'ekti sifatidagi o'ziga xos jixati);
- ta'lim (tizimli ta'lim va tarbiya asosida, insoniy sifatlarni shakllantirish va rivojlantirishning ijtimoiy-madaniy mexanizmi);
- kattalar ta'limi (uzluksiz ta'lim jarayoni kontekstida odamning kasbiy-shaxsiy jixatdan ulg'ayishi);
- uzluksiz ta'lim (kishi hayot faoliyatining bir butunligi, davomiyligi asosidagi ta'lim);
- andragog (kattalar ta'limi soxasida faoliyat ko'rsatuvchi mutaxassislarning umumiy nomi).

Andragogika soxasidagi zamonaviy tadqiqotlar o'zida quyidagilarni aks ettiradi:

- aholi turli qatlamlarining yoshi, jinsi ijtimoiy mavqei, kasbiy tayyorgarlik darajasi, sog'ligini xisobga olgan xolda ta'limiy ehtiyojlarni o'rganish;
- kattalar ta'limiy faoliyatini (kasbiy ta'lim, mustaqil ta'lim, madaniy-estetik faoliyati, ma'naviy yuksalish) shakl va funkstiyalarini o'rganish va modellashtirish;
- kattalarga ta'lim berish tizimining mazmun-maqсадli, texnologik va kadrlar ta'minotini ishlab chikish.

Andragogik bilimlarni shakllantirish va rivojlantirish tamoyillari:

- erkin fikr;
- amaliyotga yo'nalganlik;
- insonparvarlik.

Andragogik tadqiqotlarda quyidagi usullar keng qo'llaniladi:

- sostiologik (sostialogik so'rovlar, kattalar ta'limining xolatini ommaviy tarzda o'rganish uchun sostiometriya);

- statistik (kattalar ta'limi soxasining rivojlanish tendenstiyalarini aniqlash uchun);
- solishtirma taxlil (yosh davrlarini kattalar ta'limiga xos turli modellarni taqqoslash uchun);
- longityud (ma'lum bir gurux, shaxslar va ijtimoiy institutlarni uzoq muddat o'rganish uchun);
- monitoring (kattalar ta'limining rivojlanish tendenstiyalariga sifat jihatidan baho berish imkonini beruvchi metod);
- biografik metod (hayot davomidagi ta'limga oid masalalarni aks ettiruvchi biografik ma'lumotlar, esdaliklarni o'rganish);
- kontent-taxlil (xujjatlar, manbalarni son-sifat jixatdan taxlil qilish);
- interpretasiya (axolining turli qatlamlarini o'qitishning mazmun-mohiyati va usullarini belgilash).

Jaxon va mamlakatimiz ilm olamida ijtimoiy institutlar faoliyatini modellashtirish bo'yicha, ilmiy-uslubiy yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Kattalarning ta'limiy faoliyatini tashkil etish quyidagi amaliy tamoyillar negizida amalga oshiriladi: uzluksiz, turli-tumanlik, ochiqlik, variativlik, kooperasiya, o'zaro uyushqoqlik.

O'zbekistondagi zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, kelgusi 20 yil ichida katta yoshdagi axoliga ta'lim berish ahamiyatining ortishini taxmin etishga imkon bermokda. O'zbekiston aholisining keksayish nisbatiga oid, qo'shimcha, kasbiy va umummadaniy ta'lim olishga extiyoj sezuvchi kattalar foizi quyidagi sabablarga ko'ra o'sib bormoqda:

- «savodxonlik» tushunchasining yangi ahamiyat kasb etishi (yangi zamonaviy bilim, ko'nikma, malakalarni egallash zarurati, komp'yuter bilan ishlash, kommunikativ malakalarni egallash v.x.);
- o'qituvchi, xizmatchi va xodimlarga yangi talablarning ortishi, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash;
- yangicha bozor iktisodiyoti sharoitida, mexnatga layoqatsiz kishilarning ish o'rinlarini qisqartirilishi;
- xarbiy xizmatchilarni yalpi zahiraga chiqarilishi, ularni yangi kasbiy soxalarga jalb etish, qayta tayyorlash va ijtimoiy-psixologik moslashuvi uchun ko'maklashishni talab etadi;
- zamonaviy komp'yuter texnologiyalari katta yoshdagi nogironlar uchun uzluksiz kasbiy ta'lim olish va kasblar uyg'unligini o'zlashtirish imkonini berdi;
- turli xuquqbuzarliklar sodir etgan shaxslarni yana to'laqonli hayotga qaytarish, ijtimoiy reabilitastiyalash va ma'naviyatini yuksaltirish uchun ta'limning turli shakllariga yo'naltirish.

YUkoridagi xolatlar «ta'lim va kasbiy tayyorgarlikka muxtoj kattalar» mavjud degan xulosaga olib keladi.

Bu jamiyat miqyosida andragogik faoliyatning turli yo'nalishlari va shakllarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Andragogik faoliyat «ijtimoiy-

psixologik qo'llab-quvvatlash», «ijtimoiy faoliyat», «ijtimoiy ximoya va maslaxat» kabi tushunchalarga yaqinligi tufayli qisman murakkablik tug'diradi.

Andragogning asosiy kasbiy funkstiyasi – kattalarga ta'lim berishdir. Andragogik (ta'lim-tarbiyaviy) funkstiyani, «odam-odam» tizimida ishlayotgan xar kanday mutaxassis bajara olishi shart. Uni fakul'tativ yoki me'yoriy tarzda kasbiy xamda qo'shimcha pedagogik ma'lumot shaklida o'zlashtirish mumkin.

Zamonaviy andragogik amaliyotni tashkil etishning samarali usullari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- modellashtirish;
- loyixalash;
- refleksiya (fikrlash, baxolash, korrekstiyalash);
- dasturlash.

Andragogik faoliyat modellarini va etakchi g'oyalarini sinovdan o'tkazish, andragogik bilimlarning amaliyotga yo'nalganligi, kadrlar tayyorlash sifatiga ta'sir ko'rsatishi, bandlikka ko'maklashish va kasbiy reabilitasiya markazlari, malaka oshirish institutlari, eksternat xamda kechki maktablarni muvofiqlashtirishi orqali guvoxlik beradi.

Oliy va qo'shimcha pedagogik ta'lim tizimida kafedralar ochildi, ta'lim dasturlari ishlab chiqildi. Gumanitar yo'nalishdagi mutaxassislarni tayyorlashda, andragogika o'quv predmeti sifatida zarurdir, chunki u quyidagilarni mujassamlashtiradi:

1. Kattalar (xamkasblar, mijozlar, ta'lim oluvchilar) bilan o'zaro birgalikda faoliyat ko'rsatish madaniyatini shakllantiruvchi kasbiy bilimlar;

2. Butun xayot davomida ma'naviy, madaniy, kasbiy taraqqiyotni axborot va uslubiy jixatdan qo'llab-quvvatlashni ta'minlovchi bilimlar.

Mazkur predmet o'rta yoki oliy o'quv yurti, malaka oshirish muassasasi o'qituvchisi bo'lishga tayyorlanayotganlar uchun bevosita aloqadorlik kasb etadi. Jurnalist, tibbiyotchi, kutubxonachi, aktyor, siyosatshunos, ijtimoiy-psixolog va «odam-odam» tipiga mansub ko'plab kasblar andragogik komponentni e'tiborga olishlari talab etiladi.

Andragogikani o'rganishda, ma'lumot bilan ishlashning turli-tuman pedagogik usullari qo'llaniladi. Andragogning egallab turgan o'rni, mavkei o'z-o'zini taxlil, o'z-o'zini sinash, refleksiya, o'z-o'zini baxolash, o'z-o'zini tuzatish kabi jarayonlarni nazarda tutadi. Kattalar ta'limini o'zlashtirgan odam «o'z-o'ziga andragog» bo'lib qoladi.

Andragogikaning ilmiy bilimlar soxasi va o'quv fani sifatida rivojlanish bosqichi quyidagilar bilan belgilanadi:

- kattalar ta'limining majburiyligi ta'lim jarayonining ajralmas bir qismi ekanligi;

- kasbiy faoliyatning ko'pgina soxalarini pedagogikallashtirish, kishilarning pedagogik funkstiyalarini o'zlashtirish zarurati (korxonalar, malaka oshirish markazlari, davlat muassasalari va xizmat ko'rsatish soxasi, nodavlat ta'lim muassasalari);

- zamonaviy odamning o'z-o'zini anglash darajasini ortganligi, uning komillikka intilishi;

- kattalar ta'limidagi innovastion tajribalarni stixiyali rivojlanishi.

Kattalar ta'limi amaliyotini o'rganuvchi va umumlashtiruvchi fan sifatida andragogika kattalarning ta'lim olish maqsadini shakllantirishni va ro'yobga chiqarishni asoslab beradi. Faoliyatning nazariy va metodologik asoslarini ishlab chiqar ekan, andragogika insonning butun hayot yo'li davomida o'qitishni ko'zda tutadi. U kattalarga ta'lim berish tamoyillarini, usul xamda vositalarini aniqlaydi. Ular yordamida kattalar hayoti rivojlantiruvchi, ijtimoiylashtiruvchi va moslashtiruvchi ta'lim bilan boyitiladi.

Mavzuni o'zlashtirishni ta'minlashga oid savollar:

- Andragogika fani haqida umumiy tushuncha?
- Kattalarga ta'lim berishning o'ziga xos jihatlari?
- Fanning maqsadi, vazifalarini sanang?
- Andragogika fanini o'rganishga qo'yilgan talablar, muammolarning insonshunoslik tizimida qanday o'rni bor?
- Kattalar ta'limi amaliyotini o'rganuvchi va umumlashtiruvchi fan sifatida andragogikaning bugungi kundagi o'rnini aniqlang?
- Andragogik faoliyatning nazariy va metodologik asoslari xaqida nimalarni bilasiz?
- Ta'lim berish tamoyillari, usul xamda vositalari kattalar hayotini rivojlantiruvchi, ijtimoiylashtiruvchi va moslashtiruvchi ta'lim bilan boyitadi deb o'ylaysizmi?

Mavzuni o'rganish bo'yicha foydalanilishi mumkin bo'lgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Zmeev S. I. Andragogika: Stanovlenie i puti razvitiya // Pedagogika. — 1995.-№2.

2.Zmeev SI. Texnologiya obucheniya vzroslyx. — M., 2002.

3.Metodik qo'llanma, "DACUM kasbiy ta'limda",N.S.Raximov, B.M, Farshi-Vjalali, Toshkent ,2008

4. O.B.CHikurov –Pskov Metodik qo'llanma. " Menga kim o'rgatadi ?" 2-qism. 2004

5. A.X. Abdullaev, N.S.Raximov, M, O, Xadaev Katta yoshdagilarni o'qitish markaziga: qadam-baqadam T;" CHASHMA" -2013

1.2. ANDROGOGIKANI NAZARIY VA AMALIY RIVOJLANISH TARIXI.

- «Kattalarni o'qitish» amaliyoti va nazariyasida butun jaxon tajribalari, uning tarixiy bosqichlari.

- XIX asrning 30 yillaridan so'ng Evropa va Amerika shaharlarida kattalar o'rtasida o'qishga bo'lgan talablar.
- «Andragogika» atamasi bo'yicha Germaniya olimlari o'rtasidagi munozaralar.
- Rossiya va boshqa chet mamlakatlarida kattalarni o'qitish uchun kechki maktablarni tuzilishi.
- Daniyalik Nikolay Gruntvigning Skandinaviyada «Xalq maktablarini» tashkil etishi.
- «Qayta tayyorlov» kurslarining tashkil etilishi. «Ustoz-shogird» tizimidagi ishlarning amalga oshirilishi.

Tayanch tushunchalar: kechki o'qishlar, yakshanba kunlari o'qish, halq maktablari, kutubxona, muzeylar, o'quv dasturlari, institutlar, aloxida kafedralar, malakali mutaxassislar, shart-sharoitlar, «Qayta tayyorlov» kurslari, konferenstiyalar, o'quv qo'llanmalari.

«Kattalarni o'qitish» amaliyoti va nazariyasi butun jaxon tajribalaridan foydalangan xolda, keng ommaga kirib keldi. Bu tajribalar bir necha bosqichlarga bo'lib o'rganiladi. Buning birinchi tarixiy bosqichi «Andragogika» deb nomlanadi. Bu esa kattalarni o'qitish amaliyotidagi ilk g'oya sifatida o'rganiladi. Bu g'oya 100 yil davomida uzluksiz o'rganildi. Hususan, XIX asrning 30 yillaridan so'ng ko'plab Evropa va Amerika shaharlarida ishlab chiqarish ko'p bo'lgani sababli kattalar o'rtasida o'qishga bo'lgan talab kuchaydi.

«Andragogika» atamasining birinchi marta qo'llanilishi XIX asrning 30-yillarda Germaniya olimlari o'rtasida juda katta munozaralarga sabab bo'ldi. Bunda aholining ongini rivojlantirishga, ularni bilimli bo'lishlariga katta e'tibor qaratilgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya va boshqa chet mamlakatlarda kattalarni o'qitish uchun kechki o'qishlar, yakshanba kunlari o'qish, halq maktablari, kutubxona, muzeylar va o'quv dasturlari tashkil etildi.

XIX asr oxirida «Kattalarni o'qitish»ga bo'lgan e'tiborning ortishi bilan aholining turli qatlamlarida mustaqil o'qishga bo'lgan harakatlar sezilarli tarzda kuchaydi va kattalarning ongini o'stirish maqsadida aholi uchun madaniy-ma'rifiy ishlar olib borildi.

Ushbu davrdan boshlab bunday o'qish an'anaga aylanib bordi va turli mamlakatlarda institutlar tashkil etildi. Buning natijasida yorqin shaxslar etishib chiqdilar. Bunday ishlarni tashkil qilishda juda ko'p insonlar bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar. SHunday o'qitish natijasida Daniyalik Nikolay Gruntvig Skandinaviyada «Xalk maktablarini» tashkil etgan.

Kattalarni o'qitish jarayonida turli xil muammolar yuzaga keldi va muammolarni xal etish uchun «qanday o'qitish kerak?, nima uchun o'qitish kerak?» degan savollarga echimlar izlana boshlandi.

XX asr boshlariga kelib «Kattalarni o'qitish»dagi muammolar olimlarning ilmiy ish mavzulariga kirib keldi, ya'ni katta odamlarni o'rganish uchun birinchi

navbatda ularning ichki-ruhiy olamini, katta yoshli shaxs psixologiyasini tadqiq etish boshlandi.

SHu davr nukta-i-nazaridan kelib chiqqan xolda, tadqiqotchilar insonlarni turli yoshda ham o'ziga xos qobiliyatlari bilan o'qiy olishlarini isbotlab bera olishgan.

Amerikalik olim E.Torndaykning «Kattalarni o'qitish psixologiyasi» nomli kitobining nashrdan chiqishi olimlar, E.Erikson, R.Gould, O.Brim va boshqalarda kuchli qiziqish uyg'otdi.

Andragogika rivojlangani sari institutlar, aloxida kafedralar, dasturlar, malakali mutaxassislar tayyorlash uchun shart-sharoitlar, kattalarni o'qitish uchun o'quv qo'llanmalar yaratildi va bir qator kongresslar, konferenstiyalar tashkil etildi.

Asta-sekinlik bilan andragogikani rivojlantirish orqali mamlakatlar va olimlarning o'zaro tajribalar almashinuvi yuzaga keldi.

SHunday qilib andragogikaning fan sifatida rivojlanishi uchun ijtimoiy soxalarda o'qitishning quyidagi vazifalari ishlab chiqildi:

- kattalarni o'qitish amaliyotini kengaytirish hamda murakkab ijtimoiy va shaxsiy extiyoj bo'lgan o'qitish soxasiga e'tibor qaratish;
- kattalarni o'qitish uchun, uzluksiz o'qitish mazmunini rivojlantirishga doir shart-sharoitlarni izlash va yaratish;
- kattalarning turli ijtimoiy vaziyatlarda bilimlarni chuqurroq o'zlashtirish darajasining psixologik qonuniyatlarini aniqlashtirish.

Kattalar ta'limi nima?

"Kattalar ta'limi" atamasi mamlakatimiz va xorij ilmiy-uslubiy adabiyotlarida o'z o'rnini topganiga qaramay, bizning nazarimizda mazkur tushuncha keng qamrovli, chuqur mulohaza yuritishga undaydigan tushunchalar sirasiga kiradi.

"Kattalar ta'limi" deganda biz katta yoshli insonning har tomonlama kamol topishini nazarda tutamiz. Katta yoshli insonning bilimi, malakasi, ko'nikmasini kengaytirish bilan bog'liq har qanday ish kattalar ta'limi xisoblanadi. Ushbu atama bilan bog'liq yana bir qiziq xolat, - kimni katta yoshli deb atash mumkin? - degan mulohazaga chorlovchi fikr keladi. Ko'pincha, katta yoshdagilar deganda 30 dan oshganlardan boshlab va xatto nafaqadagilar ham nazarda tutiladi. Ammo o'rta ma'lumotga ega bo'lgan va mustaqil pul ishlab topishni boshlagan har qanday inson katta yoshli hisoblanadi.

YA'ni, bu toifaga ishlaydigan yoshlar ham, o'rta yoshlilar ham, qariyalar ham kiradilar. Biz insonning o'rta yoki oliy ta'lim tizimida asosiy mutaxassislikga ega bo'lishi bilan bog'liq bo'lmagan ma'naviy va intellektual rivojlanishi haqida so'z yuritamiz.

Biz katta yoshli inson qanday ta'lim olishi, uning o'quvchi yoki talabadan qanday farqlari borligi, ular bilan ishlashda qanday usullar samarali ekani, bu soxada qanday muammolar borligi va ularni qanday vositalar yordamida xal etish mumkinligini muhokama qilamiz.

Kattalar nima uchun o'qiydilar?

Keling, kattalar ta'limi xaqidagi suhbatimizni "Kattalar nima uchun o'qiydilar?" degan oddiy savoldan boshlaylik.

Axir u umumiy ta'lim maktabini ham, o'z hayot maktabini ham o'tgan xisoblanadi-ku. Ammo bu savolga javob berish uchun biz, birinchidan, hammamiz klub yoki oliygoxdagi muntazam mashg'ulotlarga qatnashmasakda, butun xayotimiz davomida o'rganishimizni tan olishimiz kerak. Ta'lim olish - bu o'qituvchi bilan oddiy mashg'ulot o'tish emas, balki bilim va ma'naviy qadriyatlarga ega bo'lishdan iborat ko'p qirrali jarayonidir.

Hozirgi vaqtda BMT qoshidagi YUNESKO tashkiloti ta'lim olishning 3 ta shaklini rasman tan oladi:

Rasmiy (formal), ya'ni maxsus ta'lim muassasalarida olib boriladigan va tasdiqlangan guvohnoma yoki diplom berish bilan yakunlanadigan ta'lim. U kasbiy ta'lim tizimi, shuningdek qayta tayyorlash va malaka oshirishning turli xil kurslaridan iborat.

Norasmiy (non-formal), u istalgan joyda olib boriladi va diplom berilishi shart emas. Bunga turli to'garaklar, klublar, sekstiyalar kiradi. Aynan shu ta'lim bilan madaniyat muassasalari shug'ullanadilar. Rivojlangan davlatlarda norasmiy ta'lim ahamiyatiga ko'ra rasmiy ta'lim bilan bir xil, ko'pincha xatto yuqoriroq darajada turadi, chunki aynan unda inson o'z shaxsining ijodiy rivojlanishi uchun qulay sharoit topadi.

Informal (informal), ya'ni kutubxonalar, ommaviy axborot vositalari, do'stlar bilan muloqot, teatr, muzey yoki ko'rgazmalarni tomosha qilish orqali uyushmagan, maqsadga yo'naltirilmagan holda axborotga ega bo'lish. Bunday holatlar ko'pchilikda ro'y berayotganligi tufayli haqiqatan ham o'zimiz sezmagan holda biz butun xayotimiz davomida o'qiydiz, o'rganamiz.

"Qanday qilib ta'limni yanada samarali qilish mumkin va bu nima uchun zarur?" - degan savol berilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Uzluksiz ta'lim zarurligini juda ko'p buyuk pedagoglar va ma'rifatchilar ta'kidlaganlar. K.D.Ushinskiyning mashxur so'zlarini eslaylik: "O'quvchiga foydali bilimlarni faqat kitobdan emas, balki uni o'rab turgan predmetlar, xayotiy voqealar, qalb kechinmalaridan olish uchun ham bilim berish kerak. Bunday qobiliyatga ega bo'lgan inson butun umr o'qiydi"- deb yozgan edi.

So'nggi o'n yilliklardagina butun dunyoda uzluksiz ta'lim g'oyasi keng targ'ib qilinmoqda. Hozir Evropa Ittifoqi davlatlari o'zlarining asosiy hujjatlaridan biri - "Uzluksiz ta'lim memorandumini muhokama qilyaptilar, u Evropaning har bir fuqarosiga umrbod o'qish" huquqini beradi. Respublikamizda ham "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi asosida ta'lim tizimida tub islohotlar amalga oshirilib, u turli yo'nalishlarda muvafaqqiyatli davom etmoqda.

Bu masala:

Birinchidan - bu ilmiy-texnik yuksalish natijasida tug'ilayotgan yangi texnologiyalarni muntazam o'zlashtirish ehtiyoji bilan bog'liq. Agar kechagina komp'yuter, ayniqsa qishloq uchun, hamma biladigan, lekin faqat televizorda

ko'rgan raketadek tuyulgan bo'lsa, bugun deyarli barcha tashkilotlarda foydalanilayotgan kal'kulyator, komp'yuter kabi odatiy holatga aylandi. Komp'yuter orqasidan bizga elektron aloqa, internet, yangi buxgalterlik dasturlari kelyapti. Agarda biz ularni tan olish va qabul qilishga tayyor bo'lmasak tez kunda o'zimiz tanlagan kasbiy faoliyatda ham, kundalik hayotda ham orqada qolamiz.

Ikkinchi omil - bu ijtimoiy hayotning murakkablashgani, har doim ongli tanlash zaruriyatidir. Inson qanchalik ma'lumotli bo'lsa, o'zi hohlagan narsani chiroyli reklama yoki jozibador chaqiriqqa qarab emas, balki o'z bilim va e'tiqodlariga asoslanib, shunchaki ongli tanlovni amalga oshiradi. Avval tanlash imkoniyati mavjud bo'lmagani uchun qanday kolbasani sotib olayotganimiz, qaysi nomzodga ovoz berayotganimiz, pullarimizni qaysi bankka qo'yayotganimiz, farzandimizni qaysi maktabga berayotganimiz bizni qiziqtirmas edi. Xozir esa ushbu masalalarga yondashuv tubdan o'zgardi, yangi fikr – yangi munosabat paydo bo'ldi.

Uchinchi omil - zamonaviy fuqarolik jamiyatining yangi ma'naviy-axloqiy talablari uzluksiz ta'limni, ayniqsa ta'limning yangi shakllarini taqozo etadi. Qaror topgan ma'naviy-psixologik me'yorlarning o'zgarishi davrida jamiyat hayotida ma'naviyatning roli ortadi, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ijtimoiy nuqsonlar bilan kurashish, qonunlarga rioya qilish, fuqarolar huquqlarini xurmat qilish, ularning o'z majburiyatlarini bajarishlari, oilani mustaxkamlash, sog'lom turmush tarzini rivojlantirish, ekologiya-atrof muxitni muhofaza qilish kabi muammolarga jamiyat e'tibori kuchayadi. Faqat o'sib kelayotgan yosh avlodnigina emas, balki kattalar ta'limi va tarbiyasi, ijtimoiy-madaniy qadriyatlari, ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishlariga doir muammolarning kun tartibiga kiritilishi ushbu mezonlardan kelib chiqqan holda tahlildan o'tkaziladi.

Insonning tobora o'sib boruvchi ehtiyojlarini qondirish o'z shaxsini rivojlantirish muammosi ham juda dolzarbdir, kattalar ta'limi esa o'z shaxsini takomillashtirish va o'zligini namoyon qilishga yordam beradi.

Amerikalik psixolog A.Maslouning fikricha, inson o'zining asosiy fiziologik ehtiyojlarini (ovqatga, yashash joyiga, xavfsizligiga) qondirib borish bilan ularning o'rnini, xurmat qozonish, tan olinish, bog'lanib qolish kabi murakkabroq ehtiyojlar egallaydi.

Bunda insonning o'z salohiyatini namoyish qilish ehtiyoji, ya'ni insonning o'zi xoxlagandek(ideal) shaxs bo'lishi, o'z maqsadlariga erishishi, o'z shaxsiy va umuminsoniy qadriyatlarini namoyon qilishi, mavjud qobiliyatlaridan unumli foydalanishidir. Albatta, ijtimoiy hayot shart-sharoitlari har doim ham bu yuqori pog'onaga erishishga xalal beradi, ammo bizning jamiyatimiz alohida olingan har bir shaxsga o'z iqtidori va ijodiy ikoniyatlarini ro'yobga chiqarishga sharoit yaratib bermoqda.

Katta yoshdagilar qanday o'qiydilar?

Ko'pincha biz do'stlarimiz va hamkasblarimizning "Yo'q, men o'qish uchun qaridim, xotiram ham avvalgidek emas, o'qituvchini tinglab uzoq o'tira

olmayman” deganlarini eshitamiz yoki o’zimiz ham shunday deymiz. Biroq katta yoshlilarning ko’pchiligi telvizorda ko’rsatilayotgan seriallar mazmunini barcha tafsilotlarigacha so’zlab beradilar yoki oilaviy xayotning (o’zlariniki va boshqalarniki) mayda-chuydalarini yodga oladilar. Bu bizning fiziologik va neyropsixologik xususiyatlarimizga emas, balki bu nimani va qanday eslab qolish yoki tushunishni xoxlashimizga bog’liq holos.

Biz "o’qish" so’zini eshitganimizda partalar va auditoriya oldida turgan ma’ruzachini tasavvur qilamiz, vaxolanki, bunday "o’qish"ga biz xayotimizning 10-15 yili davomidagina bog’liqmiz. Agar biz hali maktabga bormagan bolalarni o’ylasak, biz ularni partaga o’tqizish va dars davomida o’qituvchini tinglashga majbur qilishini xayolimizga ham keltira olmaymiz. Bu ular "o’qiy olmaydilar" degani emas, faqat ular buni o’zlarining yoshlariga mos darajada bajaradilar. Katta yoshli inson ham o’ziga xos xususiyatlarga ega. U ham butun xayoti davomida o’qiydi, buni o’zining yoshiga mos tarzda, bola va o’smirlardan boshqacha bajaradi. Biz esa uni o’quvchi yoki talaba kabi partada bizni indamay tinglashga, "majbur qilish"ga harakat qilamiz. Natijada ular qoniqmaslik, "menga o’qish endi kech" degan fikr yuzaga keladi. O’zimiz ham olib borayotgan ishlarimiz, harakatlarimiz kutilgan natijani bermayotganini ko’ramiz, uni o’zgartirish ilojisini qidiramiz, vaziyatdan chiqishga xarakat qilamiz, uni topishimiz esa ancha qiyin kechadi.

Kattalar guruhi bilan mashg’ulotni rejalashtirayotganingizda material tayyorlash vaqtida juda ko’p kitoblarni varaqlashga to’g’ri keladi. Keyin qiziqarli misollarni tanlab, reja, xattoki so’zlaydigan nutqingizning butun matnini tuzib chiqasiz, natijada ko’pchilik tinglovchilar mexnatingizning qadriga etadilar. Lekin siz ham auditoriyadagi zerikkanidan esnayotgan, soatdan ko’z uzmayotgan kishilarni sezasiz. O’zingizni oqlash uchun siz "nima qilay, o’qish - bu mexnat, hammaga ham oson bo’lavermaydi" - deb o’ylaysiz. Bu eng ajoyib fikr. Agar bu fikr to’g’ri bo’lganda, biz gazetada o’qigan "yulduzlar janjali"ni ham, kechagi to’yda kim qanday kiyim kiyganini ham, tug’ilgan kunda nima eganimizni ham eslab qolmagan bo’lardik. Qaytaga mashg’ulotni qanday o’tkazishni, nimadan boshlab, auditoriya diqqatini qanday jalb qilishingizni, dam olish uchun qanday qiziqarli voqeani aytib berishingizni, ular turib, qaerda ozgina yurishlari mumkinligini, o’z fikrlari bilan o’rtoqlashish imkoni beradi.

Kattalar ta’limi xususiyatlari bilan jiddiy shug’ullanayotgan YUNESKO tashkiloti ko’p yillik tadqiqotlar natijasida kattalar ta’limining asosiy tamoyilini taklif etdi: "Kattalar uchun o’qish quvnoq (qiziqarli) tashkil qilinishi kerak!" Bu ibora nimani anglatadi?

Psixologlar katta yoshli ta’lim oluvchini o’quvchi yoki talabadan farqlab turuvchi 5 ta asosiy belgini ko’rsatadilar:

Avvalo, katta yoshli inson o’zini mustaqil, o’z-o’zini boshqaradigan shaxs sifatida anglaydi va uni boshqarish harakatiga ko’p xollarda tanqidiy munosabatda bo’ladi.

Keyin, katta yoshli inson dunyoqarashni shakllantiradigan hayotiy, ijtimoiy, kasbiy tajribaning katta zahirasini to'playdi va kelayotgan har qanday axborotni shu tajriba nuqtai nazaridan baholaydi.

Uchinchidan, katta yoshli inson o'qishga amaliy yondashadi, o'qish yordamida xayotiy muammolarini hal etishga harakat qiladi.

To'rtinchidan, o'quvchi yoki talabadan farqli ravishda, u olgan bilimlarini shu zahoti ko'llashga va o'quv jarayonidan shu zahoti qoniqish hosil qilishga harakat qiladi.

Beshinchidan, uning axborotni idrok etish jarayoni emostional baholash bilan birga kechadi, bunda uning miyasi salbiy xissiyot uyg'otadigan har qanday axborotni to'xtatib qo'yishga harakat qiladi.

O'qituvchi har bir darsga tayyorgarlik ko'rayotganda yuqoridagi holatlarni doimo hisobga olishi kerak, lekin bularning hammasini yodda tutish, bir qolipda ishlashi shart emas.

O'qituvchi o'zini tinglovchilar o'rniga qo'ya olishi(identifikastiya), tasavvur qilishi va mashg'ulotlarda o'tirish qanchalik qiziqarli bo'lishini maqsad qilishi lozim. Agar sizda bilim olish uchun chidam va aqliy mexnat qilishga tayyorlik bo'lsa, bu boshqalarda ham xuddi shunday ekanligini anglatmasligini yodda tuting.

Katta yoshli kishilarni biz shuni xoxlaganimiz va shuncha adabiyotlarni varaqlab, tayyorlanganimiz uchungina qiynash kerak emas. Ushbu fanda ta'limning andragogik modeli deb nomlangan katta yoshli kishilar bilan ishlashning asosiy qoidalarini, katta yoshli kishilarga ta'lim berish qonuniyatlarini bilish va unga amal qilgan xolda mashg'ulotlarni tashkil etish hamda o'tkazish talab etiladi.

YUqorida qayd etilgan kattalar ta'limining o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olsak ma'ruzalar ham, bir necha kishi faol bo'ladigan oddiy seminarlar ham, boshlovchi ustunlik qiladigan suhbat shaklidagi mashg'ulot ham katta yoshdagilar auditoriyasini xisobga olgan xolda o'tkazilishi lozim. Katta yoshli insonning fiziologik, psixonevrologik, alohida psixologik xususiyatlari pedagogik jarayonga unchalik ham mos kelmaydi. SHuning uchun, katta yoshdagilar guruhi bilan ishlaganda monolog - dialogdan ustunlik qiladigan, guruh esa faol ishtirokchi emas, passiv tinglovchi bo'ladigan holatdan farq qiladigan tamoyillarga asoslanish lozim.

Bunday yondashuvda o'qituvchining ham vazifasi o'zgaradi, oddiy ma'ruzachi yoki boshlovchi o'rniga u moxir psixolog va tashkilotchi bo'lishi, guruhni samarali natija beruvchi, faollikka undovchi, erkin fikr yurituvchi faoliyatga jalb eta olishi kerak.

Endi biz "boshlovchi", "o'qituvchi", "ma'ruzachi" kabi odatiy atamalar o'rniga andragogikada o'rnashib qolgan "moderator" so'zini qo'llaymiz. Moderator (lotincha "ramkada ushlash", "chegaralash") bu katta yoshdagilar guruhi bilan tenglik va dialog tamoyillari asosida tashkil etilgan har qanday ishni olib boruvchi inson xisoblanadi.

Biz quyida o'qituvchi, majlis yoki seminar boshlovchisi, klub rahbarini nazarda tutganimizda aynan shu so'zni qo'llaymiz. Moderator faoliyatini belgilovchi 4 ta asosiy tamoyil mavjud.

Birinchi tamoyil: tenglik tamoyili. Moderator o'zi ham boshqalar kabi o'zini guruh ishtirokchisi ekanini ko'rsatishi kerak. Bu erda hamma narsa: jixozlarning joylashtirilishi ham (aylana yoki yarim aylana), moderatorning nutq uslubi ham (monologik yoki dialogik), guruhga murojat tarzi ham ("ishtirokchilar" yoki "o'rtoqlar" emas, "do'stlar" yoki "hamkasblar") katta ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, moderator har qanday axborotni muhokama qila olishi va undan shubxalanishi kerakligiga tayyorlanishi kerak. Tinglovchilarning muammoga oid ayrim fikr-mulohazalari bizning "chuqur" bilimlarimizdan ko'ra haqiqatga yaqinroq bo'lishi mumkin. Hamma shaxsiy fikr huquqiga ega va bizning bilimimizdan qat'iy nazar, bu huquqni xurmat qilish kerak. O'z fikrini "eng to'g'ri haqiqat" deb ta'kidlash xuquqi kimga berilgan? Guruhga ilmiy manbalar yoki maxsus adabiyotlardan olingan axborotni berayotganimizda ham yonimizda o'tirgan katta yoshli insonning o'z hayotiy tajribasi borligini va bu mavzuda har kim o'z fikrini bildirishi mumkinligini yodda tutish muhimdir. Ularning maxsus terminlar, iboralar bilan emas, oddiy muloqotdagi so'zlar bilan gapirishlari muhim emas - katta yoshli inson uchun jummalarning ifoda tarzi emas, balki eshitgan narsalarni tushunish va qabul qilish muhim xisoblanadi.

Ikkinchi tamoyil - faol ijod. Bu tarzda ish yuritish tinglovchilardan quvnoqlik va zukkolikni talab etadi. Har birimiz o'zimiz ega bo'lgan tajribalar asosida, tasavvurlar, qoliplar (stereotiplar) yaratishga o'rganib qolganmiz va istalgan yangi narsani biz "eskichasiga", ya'ni o'zimiz o'rganib qolganimizdek tushunishga, hamda bajarishga xarakat qilamiz. Bu stereotiplarni o'zgartirish va miyamizni yangi bilimlarni qabul qilishga va yangi g'oyalar ishlab chiqishga tayyorlash uchun guruhda maxsus psixologik ishchi muxitni yaratish kerak.

Olimlar ta'lim olish mobaynidagi o'zlashtirish jarayonining o'ziga xos piramidasini ishlab chiqqanlar. Katta yoshli inson eshitganlarining 20% ini; eshitgan va ko'rganlarining 40%ini; eshitgan, ko'rgan va muhokama qilganining 60%ini; o'zi mustaqil bajarganlarining 80%ini o'zlashtirar ekan. SHunga ko'ra: yangi bilim faqat muhokama qilinmasdan, mustaqil ifoda etilishi ham zarur. Bu erda yana hamma narsa: ko'rgazmalilik rangbaranglik (kartochkalar uchun rangli qog'ozlar), kichik guruh bo'lib muhokama qilish (rasm yoki ramzlar yordamida), paradokslar, aloqasi yo'q holatlarni qo'shish (mashg'ulotga biror narsa olib keling sizning mavzingizni qanday qilib o'zgartirishi mumkinligi to'g'risida o'ylab ko'ring), harakat, musiqa ahamiyatga ega. Keyinroq bu xaqda batafsil fikr yuritamiz.

Uchinchi tamoyil - shaxsga tegishlilik. Ba'zan uni shaxsiylashtirish bilan adashtirishadi, lekin bu erda katta farq bor. Ta'limni shaxsiylashtirishda guruh a'zolarining individual xususiyatlarini xisobga olishimiz kerak bo'lgan masala, ya'ni kimgadir misol yordamida, kimgadir jadval orqali tushuntirish kerak. SHaxsga tegishlilik yondoshuvida bu narsa shart emas, mashg'ulot barcha

kattalarning xususiyatlarini e'tiborga oladigan reja asosida tashkil etiladi. O'qituvchi ularning har biri o'z xususiyatlariga ega bo'lgan shaxs ekaniga tayyor bo'lishi kerak. Bizning gapimiz yoki usulimiz kimgadir yoqmasligi, kimnidir zeriktirishi mumkin, kimdir uyidagi muammolarini o'ylab, yana kimdir yonida o'tirgan sherigi bilan pichirlashib o'tiradi. Bu holatga katta e'tibor bermaslik lozim.

Biz mashg'ulot davomida ularning hammasini xurmat qilishga o'rganishimiz kerak chunki atrofingizda katta yoshli mustaqil kishilar va ular uchun siz o'tkazayotgan mashg'ulot muhimroq bo'lishi mumkin. U holda nima uchun kelganlar? degan fikr xosil bo'ladi. Bunga juda ko'p sabablar bo'lishi mumkin: rad etish noqulay bo'lgan; boshliq majburlagan; biroz chalg'iyimiz, dam olamiz deb o'ylashgan bo'lishi mumkin. Bu holatni qanday qilib engish mumkin? Bu xaqida keyinroq batafsil ma'lumot keltiramiz. Asosiysi - xafa bo'lmaslik va tarbiya haqida va'zxonlik qilmaslikka o'rganing, tushunishga harakat qiling. Psixologlarda empatiya (hamdard bo'la olish) tushunchasi bor. Agar siz o'zingizda shu malakani rivojlantirsangiz, xatto eng "qiyin" deb xisoblanadigan guruhda ham o'zaro muammolar yuzaga kelmaydi.

Nihoyat, so'nggi **to'rtinchi tamoyil** – qulaylik yaratish. O'zingiz uzoq vaqt xarakatsiz o'tirganingizda, chalg'iganingizda, qorningiz ochganda qanday charchashingiz yoki xayolingiz buzilishini yodda tuting. SHuning uchun kichik tanaffuslar, "qo'l-oyoqning chigilini yozish", bir piyola choy yoki qaxvani unutmang. Ular sizda teranlikni kuchaytirib, mashg'ulotni qulay tarzda tashkil etishga yordam beradi. Katta yoshli insonga doimo yangi axborotni o'ylash uchun ma'lum muddat kerak, shunday ekan, tanaffusni bekorga yo'qotilgan vaqt deb o'ylamang. Aksincha, 40 daqiqalik mashg'ulotdan keyingi, 10 daqiqalik xordiq("bir piyola choy", "kofe") tanaffussiz davom etadigan bir yarim soatlik ma'ruzadan ko'ra foydaliroqdir. O'qishga ijobiy xisssiyotlarga eng yahshi ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchi guruhida xursandchilik kayfiyatini yaratishga o'rganishi lozim.

Mavzuni o'zlashtirishni ta'minlashga oid savollar:

- «Kattalarni o'qitish» amaliyoti va nazariyasida butun jaxon tajribalari, birinchi tarixiy bosqichi xaqida bilasizmi?
- XIX asrning 30 yillaridan so'ng ko'plab Evropa va Amerika shaharlarida kattalar o'rtasida o'qishga bo'lgan talab qanday edi?
- «Andragogika» atamasi haqida Germaniya olimlari o'rtasidagi munozaralar xaqida bilasizmi?
- Rossiya va boshqa chet mamlakatlarida kattalarni o'qitish uchun nimalardan foydalanishdi?

Daniyalik Nikolay Gruntvigning Skandinaviyada «Xalk maktablari»ni tashkil etish sabablari?

Mavzuni o'rganish bo'yicha foydalanilishi mumkin bo'lgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zmeev S. I. Andragogika: Stanovlenie i puti razvitiya // Pedagogika. — 1995.-№2.
2. Zmeev SI. Texnologiya obucheniya vzroslyx. — M., 2002.
3. Metodik qo'llanma, "DACUM kasbiy ta'limda", N.S.Raximov, B.M, Farshi-Vjalali, Toshkent, 2008
4. O.B.CHikurov –Pskov Metodik qo'llanma. "Menga kim o'rgatadi?" 2-qism. 2004
5. A.X. Abdullaev, N.S.Raximov, M, O, Xadaev Katta yoshdagilarni o'qitish markaziga: qadam-baqadam T;" CHASHMA" -2013

1.3. YOSHI KATTA INSON -TA'LIM SUB'EKTI SIFATIDA

- YOshi katta inson ta'lim su'ekti sifatida.
- Odamning yoshiga ko'ra davrlarni ajratish (30 yoshgacha, 30yoshdan 45 , 65 yoshgacha, 75 yoshdan keyin) yoki an'anaviy tarzda yoshlik , etuklik, keksalik deb nomlanishi.
- YOsh chegaralarini belgilashdagi "umr bahori", "ko'rkam yosh", "navqiron yosh", "qirchillama yosh", "nafaqa yosh" kabi atamalar.
- Psixofiziologiyada xronologik va biologik yoshning farqlanishi.

Tayanch tushunchalar: "katta odam", yoshlik, etuklik, keksalik, yosh chegaralari, "umr bahori", "ko'rkam yosh", "navqiron yosh", "qirchillama yosh", "nafaqa yosh" o'xshatmalari, psixofiziologiya, xronologik va biologik yosh, individual rivojlanish qonuniyatlari, psixo-biologik o'lchamlar, imkoniyatlar, talab va me'yor, ijtimoiy-normalar, o'zaro munosabatlar, hulq-atvor, tashqi qiyofa, ijtimoiy xolatlar.

Andragogika kattalarni o'qitish, ilmiy-uslubiy va kadrlar bilan ta'minlash faoliyatiga oid umumiy qonuniyatlarga duch keldi. Kattalarni o'qitish haqida gap ketganda, kimni kattalari qatoriga o'qitish kerak degan savol tug'iladi?

Zamonaviy androgogikani ilmiy refleksiya quroli sifatida baholab, shuni e'tirof etish kerakki, kattalar ta'limi tadqiqotning alohida sohasi sifatida mamlakatimiz va chet el adabiyotlarida yoritib berilgan. Ammo texnologik jihatidan kattalar ta'limi jiddiy nazariy asosni talab etadi. Ta'limga keng ma'nodagi yondashuv mazkur tushunchani inson hayoti va faoliyatidan ajratib bo'lmasligini ko'rsatadi.

Inson tug'ilganidan to umrining ohirigacha bo'lgan davrda ro'yobga chiqaradigan maqsadli, rejali faoliyatiga ta'lim ko'maklashib turadi.

Mazkur nuqtadan – nuqtagacha bo'lgan davr oralig'ining kattagina qismi bolalik yoki o'smirlikka emas, aynan kattalik davriga tegishlidir.

Androgogik nuqtai – nazaridan biz kimni “katta odam” deb ataymiz? Baxtga qarshi, ta’lim maskanidan keyingi hayot faoliyati davri ilmiy asosda tasnif etilmagan. Odamda ushbu davr yoshga ko’ra (30 yoshgacha, 30 yoshdan 45 , 65 yoshgacha, 75 yoshdan keyin) yoki an’anaviy tarzda yoshlik , etuklik, keksalik deb nomlanadi. Ayrim xollarda esa yosh chegaralarini belgilashda ”umr bahori”, “ko’rkam yosh”, “navqiron yosh”, “qirchillama yosh”, “nafaqa yosh” kabi turli o’hsatmalardan ham foydalaniladi.

Psixofizologiyada xronologik va biologik yosh farqlanadi.

Xronologik yosh - odam yoki boshqa jonzotning dunyoga kelishi, tug’ilishidan boshlanadigan vaqtning xisobini ko’zda tutadi.

Biologik yosh - odamning jismoniy o’sishi va rivojlanish pallasi, deb e’tirof etiladi.

”Psixologik – pedagogik nuqtai-nazardan aynan yosh, ta’lim sohasini loyihalashning dastlabki nuqtasini tashkil etadi” – deydi V.I.Slobodchikov .

Taniqli sostiolog I.S.Konnning fikricha, yosh davrlari quyidagi uch tizim asosida belgilanadi:

- Individual rivojlanish qonuniyatlari (psixo- biologik o’lchamlar asnosida yuzaga kelgan imkoniyatlar);
- Jamiyatning yoshga doir talab va me’yorlari (har bir avlod vakillari uchun ijtimoiy – madaniy normalar);
- Ijtimoiy, madaniy-ma’rifiy qadriyatlar sifatida e’tirof etilgan ramziy yosh (o’zaro munosabatlar, hulq-atvor, tashqi qiyofa sohasidagi ijtimoiy xolatlar yig’indisi);

“Katta odam” tushunchasini turli – tuman qirralarida talqin etish mumkin. SHaxs tushunchasi, fanda ko’pchilik tamonidan qabul qilingan ”individ” , “shaxs” , “sub’ekt”,” individuallik” kabi atamalar bilan izoxlanadi.

Individ - (lotincha, individuum-bo’linmas) – odam zotining vakili, tabiiy zotga mansublik.

SHaxs - hamkorlikdagi faoliyat va muloqot jarayonidagi ijtimoiy munosabatlar tizimida egallanadigan ijtimoiy rol egasi.

Sub’ekt - (lotincha, subectum - asosda turuvchi) – bilish va predmetli- amaliy faoliyat egasi, ongli, maqsadga yo’naltirilgan faollik manbai.

Individuallik - konkret odamning individ, shaxs, sub’ektga oid birlashuvi, o’ziga xosligi, qaytarilmasligi.

Ko’p qirrali zot misolida, katta odam fizologik, ijtimoiy –psixologik va mazmundorlik jihatiga ko’ra jamiyat taraqqiyotiga o’z hissasini qo’shish qobiliyatiga ega:

- tabiiy(avlodlarni davom etirish);
- tarixiy – ijtimoiy (ishlab chiqarish va jamoatchilik faoliyatida qatnashish);
- madaniy (madaniy tajribalarni saqlash, etkazib berish va yanada boyitish.);
- ma’naviy (insoniyat to’plagan ma’naviy merosni o’zlashtirish, uni yuksaltirish).

Kattalik dunyosini xis qilish, tabiiy va ijtimoiy olamda o'z o'rnini anglash orqali ifodalanadi, kattalikni hayot faoliyatining muhim sifati deb belgilash mumkin. Kattalik hayotning ma'lum bir davrigina emas, balki amalga oshirilgan ishlar uchun ma'suliyat va javobgarlik xissi hamdir, bunda ta'lim yoki o'qitishning o'rni beqiyos sanaladi.

Bilim, ko'nikma va malakalarni doimo yangilab turish, qo'shimcha manbalarni egallash zaruriyati quyidagi holatlar bilan izohlanadi:

- katta odam hayotida turli muammolarning yuzaga kelishi, ularni hal etish uchun qo'shimcha bilim va tajribalarni egallash zaruriyati;
- har qanday yoshdagi kishilarda axborotga bo'lgan ehtiyojining mavjudligi;
- kishida ta'lim olishga bo'lgan mayl-ishtiyoqning so'nmaganligi;
- kishining o'z hayoti va faoliyati davomida tajriba to'plab borishi;

Kattalarga ta'lim berishning o'ziga hos jihatlari ko'zda tutgan holda, zamonaviy kishiga kim, qachon, qaerda va qanday ta'lim berishini oydinlashtirib olish lozimdir.

Zamonaviy dunyoda axborot oqimining kuchayganligi, kishilarning o'zaro hamkorlikdagi faoliyati o'qitishni davomiy va izchil tarzda tashkil etish hayotiy zaruriyat ekanligidan darak beradi. Hayot faoliyatining turli bosqichlarida kishilarga bir – biriga o'hshash talay vazifalar yuklatiladi:

- tabiiy zot sifatida o'zini saqlashi va rivojlantirishi(hayotning davomiyligi, salomatlik, nasl qoldirish);
- ijtimoiy, madaniy, ma'naviy va faol shaxs sifatida o'zini ruyobga chiqarish(mexnat bozoriga moslashish va o'z o'rnini topa olish, madaniyatni o'zlashtirish, ma'naviy yuksalish);
- inson o'z hayoti va faoliyati davomida shunday o'zgarishlarga duch keladiki, mazkur holatlar barcha uchun umumiydir;
- yoshga doir muammolar (yosh inqirozlari, gormonal o'zgarishlar davri);
- ta'lim olishning almashinib borishi (bog'cha tarbiyalanuvchisi, o'quvchi, talaba va xokazo);
- oiladagi rollarning almashinuvi(bolalar, nabiralar, er –xotin, ota – ona , xola- amaki, qaynota – qaynona, bobo – buvi va boshqalar);
- ekzistenstial inqirozlar(hayot mazmunini qidirish);
- ijtimoiy, psixologik va stressli vaziyatlar(ishning o'zgarishi, boshqa joyga ko'chish, xorijga chiqish, yaqin kishilarning vafot etishi, nafaqaga chiqish va xokazo);
- ijtimoiy funkstiyalarni bajarish(armiyada xizmat qilish, xukumat idoralarida xizmat qilish);
- ahloqiy muammolarni hal etish(yaxshilik va yomonlik, mehr va muruvvat, burch xissi va boshqalar).

YUqoridagi xolatlarni e'tiborga olgan holda shuni aytish mumkinki ta'lim mazmuni davr talabidan kelib chiqadi.

Hozirgi kundagi ta'lim mazmuni o'z ichiga quyidagi jihatlarni oladi:

- zamonaviy bilimlar darajasi;
- o'zgarib boruvchi jamiyatda axborot oqimi bilan ishlash malakasi;
- “odam - odam “, odam – komp'yuter;
- odam-odam tizimida ishlay olish;
- voqelikni o'zgartirish usuli sifatida loyihalash faoliyatini egallash;
- yangi ijtimoiy- iqtisodiy munosabatlarni egallash;
- salomatlikni saqlash;
- o'z shahsiy imkoniyatlarini chamalash;
- ma'naviy – ma'rifiy yuksalish;

Sub'ektning hayot faoliyati davomida egallaydigan bilimlari o'z ahamiyatiga ko'ra quyidagi sifat tavsifiga ega bo'ladi:

- fundamental bilimlar (dunyoni bilish, uni tushunish, axborot integrastiyasi);
- amaliy bilimlar(ma'lum bir xarakatlarni bajarishga yordam beruvchi bilimlar);
- oldinlab ketgan bilimlar(hayotda uchraydigan aniq muammolarni oldindan ko'ra olish);
- etaklovchi bilimlar (hayot qonunlarga ko'ra yuzaga kelgan muammolarni hal etish);
- kompensastiyalovchi(tuzatuvchi, joy–joyiga qo'yuvchi) bilimlar (ta'limiy yoki umummadaniy bilimlar etishmovchiligini tuzatish);
- korrekstiyalovchi bilimlar(ijtimoiy me'yorlarga mos kelmaydigan shaxsiy, hulqiy, kommunikativ munosabatlarni o'zgartirish);
- rivojlantiruvchi bilimlar;
- qo'llab –quvvatlovchi bilimlar;
- to'ldiruvchi bilimlar.

Kattalarni turli yosh davrlarida o'qitish o'ziga hos ma'no kasb etadi:

1.YOshlik davri(18-30 yosh). YOshlik davri biologik va ijtimoiy imkoniyatlarning ortishi bilan xarakterlanadi.

Bu davrda shaxs oila qurish, farzand ko'rish, mehnat faoliyati bilan shug'ullanish, jamiyatning ijtimoiy – siyosiy hayotda faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ldi. Mazkur davrda hayot yo'lini boshlash uchun yangi imkoniyatlar eshigi ochiladi.

Nemis falsafiy adabiyotida 22yoshdan 27 yoshgacha bo'lgan davrni, obrazli qilib “kezish yillari” deb ham atashadi.Ushbu yillar sinovlar va xatoliklar, birinchi hayotiy saboqlar davri sanaladi.

2.Etuklik davri. ”Etuklik” tushunchasida ma'lum bir yoshga etish,etuklik , tajriba, davr mujasamlashadi.

Etuklik davri yoshlik va keksalik oralig'ida bo'lib, 30 yoshdan 55-60 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Etuklik davrida odam o'zining barcha kuch-quvvati, qobiliyati, aql-zakovati va ichki imkoniyatlarini o'z kasbiga, ijtimoiy faoliyatiga, jamoat ishlariga safarbar eta oladi. Organizmdagi ayrim

o'zgarishlar, umrning tez o'tishi kishini tashvish va iztirobga soladi. U keyingi hayotining har bir daqiqasidan unumli foydalanishga qaror qiladi.

Ayrim orzu – istaklarni amalga oshirish uchun jismoniy va ruhiy imkoniyatlar etishmasligi anglash, “turg'unlik” tuyg'usini vujudga keltiradi. Etuklik yoshida jismoniy–aqliy imkoniyatlardan to'laroq foydalanish ko'nikmasi paydo bo'ladi, bu hol zo'riqish, iroda kuchi, asab taranglashuvi xisobiga emas, balki muayyan ko'nikma, malaka va mahorat asosida ro'y beradi.

3.Keksayish davri.

Keksayish davriga 55(60) yoshdan 70 (75) yoshgacha bo'lgan erkak va ayollar kiradilar. Mazkur yoshdagilarni shartli ravishda ikkita katta guruhga ajratish mumkin:

a) mutloqo iste'foga chiqqan “ijtimoiy faol bo'lmagan erkak va ayollar;

b) nafaqaxo'r, lekin ijtimoiy hayotdan uzoqlashmagan erkak va ayollar.

Ularning xis- tuyg'ulari yashash tarziga muvofiq holda namoyon bo'ladi:

- barqaror kayfiyat, hotirjamlik tuyg'usi, o'z qadr-qimmatini saqlash, nufuz, e'tibor talablik;

- osoyishta xulq-atvor, tabiat qo'ynida mehnat qilish zavqi, go'zallikdan bahra olish;

- umidsizlik, yolg'izlik xissi.

“Sub'ekt” kategoriyasi Aristotel' davridan hozirgi kunga qadar falsafaning asosiy kategoriyalaridan biri sifatida talqin qilinadi. XX asrda psixologiya fanining rivojlanishi(S.L.Rubinshteyn, K.A.Abul'xanova, A.V.Brushlinskiy, V.A.Lektorskiy va boshqalar) bilan “ individ”, “shaxs”, ”individuallik” kabilar qatorida “sub'ekt” ham odam zotiga xos sifat tavsifini bera oladi.

“Falsafiy ma'noda sub'ekt – anglangan faollik ko'rsatuvchi, tashqi va ichki dunyoni o'z amaliy faoliyati orqali bila oluvchi va o'zgartiruvchidir” – deb ta'kidlaydi S.L.Rubinshteyn va B.G.Anan'ev.

Haqiqiy sub'ekt, o'zi ishtirok etayotgan faoliyat tuzilmasini maqsadga erishmasdan turib ham anglay oladi, unda o'z faoliyatini baholash va refleksiya orqali o'z hatti–harakatlarini korreksiyalash (tuzatish) qobiliyati mavjuddir.

Katta odam, sub'ekt sifatida o'z aql–idroki, irodaviy xarakatlari, mustaqil fikr yuritishi orqali faoliyat ko'rsatadi, chunki u inson shaxsiga xos fazilatlarga egadir.

Pedagogikada “sub'ekt” tushunchasi XX asrning 70 – yillarida falsafiy – psixologik bilimlar tizimi orqali kirib kelgan. Evropaga xos ta'lim an'alarida mustaqillikka yuz tutish, sub'ektlilik, o'z- o'zini rivojlantirish va o'z o'rnini topa bilishga katta e'tibor qaratiladi.

“Faol arbob“ sifatida sub'ekt o'z faoliyatining ichki rejasini ham tuza oladi. Aynan shu qadriyat va ehtiyojlar katta odamni ta'lim jarayonining faol sub'ekti bo'lishiga undaydi. Katta odamning ta'lim jarayonida sub'ekt sifatida faoliyat olib borishi quyidagi ko'rsatkichlarda o'z aksini topadi:

- o'zining axborotga bo'lgan so'rovini mustaqil shakllantira oladi;
- ta'lim modelini tanlash imkoniyatiga ega;

- o'qitish jarayonida o'z o'rnini topa oladi;
- ta'lim sohasida xissiy – irodaviy, fiziologik, o'z- o'zini idora etish qobiliyatiga tayanadi;

- o'qitish mazmuniga o'z hayotiy tajribalarini singdra oladi;

Kattalar ta'limini tashkil etish mobaynida ayrim tashqi va ichki qiyinchiliklarni mavjudligini ham nazarda tutish lozim. Axborot olish tizimlari kuchayib ketgan hozirgi davrda, zamonaviy o'quvchi yoki talaba o'z ota – onasidan axborot masalasida ustunlik qiladi.

Yangi asrda axborot bilan ishlashning yangi usul hamda vositalaridan foydalanilmoqda. 40 yoshdan o'tgan kishilarni tashqi dunyodan kelayotgan axborotlarning ko'pligi, turli – tumanligi, noan'anaviyligi tashvishga soladi. U xatto o'zi ishlab turgan sohadagi axborotlarni qamrab olish imkoniyatiga ham ega emas. Katta odam oldida yangi “maktab”da nafaqat o'qish, balki “uqish” vazifasi paydo bo'ldi.

Eng avvalo kompyuter texnikasini egallash, axborot tizimida ishlay olish. Bu esa muloqotning yangi, masofaviy shaklini o'zlashtirishni talab etadi. Kishining yoshi ulg'ayib borgan sari, uning yangi zamonaviy ta'lim jarayoniga kirishiga yillar davomida shakllangan ichki to'siqlar halal beradi. Quyida mazkur to'siqlar haqida to'htalib o'tamiz:

Psixofiziologik.

Ayrim kattalarda o'zining ta'lim olish qobiliyatiga ishonchsizlik mavjud bo'ladi. Ular yosh o'tishi bilan idrok, xotiraning susayganligini ro'kach qiladilar. Ammo tadqiqotchi olimlarning ko'rsatishicha, har qanday yoshda ta'lim olish mumkin. Chunki turli yoshlarda diqqat, xotira va tafakkurning shakllari va tipi yoshga mos xolda o'zgarib boradi.

Ijtimoiy –psixologik.

Ko'pgina katta yoshdagi kishilar “o'quvchi” rolida bo'lishdan cho'chydilar va o'zlarini noqulay xis qiladilar. Ayniqsa, bu hokimiyat zinapoyasining yuqorisida turgan shaxslarga tegishlidir. Ular ijtimoiy – pedagogik ta'sir ob'ektiga aylanib qolishga ruhan tayyor bo'lmaydilar. Egallab turilgan ijtimoiy o'rin, yangi axborot tizimiga kirish, uni o'zlashtirishga to'sqinlik qiladi.

Ijtimoiy.

Ijtimoiy hayotning turli sohalarida yangi bilimlar olishga bo'lgan talablarning mavjud emasligi yoki o'ta darajada ko'pligi ham, kishining ta'lim olishga bo'lgan ishtiyoqini so'ndiradi.

Psixologik – pedagogik.

Kishining butun hayoti davomida ta'lim olish zarurligi to'g'risidagi vazifaning shakllanmaganligi zamonaviy mutaxassisning o'z kasbiy mahoratini doimo oshirib borishi shart ekanligi e'tiborga olinmaydi. Ayrim hollarda kishilar kattalar ta'lim olishi mumkinligi haqida tasavvurga ega bo'lmaydilar.

O'qitish jarayoniga qo'shilar ekan, katta odam faol o'rinni egallaydi. Hayotiy tajriba va sub'ektiv munosabat, zamonaviy odamga ta'lim jarayonini baholash

hamda o'qitish usullarini tanlash imkonini beradi. Uning uchun dars berayotgan o'qituvchi va tinglovchilarning ham shaxsiy, kasbiy sifatlari muhim sanaladi.

Shuning uchun kattalarni o'qitish o'zaro hamkorlik, o'zaro yordam va o'zaro birdamlik muxitida amalga oshiriladi. Katta odamni o'qitish jarayonida u o'z tajribalari bilan o'rtoqlashishni ko'proq maqul ko'radi.

Mavzuni o'zlashtirishni ta'minlashga oid savollar:

- Andragogik nuqtai-nazaridan kimni "katta odam" deyish mumkin?
- Odamni yoshiga ko'ra davrlarga ajrating?
- YOshlik, etuklik, keksalik davrlariga psixologik tavsif bering?
- YOsh chegaralarini belgilashda qo'llaniladigan "Umr bahori", "ko'rkam yosh", "navqiron yosh", "qirchillama yosh", "nafaqa yosh" kabi iboralarni tavsiflab bering?
- Psixofiziologiyada xronologik va biologik yoshning farqlanishi?

Mavzuni o'rganish bo'yicha foydalanilishi mumkin bo'lgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Zmeev S. I. Andragogika: Stanovlenie i puti razvitiya // Pedagogika. — 1995.-№2.
- 2.Zmeev SI. Texnologiya obucheniya vzroslyx. — M., 2002.
- 3.Metodik qo'llanma, "DACUM kasbiy ta'limda", N.S.Raximov, B.M, Farshi-Vjalali, Toshkent, 2008
4. O.B.CHikurov –Pskov Metodik qo'llanma. "Menga kim o'rgatadi?" 2-qism. 2004
5. A.X. Abdullaev, N.S.Raximov, M, O, Xadaev Katta yoshdagilarni o'qitish markaziga: qadam-baqadam T;" CHASHMA" -2013

1.4. SHAXS KASBIY RIVOJLANISHINING ANDRAGOGIK ASOSLARI.

- Kasbiy ma'lumotni shaxsga berilgan nisbat(mutaxassisning standart modeli, professiogramma) asosida tayyorlash; shaxsning faoliyatga oid qobiliyatlarini boyitish jarayoni, mustaqil rivojlanish va o'sish).
- Kasbiy ta'lim, dastlabki xolatga bog'liq tarzda u yoki bu ixtisoslikni egallash mobaynida amalga oshirilishi.
- Turli darajadagi amaliy vazifalarni bajarish uchun ko'nikma va malakalarni egallash(faoliyatni tashkil etish metodikalarni o'zlashtirish; nazariy ma'lumotlarni to'plash va yangilab borish; kasbiy faoliyat mazmunini anglash; ijtimoiy qadriyatlarning shakllanishi).
- Kasbiy faoliyat uchun bo'lg'usi mutaxassisni tayyorlashda "kasbiy faollik maydoni" tushunchasiga alohida urg'u berish.
- Kasbiy tayyorgarlikning birinchi bosqichida, kasbiy faoliyatning u yoki bu sohasiga xos bo'lgan o'zaro munosabatlar tizimi ("odam-odam", "odam-tabiati",

“odam-texnika”) alohida o’rin tutadi.

Tayanch iboralar: kasbiy ma’lumot, aspektlar, mutaxassis, standart, model, professogramma, shaxs faoliyati, kasbiy tayyorgarlik, mustaqil rivojlanish va o’sish, kasbiy ta’lim, ixtisoslikni egallash, “kasbiy faollik maydoni”, kasbiy xulq-atvor, sheriklik va hamkorlik tajribalari, “odam-odam”, “odam-tabiati”, “odam-texnika”, “amaliyot faolligiga ega shaxs”.

Kasbiy rivojlanishning andragogik asoslari, shaxsning maktab ta’lim tizimidan uzluksiz ta’limning keyingi bosqichiga o’tish davrida yuzaga kela boshlaydi. Ayrim o’quvchilar ta’limni kasb-xunar kollejida, ayrimlari akademik listeylarda yoki ixtisoslashgan maktab-internatlarda davom ettiradilar, so’ngra oliy ta’lim tizimiga qadam qo’yadilar. Mavjud ijtimoiy amaliyotga ko’ra muayyan bir kasbni egallash, kasbiy tayyorgarlik zina-poyalaridan (boshlang’ich, o’rta, o’rta maxsus, oliy ta’lim) ko’tarilish, malaka oshirish, qayta tayyorlash orqali amalga oshiriladi.

Har qanday kasbiy ma’lumot shaxsga nisbatan turli aspektlarda ko’rib chiqiladi:

- mutaxassisni standart (model, professogramma) asosida tayyorlash;
- shaxsning faoliyatga oid qobiliyatlarini boyitish jarayoni;
- Kasbiy tayyorgarlik kontekstida mustaqil rivojlanish va o’sish;
- Kasbiy ta’lim, dastlabki xolatga bog’liq tarzda u yoki bu ixtisoslikni egallash mobaynida amalga oshiriladi.

- Turli darajadagi amaliy vazifalarni bajarish uchun ko’nikma va malakalarni egallash;

- Faoliyatni tashkil etish metodikalarni o’zlashtirish;
- Nazariy ma’lumotlarni to’plash va yangilab borish;
- Kasbiy faoliyat mazmunini anglash va ijtimoiy qadriyatlarining shakllanishi;

Agar biz ta’lim o’z izchilligi (kasb-xunar kolleji, oliy o’quv yurti) ni saqlab qolishini e’tiborga olsak, quyidagi andragogik masalalar belgilanishi va hal etilishi lozimdir:

- kasbiy tiklanish jarayonida shaxs - sub’ektga xos o’rinni egallashi talab etiladi;

- bo’lajak mutaxassisga kasblar olamida o’zini ko’rsata olishiga yordam berish;
- o’z kasbi bo’yicha yuqori pog’onaga ko’tarilishi;
- bo’lajak mutaxassisga kasbiy xulq-atvor, faoliyat va munosabatlarning namunaviy modellarini namoyish etish;

- ta’lim mobaynida sheriklik va hamkorlik tajribalarini shakllantirish;

- kasb uchun zarur bo’lgan shaxsiy sifatlarni tarkib toptirish va mustaxkamlashga turtki berish;

- o’z-o’zini bilish va o’z ustida ishlashga yo’naltirilgan andragogik ko’nikma va malakalarni berish;

- uzluksiz ta’lim olish uchun kompleks shart-sharoitlar yaratib berish.

Kasbiy faoliyat uchun bo’lg’usi mutaxassisni tayyorlashda “kasbiy faollik maydoni” tushunchasiga alohida urg’u berish maqsadga muvofiqdir.

O'FM (kasbiy faollik maydoni)ni xosil qilish orqali kasblar olami bilan tanishish:

- kasbiy faoliyat ko'rgazmasini to'laligicha ko'rish imkonini beradi;
- kasbiy faoliyatda muayyan bir natijaga erishish xissini o'yg'otadi;
- bo'lg'usi natijalarni chamalash imkonini beradi;
- kasbiy faoliyatda erishish mumkin bo'lgan muvaffaqiyatlarni tasavvur qilishga yordam beradi;
- kasbiy, shaxsiy xulq-atvor strategiyasini belgilab beradi;

O'quv faoliyatining davomiyligi bo'lgan mutaxassislarda mehnat faoliyatiga doir malakalarni shakllantirib beradi.

Dastlab o'quv faoliyatning an'anaviy shakllari (ma'ruza, seminar, adabiyot bilan mustaqil ishlash) ustunlik qiladi. So'ngra ta'lim oluvchilar kasbiy faoliyatining modellashtirish variantlari yoki loyixalash bilan shug'ullanadilar. YAKunlovchi bosqichda talabalar muayyan o'quv natijalariga (nazorat ballari, diplom) hamda ijtimoiy qimmatga ega bo'lgan kasbiy malakaga (ilmiy-tadqiqot ishi, ishlab chiqarish amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi loyihasi) ham erishadilar.

O'qish davomida talaba, faqat o'quvchi, tinglovchi sifatida emas, balki bo'lg'usi kasbiy faoliyat egasi, uning sub'ekti sifatida fikr yurita olsagina ijabiy natijalarni kutish mumkin bo'ladi. Bunday yondashuv "amaliyot faolligiga ega shaxs"ni shakllantira oladi.

Mazkur shaxs o'zini, "tabiat va jamiyatning bir bo'lagi deb xisoblaydi, muvaffaqiyatsizliklardan cho'chimaydi, qiyin vaziyatlardan mardonovor chiqib keta oladi" (L.P.Grimak).

Kasbiy tayyorgarlikning birinchi bosqichida, kasbiy faoliyatning u yoki bu sohasiga xos bo'lgan o'zaro munosabatlar tizimi ("odam-odam", "odam-tabiat", "odam-texnika") alohida o'rin tutadi. Aynan shu munosabatlar kasbiy xulq-atvor tuzilmasida alohida ahamiyat kasb etadi.

Talabaning sub'ekt sifatida faoliyat ko'rsatishi, uning bilim olishga bo'lgan munosabati orqali nomoyon bo'ladi. Ta'lim olish jarayonida u o'z kasbiy faoliyatining faol ishtirokchisi, o'z nuqtai-nazariga ega bo'lgan mutaxassis yoki oddiy tinglovchi bo'lishi ham mumkindir.

O'qituvchilar talabalar faoliyatini tuzatuvchi va yo'naltiruvchi rolida ish olib borishadi.

Mutaxassis tayyorlashda bir bosqichdan keyingisiga o'tish mantiqiy izchillikda kechishi zarurdir:

- mutaxassisni kasbiy faoliyatning to'laqonli sub'ekti sifatida rivojlantirish;
- mutaxassisning ijtimoiy munosabatlar tizimidagi shaxsiy mavqeini shakllantirish;
- o'zlashtirilgan ta'limiy va kasbiy faoliyat yaxlitligini saqlash;
- o'zini kelgusidagi uzluksiz kasbiy faoliyatga tayyorlash.

Oliy o'quv yurtidan so'ng mehnat faoliyati boshlanadi, ma'lum bir muddatdan keyin yana o'quv faoliyatiga murojaat etiladi. Chunki xar qanday mutaxassis malaka oshirish va qayta tayyorlov kurslarida o'z kasbiy salohiyatini oshirib

bordi. Ishchi-xizmatchilar va xodimlar malakasini uzluksiz ravishda oshirib borishi kadrlar o'rtasida sog'lom raqobatni yuzaga keltiradi. Hozirgi kundagi taraqqiyot davrida bilim, ko'nikma va malakalar uch yoki besh yilda yangilab, boyitib boradi. Xozirgi kundagi jiddiy muammolardan biri, kishining uni o'rab turgan dunyo o'zgarishlarga moslashishidan orqada ekanligi, tezkor axborot oqimiga uning talablariga javob bera olinayotganidir.

An'anaviy bazaviy ma'lumot, ijtimoiy va axborot o'zgarishlariga dosh bera olmayapti.

Shuning uchun mutaxassislarning nazariy va amaliy bilimlarini yangilab turish maqsadida malaka oshirish va qayta tayyorlash markazlari va institutlar tashkil etilgan.

Mutaxassislarning malaka oshirishdan o'tish davriyligi ish beruvchi tomonidan belgilanadi:

- Qisqa muddatli tematik o'qitish (172 soatdan kam emas);
- Tematik va muammoli seminarlar (72 soatdan 100 soatgacha);
- Uzoq muddatli o'qitish (100 soatdan ortiq).
- Mutaxassislarni qayta tayyorgarlikdan o'tkazish (ikkinchi mutaxassislik)ning maqsadi, yangi kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan qo'shimcha bilim, ko'nikma va malakalar berishdan iboratdir. Shaxsning hayot tarzi va egallagan kasbiy faoliyati o'zaro uyg'unlikda kechadi agar:
 - Kishining egallagan sohasi uning hayotiy rejalari va qadriyatlari bilan bog'liq bo'lsa;
 - Professional faoliyat uning ijodiy qobiliyatlar hamda imkoniyatlarini to'lato'kis ro'yobga chiqara olsa;
 - Mexnat natijalari va malakani oshirib borish ijtimoiy jixatdanqo'llab-quvvatlab turilsa;
 - Professional faoliyatda kasb-mahoratini oshirish uchun yangi talabalar kuchayib borsa;
 - O'z kasbiy sohasida katta odam sub'ekt sifatida faoliyat olib boradi.

Innovastion o'zgarishlar davrida xatto tajribali mutaxassis ham o'z bilim va malakasini oshirishga ehtiyoj sezadi.

Bir necha yillardan buyon bir sohada mehnat qilayotgan, o'z kasbini ustasi bo'lgan mutaxassislarning o'z xayotiy tajribalari bilan o'rtoqlashishga, maslahat berishga, yosh mutaxassislarga kasbning sir-sinoatlarini ochib borishga intiladilar. Bu quvonarli hol, shuning uchun malaka oshirishda ularga o'z muvaffaqiyatlari sababini ko'rsatib berishga, kasbiy mahorat sirlarini etkazib berishga imkoniyat berish lozimdir.

Malaka oshirish tizimida o'qituvchilar oldida quyidagi andragogik vazifalar turadi:

- tinglovchilarni yakka va umumiy tarzda tashxisdan o'tkazish (o'quv motivi darajasi, psixofiziologik va ijtimoiy psixologik xususiyatlar);
- o'qitish tartibi va yo'nalishini belgilab olishga yordam berish;
- o'qitish shart-sharoitlariga moslashib olish uchun ko'maklashish;

- shaxsiy va jixatdan o'sishga erishish shart-sharoitlari yaratib berish;
- ta'lim jarayonida sub'ektlarning o'zaro xamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish;
- har bir tinglovchiga o'z fikrlarini bildirish, o'zni namoyon eta olish imkoniyatini berish;
- malaka oshirishdan muayyan bir yangilikni olish va kelgusi faoliyatida amaliyotga tadbiq etish kafolatini berish;
- tinglovchilarga psixologik yordam ko'rsatish, ularga ta'lim jarayonidan yana kasbiy faoliyatga qaytishlari uchun ijodiy ko'tarinki ruh berish.

Mavzuni o'zlashtirishni ta'minlashga oid savollar:

- SHaxsning kasbiy faoliyatga oid qobiliyatlarini boyitish jarayoni nimaga bog'liq?
- Kasbiy ta'lim, dastlabki xolatga bog'liq tarzda u yoki bu ixtisoslikni egallash mobaynida amalga oshirilishini isbotlang?
- Kasbiy faoliyat uchun bo'lg'usi mutaxassisni tayyorlashda "kasbiy faollik maydoni" tushunchasiga qanday ta'riflanadi?
- Kasbiy tayyorgarlikning birinchi bosqichi nimaga bog'liq?
- Kasbiy faoliyatning u yoki bu sohasiga oid bo'lgan o'zaro munosabatlar tizimi haqida tushuncha bering?

Mavzuni o'rganish bo'yicha foydalanilishi mumkin bo'lgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Zmeev S. I. Andragogika: Stanovlenie i puti razvitiya // Pedagogika. — 1995.-№2.
- 2.Zmeev SI. Texnologiya obucheniya vzroslyx. — M., 2002.
- 3.Metodik qo'llanma, "DACUM kasbiy ta'limda",N.S.Raximov, B.M, Farshi-Vjalali, Toshkent ,2008
4. O.B.CHikurov –Pskov Metodik qo'llanma. " Menga kim o'rgatadi ?" 2-qism. 2004
5. A.X. Abdullaev, N.S.Raximov, M, O, Xadaev Katta yoshdagilarni o'qitish markaziga: qadam-baqadam T," CHASHMA" -2013

1.5. KATTA YOSHLARNI UZLUKSIZ TA'LIMI MASALALARI.

- Uzluksiz ta'lim tizimida kattalar ta'limi.
- Uzluksiz ta'limning hozirgi zamon madaniy-ma'rifiy ta'limi sohasidagi o'qitish g'oyalari va tamoyillari.
- Uzluksiz ta'lim mazmunida aks etuvchi jarayonlar.
- Inson hayotining o'zi - uzluksiz ta'lim hisoblanishi.

Tayanch iboralar va atamalar: ijod, ruhiy ehtiyoj, ehtiyojni qondirish, uzluksiz ta'lim, kompensasiya, adaptasiya, funkstional savodxonlik, ijtimoiy

kasbiy tayyorlov, qayta tayyorlov, malaka oshirish, qo'shimcha ta'lim, "komp'yuter savodxonligi".

Insoniyatga xos bo'lgan, ijtimoiy qadr-qimmatga ega maqsadlarni shakllantirishda uzluksiz ta'limning tutgan o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Uzluksiz ta'limning eng birinchi asoschisi bo'lgan chex pedagogi YA. A. Komenskiydir. Bundan avval bu g'oyani antik davr faylasuflari Platon va Aristotel ilgari surganlar. Komenskiyning g'oyasi bu "Ona maktabi"dan boshlanib, akademiya tugaydigan uzluksiz ta'lim tizimidir.

Uzluksiz ta'lim toifasini aniqlash uchun xalqaro kasbiy hamdo'stlik va pedagogik hamjamiyatda, hozirgi zamon adabiyotlarida "katta yoshlilar ta'limi, davomiy ta'lim, tiklanayotgan ta'lim va keyingi ta'lim" kabi bir qator atamalar ishlatiladi. Bu degani, ta'limni qismlarga bo'lib olish va boshqa ish faoliyatlari bilan birga, ijtimoiy hayot mobaynida qo'shib olib borishdir.

Uzluksiz ta'lim tizimi - ijtimoiy amaliyotning ma'lum bir bo'lagi sanalib, kishi tomonidan kasbiy, hayotiy va ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish jarayonidir.

Aynan shu sababli XX asrning 90–yillaridan boshlab, katta yoshlilar ta'lim sohasida uzluksiz ta'lim tizimi bilan bir umrlik ta'limning o'zaro hamkorlik qilishi e'lon qilindi.

Uzluksiz ta'lim funkstiyalari quyidagilardan iborat:

- yuksalib borayotgan ehtiyojlar (ijodiy va ruhiy ehtiyojlarni qondirish);
- kompensasiya (qoldirilgan bo'shliqlarni to'ldirish);
- adaptasiya (ishlab chiqarish va ijtimoiy sharoitiga moslashuv, tayyorlov va qayta tayyorlov).

Uzluksiz ta'lim mazmuni uch asosiy turga bo'linadi. Bular, komp'yuter, funksional va ijtimoiy kasbiy o'qishlardir. Bu jarayonga tayyorlov, qayta tayyorlov, malaka oshirish, qo'shimcha ta'lim kabilar kiritilgan bo'lib, ular mehnat faoliyati bilan bog'langan.

Savodxonlikning ijtimoiy muhim, umumlashgan ko'rsatkichi sifatida inson tarafidan savodxonlik darajasi, ya'ni kasbiy kompetentlik madaniyati maydonga chiqadi. Bu tushunchalarga batafsil to'xtalamiz. Savodxonlik – bu shaxsning ijtimoiy pedagogik tavsifidir, ushbu holat shaxsning o'quvchilik "rol"ini qabul qilishi, turmushdagi kerakli axborotlarni, belgi va komunikasiya (kodlar)ni to'laqonli anglashga yordam beradi. Savodxonlik darajasi, jamiyatdagi u yoki bu axbototni qabul qilish bosqichini, tabiiy va ijtimoiy holatlarga moslashish shart-sharoitlarini aniqlab beradi. Ming yillar davomida savodxonlik haqida gap ketganda, uni faqat o'qish va yozishni bilish degan tushuncha mavjud edi. XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlaridan, "ijtimoiy-iqtisodiy savodxonlik", "siyosiy-xuquqiy savodxonlik", "kompyuter savodxonligi", "funktional savodxonlik" kabi bir qator yangi tushunchalar dunyoga kela boshladi.

Fan va texnika yuksak darajada rivojlangan hozirgi davrda ham, kattalar orasidagi "savodsizlik" muammosi o'qishni bilmaslikdan ko'ra ancha keng tarqalgan.

YUNESKO bergan ma'lumotlarga ko'ra XXI asr boshlarida 900 million katta yoshlilar "savodsiz" ekanligi ma'lum bo'ldi.

XX asrning 90 yillarida "funktional savodsizlik" degan termin paydo bo'ldi. Bu shuni ko'rsatadiki, jamiyatda bilimi sayoz, mahoratsiz, kasbiy ko'nikma va malakalari etarli darajada shakllanmagan odamlar soni va toifalari mavjud.

Bunday shaxslar yangi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy axborotlarni, ishlab chiqarish texnologiyalarini o'zlashtirmay, yangi bilimlar, ko'nikma va malakalarga ega bo'lmay turib, o'z kasbiy funkstiyalarini mahorat bilan bajarish qobiliyatiga ega emaslar.

Katta avlod kishilari har doim ham savodxonlik iste'molchisi bo'la olmaydilar ya'ni, (internetdan foydalana olmaydilar, maishiy texnikani bilmaydilar, bank mijozi bo'la olmaydilar, horij tashkilotlari bilan sherik bo'la olmaydilar).

Kompetentlik—bu shaxsning integral(o'zaro yaqinlashuv) tavsifi, ya'ni insonning o'z kasbiy funkstiyalarini jamiyat standartlari va me'yorlari bo'yicha bajara olish qobiliyati sanaladi. SHaxsiy kompetentlik asoslari birlamchi kasbiy ta'lim bazasidir.

Kompetentlik dinamik(o'sib boruvchi) harakterda bo'lib, u faqat amaliy faoliyatda o'z ahamiyatini ko'rsatadi, uning sifat darajasi esa uzluksiz ravishda o'sib boradi yoki pasayib umuman yo'qolib ketadi.

Kompetentlik darajalari - bu uning sifati, ya'ni, yuksalib borish qobiliyatining o'ziga xos me'yorlari xisoblanadi.

Ular orasida quyidagilarni ajratish mumkin:

- empirik (ya'ni, kunlik amaliy tajribalar tufayli shakllangan ishni tushuna bilish);
- nazariy (ya'ni, ilm-fanning kerakli va zarur qismini o'zlashtirish davomida bilimlarni shakllantirish;
- metodologik (ya'ni, o'z kasbida konseptual yo'lni qurish va uni tushuna olish).

Bu erda kishidagi mavjud nazariy va amaliy bilimlar integratsiyasi (yaqinlashuvi) e'tiborga olinadi.

Hozirgi zamon ishlab chiqarish texnologiyalarining yuksalishi bilan, hayotning barcha jabhalarida axborot texnologiyalariga katta ehtiyoj sezilmoqda, mazkur xolat shaxs oldiga aniq talablar qo'yadi.

Uzluksiz ta'lim tuzilmasida ikki tur mavjud: rasmiy va norasmiy.

Rasmiy ta'lim davlat tomonidan reglamentlanadi va tayyorlanadi, bunday reglamentatsiya turlari qo'llanmasi - bu standartlar, aniq bir turdagi ta'limiy tizim bo'lib, ular qonun bilan belgilanadi.

Rasmiy ta'limga ega odamlar qonun bilan belgilangan huquqqa ya'ni, hujjatlarga ega bo'ladilar. Bular: guvohnoma, diplom, attestat(davlat namunasidagi). Amaldagi qonuchilikka binoan u keying pog'onaga (ta'lim olishga) yo'l ochadi. Rasmiy ta'limning aniq pog'analari amaldagi qonunlarga ko'ra davlat tomonidan tasdiqlanadi, ular barcha fuqarolar uchun majburiydir.

Norasmiy ta'lim tushunchasi ta'limning sertifikat olish huquqini bermaydigan turidir. Norasmiy ta'lim, insonning butun hayotiy bosqichlarida insonning umummadaniy yuksalishini amalga oshiradi. Odamda bu havaskorlik, qiziqish sohasi, uning intiluvchanligi bilan bog'liq bo'lib, u shaxsning mavjud imkoniyatlari, ijodiy faoliyati orqali amalga oshiriladi.

Ba'zan norasmiy ta'lim, ayrim sabablarga ko'ra ta'lim ololmagan kishilarga moslashuvchi va to'ldiruvchi rol o'ynaydi.

Informal(axborotli) ta'lim deganda, hayot davomida o'zaro muloqot uchun, ijtimoiylashuv jarayonida, ommaviy axborot vositalari ta'sirida, yangi axborot tizimlari orqali, turli-tuman ommaviy ijtimoiy-madaniy tadbirlar, ijtimoiy-badiiy, ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan tanishish vaqtida, o'zining va boshqalarning tajribasini anglashda qo'llaniladi.

Katta yoshdagilar ta'limi har doim, insonning butun hayoti kontekstida ko'rib chiqiladi, bu erda "universitet" sifatida o'quv qo'llanmalari, o'quv auditoriyalari va kutubxonalardan tashqari, hamkasblar, hamfikrlar, do'stlar, yaqin kishilar, farzandlar va ommaviy axborot vositalari, umuman olganda "hayot maktabi" nazarda tutiladi.

Hozirgi zamon, yangi davrga oid ta'lim tajribasida, shaxsning butun hayoti davomida har uchchala sanab o'tilgan turlar o'zaro kesishadi va uzluksiz ta'limni ta'minlaydi.

Uzluksiz ta'limning (ta'lim tizimida) ishga tushishi uning "vertikal integratsiya"ga tayanadi, ya'ni rasmiy ta'lim pog'onalari: maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-xunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'lim.

Andragogikaning asosiy vazifasi shundan iboratki, u katta yoshdagi insonga o'ziga kerak bo'lgan axborotni qabul qilish, ma'lumot olish va o'z sohasini qayta ko'rib chiqish imkoniyatini yaratib beradi. Andragog uchun eng zarur tushuncha bu, katta yoshli insonni ta'limning turli tashkiliy shakllariga jalb etish yoki mavjud ishlab chiqarishni, uzluksiz ta'lim tizimi orqali yuksaltirish ishidagi ishtirokini ta'minlashdir.

Inson hayotining o'zi uzluksiz ta'lim hisoblanadi va aniq o'quv muddatlari bilan chegaralanmaydi. O'qishning uzluksizligi, aynan uning butun hayoti davomida insoniylik sifatlarini oshiradi.

Mavzuni o'zlashtirishni ta'minlashga oid savollar:

- Uzluksiz ta'lim tizimida "kattalar ta'limi"?
- Uzluksiz ta'limda, hozirgi zamon madaniy-ma'rifiy ta'lim sohasidagi o'qitish g'oyalari, tamoyillari?
- Uzluksiz ta'lim mazmunidagi uchta asosiy turni izohlang?
- Inson hayoti - o'zi uzluksiz ta'lim – deganda nimani tushunasiz?

O'qishning uzluksizligi, aynan butun hayoti davomida insonning o'z shaxsiy va kasbiy sifatlarini oshirishi nimaga bog'liq?

Mavzuni o'rganish bo'yicha foydalanilishi mumkin bo'lgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Zmeev S. I. Andragogika: Stanovlenie i puti razvitiya // Pedagogika. — 1995.-№2.

2.Zmeev SI. Texnologiya obucheniya vzroslyx. — M., 2002.

3.Metodik qo'llanma, “ DACUM kasbiy ta'limda”,N.S.Raximov, B.M, Farshi-Vjalali, Toshkent ,2008

4. O.B.CHikurov –Pskov Metodik qo'llanma. “ Menga kim o'rgatadi ?” 2-qism. 2004

5. A.X. Abdullaev, N.S.Raximov, M, O, Xadaev Katta yoshdagilarni o'qitish markaziga: qadam-baqadam T,” CHASHMA” -2013

1.6. MODULLI TA'LIM – YOSHI KATTALARNI O'QITISHNING TEXNOLOGIK SHAKLI SIFATIDA

- Universitetlarda “modulli ta'lim” o'quv shaklining paydo bo'lishi, fan o'quv rejasi va unga xos didaktik materiallar, mazmunan o'z yakuniga ega bo'lgan modulning qismlariga bo'linishi.

- Modulli ta'limning avval AQSH universitetlari va kollejlari, so'ngra G'arbiy Evropa o'quv yurtlarida tarafdorlarini topilishi.

- O'quv yurtlarida ayrim predmetlarni modulli o'qitishdan, butun kasbga tayyorlash tizimini o'z ichiga oluvchi integrallashgan modulli usulga o'ta borilishi.

- YAngidan-yangi modulli - ta'lim texnologiyalarining yaratilishi.

- O'quv yurtlari tomonidan turli modullar va modulli o'quv kurslarining taklif etilishi.

- Modulli-ta'lim texnologiyasining oliy o'quv yurtlari, kollejlari va biznes-maktablarda, o'quv markazlarida qo'llanilishi.

Tayanch tushunchalar: didaktik materiallar, “modulli yo'riqnomalar”, “modulli o'quv rejalari”, “modulli o'qishning xalqaro markazi”, “Kasb ko'nikmalari moduli”, “modulli ta'lim”, “modul”, intellektual mehnat, modulning qismlari.

XX asrning 60-yillarida AQSH universitetlarida, keyinchalik “modulli ta'lim” deb nom olgan o'quv shakli paydo bo'ldi, uning mohiyati shundan iborat ediki, predmet o'quv rejasi va unga xos didaktik materiallarining hammasi mazmunan o'z yakuniga ega bo'lgan modulning qismlariga bo'linardi.

Bunda talabalar modul' va uning tarkibiga kiradigan materiallar bilan tanishtiradigan yo'riqnomalar bilan ta'minlandi. Natijada "modulli yo'riqnomalar", "modulli o'quv rejalari" kabi atamalar paydo bo'ldi. AQSHda o'quv rejasi - didaktik materiallarni o'z ichiga oladi va curriculum (karrikulum) deb atalgan lotincha so'z bilan ataladi.

Modulli ta'limning birinchi variantlari AQSH o'rta maktablaridan boshlangan, unda dastlab kunning kattagina bo'lagi, hatto butun bir kun, ma'lum bir predmetni o'rganishga ajratildi. Modullar asosida o'qitish bir necha ijobiy samaralarga olib keldi.

Birinchiidan, didaktik material va yo'riqnomalar bilan qurollangan talaba o'quv predmetini o'zlashtirishda mustaqillikka ega bo'ladi.

Ikkinchiidan, o'qituvchining ma'ruzabozlik funkstiyasi, maslahat beruvchilikka aylanadi, talaba esa sust tinglovchi bo'lib qolmasdan, unda predmetni o'qituvchi bilan faol muhokama qilish imkoniyati paydo bo'ladi.

Uchinchiidan, har bir modul o'zlashtirib bo'lingach, materialni o'zlashtirishning oraliq nazorat nuqtalari oydinlashadi. Bu nazorat o'qituvchi uchun ham, talaba uchun ham birday ahamiyatga ega.

To'rtinchiidan, har bir modul mazmunan yakunlanishi barobarida, materialni qadam-baqadam o'zlashtirib borish imkoniyati yaratiladi.

Modulli ta'lim avval AQSH universitet va kollejlari, so'ngra g'arbiy Evropa o'quv yurtlarida o'z tarfdorlarini topdi. O'quv yurtlari ayrim predmetlarni modulli o'qitishdan, butun kasbga tayyorlash tizimini o'z ichiga oluvchi integrallashgan modulli usulga o'ta bordilar.

Bundan tashqari modulli ta'lim, malaka oshirish institutlariga, biznes-maktablar, shuningdek oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi ta'limiga ham kirib keldi. U ishlab turgan va o'z malakasini oshirmoqchi bo'lgan katta yoshdagi kishilar uchun ham samarali bo'lib chiqdi. O'qish modul ketidan modul kelishi davomiyligi asosiga qurilgali uchun, ta'lim jarayonida uzilishlar bo'lmaydi.

Har bir modul, garchi u kichik bo'lsa-da, ma'lum bir predmet yoki uning biror bir qismini o'rganishni nazarda tutgan tugal bir malaka oshirish bosqichidir. Modul sertifikat berish bilan nihoyalanadi, qo'lga kiritilgan sertifikatlar o'quv davomida hisobga olinadi va ta'limning navbatdagi bosqichini tamomlaganlik haqida diplom berilganda, yoki navbatdagi yangi mutaxassislikni egallash jarayonida e'tiborga olinadi.

Yuqorida zikr etilgan modulli ta'lim texnologiyasi, mazmunan o'quv predmetlarni modulli qismlarga ajratib, amaliyotdan o'tkazdi.

Modulli ta'lim intellektual mehnat kishilarini tayyorlashni, ta'limning turli jabhalarida juda katta axborotlarni o'zlashtirishni ko'zda tutadigan oliy o'quv dargohlarida paydo bo'ldi. Binobarin, oliy ma'lumot talab qiladigan mutaxassisliklardan tashqari, vaqti-vaqti bilan malaka oshirib borishni talab qiladigan ishchi mutaxassisliklar ham borki, ular uchun ham malakalarini oshirib borish uchun modulli ta'lim texnologiyasi asqotadi.

Buning ustiga bozor iqtisodiyoti munosabatlarining rivojlanishi jarayonida, texnikalarning o'zgarib borgani bois, davr taqozosi bilan ishchi o'z mehnat faoliyati davomida yangi texnik dastgohlarga, texnologiyalarga duch keladi. Zudlik bilan hodimni mazkur korxonada, bir mutahassislikdan boshqasiga qayta tayyorlov vazifasi kelib chiqadi-ki, o'sha xodim bir dastgohdan ikkinchi dastgohga moslashishini nazarda tutuvchi qayta tayyorlovdan qisqa vaqt ichida o'tishi lozim bo'ladi.

1965 yili Turin (Italiya) shahrida (MOT - mejdunarodnaya organizatsiya truda - (XMT - xalqaro mehnat tashkiloti) "modulli o'qitishning xalqaro markazi" tashkil etiladi. Markaz o'z ish faoliyatini ma'lum bir mutaxassislik xodimining faoliyati, funkstiyalari(faoliyat tartibi) va harakatini aniq tahlil qilish asosiga qurdi. Bunda har bir funkstiya bo'yicha qilingan ish va operatsiya hisobga olib boriladi. Bu harakat va operatsiyalarni egallashni o'rgatish maqsadida turli MES(Modules of Empolies Srills - ishchilar ko'nikmalari moduli) ko'rgazmali instruktiv materiallar va instruktsiya(yo'riqnoma)lar ishlab chiqildi.

Rossiyada chop etilgan adabiyotlarda bu atama "Kasb ko'nikmalari moduli" tarzida talqin etildi. Tartib bo'yicha ta'lim modullaridan biri bir qator oddiy narsalardan iborat bo'lgan murakkab harakatga bag'ishlandi. U ana shu harakatni aks ettiradigan sodda o'quv elementlaridan iborat bo'ladi. Bunda o'sha harakat shunday ifodalanadiki, uni o'rganib olish oson bo'ladi. Amalda bir o'quv elementi bu komp'yuter monitoridagi bir varaq xat, yoki ekrandagi bir dona tasvir, unda amalga oshiriladigan harakat va uni qanday bajarish yo'riqnomasi yoki o'sha harakatni amalga oshirish asbob-uskunalariga oid yo'l-yo'riqlar ko'rsatilgan bo'lishi mumkin. Ba'zi modullar kirish xarakterida bo'lib, u talabaga o'zi o'rganayotgan ob'ektning mohiyatini tushuntirish jarayonida, talabaga qanday harakat qilishi kerakligini o'rgata oladi.

Instruktor-o'qituvchining o'zi barcha kerakli modullarga ega bo'ladi, ana shu modullarga egalik qilish barobarida, u talabaning hatti-harakatlarini kuzatadi, to'g'ri yo'l topa olishida ko'maklashadi. U yana talabaning qay darajada o'zlashtirganligini baholash huquqini o'zida saqlab qoladi.

Modulli texnologiyaning bunday variantida bitta guruh talabalari turli modullarning elementlari ustida ish olib borishlari mumkin, va ulaning har biri o'z yo'nalishida individual tarzda ish olib boradi.

MESga asoslangan modulli ta'lim variantlarini ishlab chiqqan mutaxassislarning ta'kidlashlaricha, o'quv modulini tuzishda kasbiy faoliyat tahliliga jiddiy e'tibor berishni talab etiladi. Aynan shu narsa ta'lim modullarini keyingi bosqichlarda ham anglashilmovchiliksiz davom ettirib ketish imkoniyatini saqlab qoladi. Chunki, bu modullar har bir kasb yoki ixtisos bo'lishidan qat'iy nazar, o'xshash xarakter, yoki funkstiyalarga ega bo'ladi. Oddiy misol: o'lchov asbobidan foydalanish ko'nikmasi dastgoh boshqaruvchisi, slesar' yoki avtomat liniyalar boshqaruvchisiga ham dahldor ko'nikma xisoblanadi.

Yangi modullarni ishlab chiqaradigan mutahassis asosiy e'tiborni ana shu narsaga qaratga, yangi kasb modullari banki ana shu asosga qurilsa, yangi kasb

egallashni maqsad qilib qo'ygan ishchi uchun yangi ko'nikmalarni o'zlashtirish bir muncha oson kechishini tajribalar isbotlagan.

Bundan tashqari ta'lim markazlarining kasblar o'zgarishlariga javob reakstiyasi ham juda tez amalga oshadi, xozirjavoblik kuchayadi.

XX asrning 80-yillarda Litvada rahbar hodimlar va mutahassislar malakasini oshirish institutida, injener kadrlar malakasini oshirish sohasida modulli dasturlar ishlab chiqila boshlangan. Har bir modul dasturi mazmunan o'quv dasturiga bo'ysundirilgan bo'lsada, mantiqan olib qaralganda ba'zi modullar MOT dasturiga muvofiqlashtirildi, ta'lim elementlariga taqsimlandi. Har bir o'quv elementi alohida varaqda al'bom formatida taqdim etildi. Texnik kasb-hunar ta'limi sohasida 80-yillarda avval sobiq ittifoqda, so'ngra Rossiya Federastiyasida katta yoshdagi kishilar- ni modulli ta'lim asosida o'qitish, ish jarayoniga katta ta'sir ko'rsatdi.

Fan va hunar ta'limiga modulli yondashuvning blok-modulli konstepstiyasini ishlab chiqish g'oyalari paydo bo'ldi. Sankt-Peterburg shahrida 1990 yilda qo'shimcha kasb ta'limini to'la modulli ta'lim asosida yo'lga qo'ygan ("OMIS" ta'lim markazi, "Obuchenie modul'noy interaktivnoy sistemoy - Modulli ta'limning interfaol tizimi") o'quv yurti tashkil etildi.

Turli mutaxassisliklar bo'yicha malaka oshirish va qayta tayyorlash ishlari bilan shug'ullanadigan bu markazda butun ta'lim tizimi alohida modullar asosiga qurilgan edi.

Har biri 30 soatlik sig'imga ega bo'lgan modullar bir hafta davomida o'rganib chiqishga mo'ljallangan bo'lsa, 60 va 90 soatli modullar ham mavjud bo'lib, ularga soat hajmiga qarab ikki-uch hafta sarflanardi.

Turli tayyorgarlikka ega bo'lgan, turli ma'lumotli kishilar o'zlari uchun zarur malaka va ko'nikmalarni kerakli moduldan boshlashlari uchun qulay sharoit vujudga keltirilgan bo'lib, o'qishni yilning istalgan oy, istalgan haftasidan boshlash mumkin bo'lgan.

Ushbu jarayonga Rossiyaning boshqa regionlari ham qo'shila boshladilar. Bu faqatgina katta yoshli kishilarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash samaradorligini oshirish, modulli ta'limning o'zinigina jonlantirib qolmasdan, balki bu dasturlarning sonini ko'payishiga, sifat darajasining ortishiga sabab bo'ldi.

Xozirgi paytda modulli ta'limning bir necha texnologiyalari yaratilgan, yangidan-yangi modulli ta'lim texnologiyalari yaratilmoqda, yangi o'quv qo'llanmalari chop etilayotir. O'quv yurtlari tomonidan turli modullar va modulli o'quv kurslari taklif etilayotir. Modulli-ta'lim texnologiyasi va uning turli modifikastiyalari ham, turli oliy o'quv yurtlari, kollejlari va biznes maktablarda, o'quv markazlarida qo'llanib rivojlanib bormoqda.

Bir qator hollarda, ayrim o'quv dargohlarida butun ta'lim tizimini modulli-ta'lim asosiga qurish masalalari haqida gap borganda ta'limning o'ziga xos shakli haqida, ya'ni katta yoshlilarning eksternat va boshqa o'quv variantlari haqida

gap boradi. Ehtimol, modulli-ta'limning rang-barang shakllarining ko'pligi va ommalashib ketganligi bois "modul" so'ziga aniq ta'rif berish mushkuldir.

Juda tor ma'noda ishlatiladigan ba'zi aniqlovchi, o'sha yoki boshqa ma'noda qo'llaniladigan modulga aniq ta'rif bo'la olmaydi. Haddan ziyod keng ma'noda qo'llash esa, "modul"ning o'ziga xos jixatlarini aniqlash imkoniyatini yo'qotadi va ta'lim moduli, ta'lim bloki va dars orasida chegara qoldirmaydi.

Kelajakda pedagogika va androgogika soha mutaxassislari "modul" terminining aniq ta'rifini aniqlab, bu anglashilmovchilikka chek qo'yishlari kerak. Ta'lim sohasidagi qo'llanilishiga qarab, bu so'zga berilgan lug'aviy ta'riflar turlicha talqinlarning yuzaga kelishiga turtki bo'lmoqda. Lotincha "modul" so'zi anglatadigan dastlabki ma'no, xozirgi kunda pedagogik sohada qo'llanilayotgan "modul" so'zining aniq ta'rfi bo'lishga ojizlik qiladi.

Mavzuni o'zlashtirishni ta'minlashga oid savollar:

- Modulli ta'limi avval qaerda paydo bo'lgan?
- Modulli ta'lim texnologiyasining moxiyati?
- Modulli ta'lim texnologiyalari yaratilishining bugungi kundagi axvoli qanday?

O'quv yurtlari tomonidan turli modullar va modulli o'quv kurslarining tashkil etilishi sabablari? **Mavzuni o'rganish bo'yicha foydalanilishi mumkin bo'lgan adabiyotlar ro'yxati:**

1.Zmeev S. I. Andragogika: Stanovlenie i puti razvitiya // Pedagogika. — 1995.-№2.

2.Zmeev SI. Texnologiya obucheniya vzroslox. — M., 2002.

3.Metodik qo'llanma, "DACUM kasbiy ta'limda",N.S.Raximov, B.M, Farshi-Vjalali, Toshkent ,2008

4. O.B.CHikurov –Pskov Metodik qo'llanma. " Menga kim o'rgatadi ?" 2-qism. 2004

5. A.X. Abdullaev, N.S.Raximov, M, O, Xadaev Katta yoshdagilarni o'qitish markaziga: qadam-baqadam T;" CHASHMA" -2013

1.7. KATTALARNI O'QITISHDA MASOFALI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

- Kattalarni o'qitishda masofali ta'lim texnologiyalari.
- Masofali ta'lim tizimi, zamonaviy axborot texnologiyalari.
- Xalqaro axborot tizimi, ta'lim jarayonida internetdan keng foydalanishning joriy etilishi.
- Hozirgi kunda masofali o'qitish markazlari, masofali o'qitish fakultetlari va masofali o'qitish institutlarini tashkil etilishi.

Tayanch iboralar va atamalar: elektron pochta, tarmoq, internet, axborot texnologiyasi, qo'shimcha qurilma, umumlashtirish va soddalashtirish, ishlab chiqarish, axborot ayirboshlash, jahon ta'lim tizimi, masofali o'qitish, tizim, malakali mutaxassislar, "o'zbek modeli".

Mustaqil O'zbekistonimiz taraqqiyot yo'lini belgilashning asosiy omillaridan biri "Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi" va "Ta'lim to'g'risidagi Qonun" da belgilangan talablarga javob beradigan yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashdir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 230 sonli , «2001-2005 yillarda komp'yuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish, internetning xalqaro axborot tizimlariga keng kirib borishni tashkillash dasturini ishlab chiqishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori va 2001 yil 4 oktyabr 400 - sonli qarorining, birinchi bandiga asosan masofaviy ta'lim tizimini, zamonaviy informastion texnologiyalar va xalqaro axborat tizimi, internetdan keng foydalanishni ta'lim jarayoniga kiritish belgilab qo'yilgan.

Kadrlar tayyorlash milliy modeliga ko'ra, belgilab qo'yilgan asosiy vazifa yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini yaratishni taqozo qiladi.

Ta'lim taraqqiyotini tizimiy tasavvur qilish va undagi jarayonlarni modellashtirish, ta'lim sohasidagi eng maqbul(optimal) yo'lni tanlash, samarali usullarni yaratish uchun echim bo'lib hisoblanadi.

Modellashtirishning yo'lga qo'yilishi, zamonaviy informastion texnologiyalar nazariyasini yaratish hamda kompyuter tarmoqlari negizida ta'lim jarayonining barcha bo'g'inlarini uzluksiz axborot bilan ta'minlashni yo'lga qo'yadi, bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalarining mavjud imkoniyatlaridan nafaqat ishlab chiqarishda, balki ta'lim sohalarida ham keng foydalanilmokda:

- elektron pochta;
- o'zaro tarmoq orqali bog'lanish;
- internet tarmog'i.

Zamonaviy axborot texnologiyalaridan o'quv jarayonida samarali foydalanish quyidagi imkoniyatlarga yo'l ochib bermoqda:

- yuqori malakali kadrlar tayorlash;
- zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishni o'rganish;
- zamonaviy axborot texnologiyalarining qo'shimcha qurilmalaridan foydalanishni o'rganish;
- dars jarayonlarini umumlashtirish va soddalashtirish;
- talabalarning darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish;
- talabalarni mustaqil fikrlashga, zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ishlashga o'rgatish va izlanuvchanligini oshirish.

Bu o'z navbatida hayotimizga yangi masofaviy ta'lim tizimini kirib kelishiga sabab bo'ldi. Masofaviy ta'lim qisman elektron darslik va kitoblardan iboratdir.

Shuning uchun o'quv muassasalarining masofaviy ta'lim bo'limiga ega bo'lgan Web sahifalar yaratishi bugungi kunning dolzarb muammosidir.

Ushbu muammoni echish uchun O'zbekiston Respublikasining Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim vazirligi tomonidan masofaviy ta'lim tizimini yo'lga ko'yish bosqichlari belgilab qo'yilgan bo'lib, ushbu bosqichda ta'lim tizimiga masofaviy ta'limni joriy etish ko'zda tutiladi.

Oliy ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan o'quv rejada belgilangan "informatika va axborotlar texnologiyasi" va "Amaliy matematika" kafedralarida o'tilayotgan fanlar uchun testlar tuzilgan. Hozirgi kunda yakuniy nazorat, oraliq nazorat sinovlarini testlardan foydalanib talabalar bilim ko'rsatkichi aniqlanmoqda. Natijada talabalar fanlardan olgan baholari tez va aniq namoyon bo'lmoqda. Zamonaviy informatsion texnologiyalardan keng foydalangan holda elektron darsliklar yaratish va qo'llash talabalarni bilim izlash uchun yangi eshik ochib berdi. Ma'ruza matnlarning elektron qurish ishlardagi turli animasiyalar va xarakterlar talabaning ushbu fanga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytirmoqda.

Kattalarni masofali o'qitishda Internet tarmog'ining o'rni.

Distatsion usuli asosida o'qitishning o'quv qoidalaridan kelib chiqsak, talabalar internet turi orqali jahon bo'yicha sayohat qilishlari mumkin. Shu bilan birga ta'lim berish uslubining o'zgarishi bilan uning shakllari ham o'zgarishi shartdir. Hozirgi kunda to'g'ridan -to'g'ri Internet tarmog'iga kirish xizmati, distatsion uslubi asosida ta'lim berish uchun elektron pochta kompyuter konfidentsiyalari va ma'lumotlarning elektron bazasida foydalaniladi. Axborotlashgan tezkor kanalning rivojlanishi yangi gipermediya tizimini berib, u o'z ichida Internet tarmog'iga kirishning 3 ta asosiy qismini mujassamlashtiradi va foydalanuvchining interfeysini (muloqoti) yanada takomillashtirishga yordam beradi. Masalan, multikast texnologiyalarining konferensiya vositalarining va multimediyalar kompyuterlarining mavjudligi Internet tarmog'i orqali video konferensiyalarni yo'lga qo'yishga imkoniyat berdi. Shunday qilib ligant axborotlashgan tarmoq, o'quvchilarning distant uslubi asosida zamonaviy bilim olishlari uchun vaqti yoki qayerda turganligiga qaramasdan keng sharoit yaratib beradi.

Respublikamizning oliy o'quv yurtlarida masofali o'qitish tizimini joriy etishning ba'zi yo'sinlari.

Ma'lumki, XXI asrga kelib insoniyat yangi global axborot-kommunikatsion muhitini shakllantirishga erishdi. Bu muhit infosfera degan nom oldi va u axborot ayirboshlash borasida zamon va makon tushunchalariga chek qo'ydi. Infosferaning tashkiliy-texnologik asoslarini global axborot tarmoqlari tashkil etadi va u Internet-texnologiyalarning keng imkoniyatlariga tayanadi.

Infosfera nafaqat ishlab chiqarish, axborot ayirboshlash, iqtisodiy-ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy sohalarda, balki jahon ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'tarishga va uni takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Bu borada ta'lim sohasida masofali o'qitish tizimining shakllanishi va uni yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda xizmat qilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi davrda, jahonning rivojlangan mamlakatlarida (AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Fransiya, Kanada, Rossiya, Italiya, Ukraina) masofali o'qish tizimining joriy etilishi natijasida umumjahon axborot resurslariga bo'lgan ehtiyoj keskin oshib borishi bilan bir qatorda, ularda maqsadli foydalanishning yangi usul hamda vositalari shakllandi.

Respublikamizda ham masofali o'qish tizimi joriy etish orasida dastlabki ijobiy ishlar amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston respublikasi Prezidentining «Iste'dot» jamg'armasi qoshidagi «masofali o'qitish markazi» hamda Rossiyaning informatsion jamiyatini rivojlantirish instituti tomonidan masofali o'qitish kurslarining tashkil etilishi, Ushbu yo'nalish bo'yicha amalga oshirilgan ijobiy ishlarning dastlabki de'bochasidir.

Albatta, masofali o'qitish tizimini joriy etish uchun bir qator tashkiliy, o'quv-uslubiy hamda iqtisodiy masalalarni hal etishga to'g'ri keladi. Fikrimizcha, bu vazifalarni ijobiy hal etish uchun respublikamizdagi bir qator oliy o'quv yurtlarining imkoniyatlari etarlidir. Masalan, Buxoro oziq-ovqat va engil sanoat texnologiyasi institutining moddiy-texnik bazasi, uning kommunikatsion muxiti, zamonaviy dasturiy ta'minoti hamda malakaviy mutaxassislarining tarkibi Internet texnologiyalari asosida masofali o'qitish kurslarini joriy etish bo'yicha etarli imkoniyatlarga ega. Institutning «Informatika» kafedrasidan kasb-xunar kollejlari o'qituvchilarining malakasini oshirish markazi uchun masofali o'qitish kurslarini tashkil etish bo'yicha mintaqaviy model yaratilgan. Ushbu model, respublikamizda masofali o'qitish modelini joriy etish bo'yicha ishlab chiqarilgan konsepsiyaga asoslangan. Modelda institut tayanch oliy o'quv yurti maqomiga ega ekanligi inobatga olingan. Unda masofali o'qitish kurslarining ob'ektlari sifatida bir qator viloyatlarning kasb-xunar kollej o'qituvchilarini malakasini oshirish vazifalari asos etib olingan.

Umuman olganda, masofali o'qitish kurslarini joriy etish borasida, eng avvalo Respublikamizdagi Oliy o'quv yurtlarining ulkan potensialiga tayanmog'imiz lozim. O'qitiluvchi ob'ektlar sifatida uzluksiz ta'lim tizimining istalgan bosqichidagi mavjud potensial auditoriya tinglovchilarini olish mumkin. Shuningdek, jamiyatimizdagi boshqa ijtimoiy qavatlariga mansub shaxslarga (nogironlar, ikkinchi ta'lim olmoqchi bo'lganlar, xarbiylar, qo'shni davlatlarning talabalari va x.k) masofali o'qitish tizimi orqali bilim berish mumkin.

Hozirgi davrda masofali o'qitishning bir qator modellari va formalari mavjud. Masalan, uning birlik modeli, ikkilik modeli, aralash modeli, shuningdek konsorsium, franchayzing cheka auditoriya hamda validasiya modellari keng tarqalgan.

Masofali o'qitish kurslarining muqobil modellarini yoki turlarini tanlash, eng avvalo bunday kurslarning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda belgilanadi. Shuningdek, geografik xududning xususiyatlari, ta'lim muassasalarining kompyuterlashganlik holati, zamonaviy informatsion va kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish darajasi, hamda ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash holatlari ham inobatga olinishi lozim.

Respublikamizning Oliy o'quv yurtlarida masofali o'qitish kurslarini loyixalashda uning konsortseum modelini qo'llash yaxshi samara berishi mumkin. Ushbu model asosida ikkita Oliy o'quv yurti masofali o'qitish kurslarini birgalikda tashkil etadi. O'quv materiallarining elektron versiyalarini tayyorlash, shuningdek virtual guruhlarini tashkil etish hamda kurslarning dasturlarini akkreditatsiya qilish masalalari o'zaro hamkorlikda amalga oshiriladi.

Masofali o'qitish kurslarining modeli tanlangandan so'ng o'qitishning muqobil turi belgilanishi kerak. O'qitishning muqobil turini belgilashda mavjud aloqa kanallarining imkoniyatlari, o'qitish vositalari, tyutor va tinglovchilar orasidagi o'zaro axborot almashish tizimining takomillashganlik darajasi inobatga olinadi. Hozirgi paytda masofali o'qitish kurslarining bir nechta turlari mavjud. Ularga kompleks «keys-texnologiyalari», televizion va sun'iy yo'ldosh kanallari, kompyuterli tarmoq texnologiyalari misol bo'la oladi.

Masofali o'qitish kurslarining biz ta'kidlab o'tilgan ushbu turlarining xar biri o'zining yutuq va kamchiliklariga ega. Lekin ularning ichida kompyuterli tarmoq texnologiyalari asosida masofali o'qitish tizimini tashkil etish o'zining katta imkoniyatlari bilan alohida ajralib turadi. Uning negizi-Internet global tarmog'i demakdir.

Bunday kurslarning asosini turli interaktiv elektron materiallar, virtual stendlar, o'rgatuvchi dasturlar, kompyuterli testlar, bilimlar va ma'lumotlar bazasi tashkil etadi.

Internet texnologiyalari asosida masofali o'qitish kurslarini tashkil etishi tinglovchilarga kompleks o'quv-uslubiy materiallarni etkazib berish bilan birga, o'quv jarayonini boshqarishga, shuningdek tyutorlar hamda tinglovchilar orasida seminarlarni, konsultatsiyalarni o'tkazish, hamda tinglovchilar bilimini nazorat etishning monitoringini tashkil etish imkonini beradi.

Masofali o'qitish kurslarini tashkil etishning yana bir muxim xususiyatlaridan biri shundaki, ushbu tizim o'quv materiallarini ishlab chiqarishda kompleks yondashuvini talab etadi. Bu borada o'qitish uslubiyotini ishlab chiqarish, progressiv texnologiyalar asosida mashg'ulotlarni tashkil etish, kurs mazmunini modullar ko'rinishda ifodalash, o'quv materiallarini aktualligini, yangilanib borishini, strukturlashtirilishini, umumiyligini, sifatini ta'minlash, shuningdek mediateka takomillashtirish talab etiladi.

Masofali o'qitish kurslarini tashkil etishda o'quv jarayonlarini rejalashtirilishiga alohida e'tiborni qaratish lozim. O'quv jarayonini rejalashtirishda, belgilangan vazifalarni bosqichlarga bo'lishni, hamda o'quv jarayonlarining quyidagidagi komponentalariga e'tibor berishni tavsiyaetaman;

O'qitishning maqsad va vazifalarini belgilash;

O'qitish uslubiyotini tanlash;

O'quv materiallariga qo'yiladigan uslubiy talablarni ishlab chiqish;

Dars jadvalini ishlab chiqish;

O'quv jarayonining monitoringini tashkil etish;

Nazorat tadbirlarini rivojlantirish;

Tinglovchilarning mustaqil ishlarini rejalashtirish;

Ta'lim jarayoniga aloqador shaxslarning o'zaro muloqot formalarini va turlarini rejalashtirish;

O'qitish natijalarini baholash me'zonlarini aniqlash;

YAkuniy xulosalar chiqarish;

Shuni alohida ta'kidlash joizki, hozirgi davrda informasion texnologiyalari asosida turli ta'lim tizimlarining immiy asosda loyihalash bo'yicha bir qator xalqaro tashkilotlar faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Masofali o'qitish tizimini loyihalash va uni tashkil etish jarayonida ushbu tashkilotlarning standartlashtirish bo'yicha ishlab chiqqan konseptual loyihalarini hamda normativ-xuquqiy ta'minotini inobatga olishingizni maslaxat beraman.

Ta'lim tizimining bugungi vazifasi tinglovchilarni to'lib toshgan axborot-ta'lim muhiti sharoitida bimalol faoliyat ko'rsata olishga o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash sharoitini yaratib berish zarur. Bu o'rinda o'qitishning interfaol metodlaridan biri hisoblangan masofali o'qitishni o'quv jarayoniga joriy etish aloxida ahamiyat kasb etadi. Professor-o'qituvchilar guruhlar turli turdagi tinglovchilar uchun mo'ljallangan har xil masofali kurslar tashkil etib, mashg'ulotlar o'tkazish tajribasini to'playaptilar, o'qitishning samarali yo'llarini izlamoqdalar. Ushbu topilgan turli ta'lim sohalaridagi pedagogik metodikalari ko'pgina mutaxassislariga o'zlarining masofali o'qitish uchun mo'ljallangan ishlanmalarini yaratishda as qotadi albatta.

Hozirgi kunda masofali o'qitish markazlari, masofali o'qitish fakultetlari va masofali o'qitish institutlari tashkil etila boshlanmoqda. Anna shunday vaqtda masofali o'qitishni tashkil etishning tashkiliy-metodik modellari va ularning qanday sinflari borligini bilish zarur. biz ushbu maqolada anna shu masalaga oydinlik kiritishni o'z vazifamiz deb qo'ydik.

Masofali o'qitishning tashkiliy-metodik modellarini asosan olti guruhga bo'lish mumkin:

Eksternat turida o'qitish. Ushbu o'qitish metodi maktab, lisey, kollej va oliy o'quv yurti talabariga yo'naltirilgan bo'lib qandaydir sabablarga ko'ra stasionar o'quv yurtiga bora olmagan o'quvchi va talaba uchun mo'ljallangan. Masalan, 1836 yili London universitetida qandaydir sabablarga ko'ra oddiy o'quv yurtiga bora olmagan o'quvchi va talabalarga yordam sifatida u yoki bu attestatli, darajaga ega bo'lish uchun imtixon olish tashkil etilgan. Ushbu vazifa hozirgi kungacha talabalarni stasionar o'qishi bilan birga saqlanib kelmoqda.

Bir universitet negizida o'qitish. Bu statsionar o'qimaydigan (on-campus), ya'ni masofadan turib, sirtidan yoki masofali, b.a. kompyuterli telekommunikasiyani o'z ichiga olgan yangi axborot texnologiyalari asosida (off-campus) o'qiyotgan talabalar uchun butun bir ta'lim tizimidir. er yuzidagi ko'pgina saboxiyatli oliy o'quv yurtlardagi ta'limning turli attestatlarini olish uchun mo'ljallangan dasturlar turli tumandir. Avstraliya janubiy Uelsning yangi universitetida 3000 talaba stasionar holda o'qisa, 5000 ta talabaga sirtqi va masofali o'qitish tizimi orqali ta'lim oladilar

Bir necha o'quv yurtining hamkorligi. Sirtqi masofali o'qitish dasturini tayyorlashdagi hamkorlik ularni sifatliroq va kam xarajatli bo'lishini tamirlaydi.

Bunday tajriba, masalan, Keprikon universitetlararo teleo'qitish dasturida amalda qo'llangan bo'lib Boliviya, Braziliya, Chili va Paragvay universitetlari ishtirok etishgan. Ana shunday hamkorlik misol sifatida, «ta'limda hamkorlik» dasturi xizmat qilishi mumkin. Britaniya hamdo'st mamlakatlarning raxbariyatlari 1987 yili barcha hamkor davlatlar uchun masofali o'qitish tarmog'ini tashkil etishni kelishib olishga yig'ilishgan. Dasturning istiqboldagi maqsadi–hamdo'st mamlakatlardagi mavjud kollej va universitetlar negizida ixtiyoriy ta'lim olish imkoniyatini yaratib berishdan iboratdir.

Maxsus masofali o'qitish maqsadida tashkil etilgan avtonom ta'lim muassasalari.

Ana shunday muassasalardan eng yirigi Londondagi ochiq universiteti (The Open University) hisoblanadi. Hozirgi kunda unda nafaqat Buyuk Britaniya balki ko'pgina hamdo'st davlatlarning ko'pgina talabalari masofadan turib o'qimoqdalar.

AqSH da bunday universitet sifatida Milliy texnologik universitet (Kolorado shtati) ni misol qilib keltirish mumkin. Bu universitet 40 ta muxandislik kollejlari bilan birgalikda turli muxandislik mutaxassisliklar bo'yicha talabalarni tayyorlamogda. 1991-yili universitet shtat raxbariyati va biznes sohasi bilan yaqin xamkorlikda 40 ta kollejni masofali o'qitish tarmog'i bilan birlashtirdi.

5. Aftonom o'qitish tizimlari.

Bunday tizimlar doirasida o'qitish to'la TV va radio dastur, shuningdek, qo'shimcha chop etilgan qo'llanmalar asosida o'qitmogda. Masofadan turib o'qitishning bunday misoli sifatida Amerika–samoan televizion loyihasini keltirish mumkin.

6. Mul'timedian dastiri asosida norasmiy integrallashgan (birlashtirilgan) masofali o'qitish.

Bunday dasturlar qandaydir sabablarga ko'ra maktabni tamomlay olmagan yoshi katta tinglovchilar auditoriyasiga mo'ljallangan.

Bunday loyixalar ushbu dasturga birlashtirilgan rasmiy ta'lim dasturining qismi (masalan, bunday dasturlar Kolumbiyada mavjud), yoki aniq ta'lim maqsadida maxsus mo'ljallangan (masalan, Britaniyaning savodxonlik dasturi), yoki maxsus salomatlik profilaktikasi dasturiga yo'naltirilgan (masalan, rivojlanayotgan davlatlar uchun) bo'lishi mumkin.

Ta'lim tizimida ko'llaniladigan masofali o'qitish usulining rang-barang shakl va modellari mavjud. Ushbu usulning rang-barangligi, masofali o'qitish tizimining shakllanishidagi turli shart–sharoitlari bilan bog'liq. U shart – sharoitlarga:

- geografik sharoitlar (masalan, davlatlarning territoriyasini ko'lam, markazdan uzoqda yoki ajralgan regionlarning mavjudligi, iqlimi va boshqalar);

- davlatning kompyuterlashtirilganlik informatikalashtirilganligining umumiy darajasi;

-davlatda transport va kommunikatsiya vositalarining rivojlanganlik darajasi;
ta'lim sohasida mavjud an'analar;
-masofali o'qitish tizimi uchun ilmiy–pedagogik xodimlarni mavjudligi va shu kabilar kiradi.

YUNESKO institutining 2000 yildagi analitik tadqiqot materiallarida («Distance Education for the Information Society: Policies, Pedagogy and Professional Development») keltirilgan masofali o'qitish modellarining sinflarini keltiramiz:

Yagonalik modeli. Ushbu model tashkiliy tuzilishiga ko'ra faqat masofali o'qitishda va «masofali» talabalar bilan ishlash nuqtai nazardan ko'riladi. O'qitish shunday amalga oshiriladiki, bunda ta'limning kunduzgi shakli zarur bo'lmaydi. Barcha o'qitish masofadan amalga oshiriladi. Ushbu modelda o'qitish tashkil etilganda regional markazlar bo'lib, ulardan talabalar o'qituvchilardan konsultatsiyalar olishi yoki yakuniy imtixon topshirishlari mumkun.

Bunday oliy o'quv yurtlarida o'qituvchilarga ham talabalarga ham o'quv faoliyatining shakl va uslublarini tanlashda katta erkinlik beriladi. Vaqt va o'quv jadvalariga qat'iy chegaralar qo'yilmaydi.

Bunday prinsipda o'qitish, ochiq universitetlarda, masalan, Buyuk Britaniyaning Ochiq universiteti (United Kingdom Open University–<http://www.open.ac.uk>) da tashkil etilgan.

Ikkilangan modeli. Bunday tizimda oliygoh kunduzgi talabalarni ham, qisman kunduzgi va qisman masofali dastur asosida o'qitadi. Har ikkalasida ham dars jadvalari, o'qitish dasturlari, imtixonlari va baholash me'zonlari bir hil bo'ladi. Odatda ikkilangan modelni rivojlantirilayotgan oliy o'quv yurti kunduzgi talabalar soni masofali o'qiyotgan talabalar sonidan soni katta bo'lgan an'anaviy oliygohlardir. Shuning uchun bir universitetning o'zida ikki shaklning birgaligida ko'proq o'zlarida katta o'quv materiallaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan kunduzgi talabalar yutadilar. Bunday oliy o'quv yurtlarida masofali kurslar har doim ham foyda keltirmaydi, ba'zan u qisman kunduzgi talabalarni o'qitish hisobidan amalga oshiriladi. Bunday holatlarda asosiy urg'u tajribaga, pedagogika va uslubiyotning innovatsiyalar tadqiqotiga va boshqalarga bo'ladi. Masofali o'qitishning bunday modelini Avstraliyaning yangi Angliya Universiteti (University of New England, Australia- <http://www.unen.edu.au>) da tashkil etilgan.

Aralash modeli. Bu model universitet talabalarini masofali o'qitishning turli shakllarini, aniqrog'i shakllarining integratsiyasini nazarda tutadi. Masalan, kunduzgi shaklda o'qiyotgan talabalar masofali o'qitish kurslarining dasturdagilarni yoki ushbu universitetning o'qituvchisi o'qiyotgan kunduzgi kurslari bilan parallel ravishda qisman o'qiydilar. Shuningdek, bu modelda an'anaviy kurslar doirasida virtual seminarlar, prezentatsiyalar, ma'ruzalar ko'rinishidagi alohida mashg'ulotlarning alohida shakllarini integratsiyasi bo'lishi mumkin. Universitet qanchalik axborot va kommunikatsion texnologiyalari

vositlari bilan jixozlangan bo'lsa, shunchalik o'qitish shakllari turli-tuman bo'ladi.

Integrallashgan bunday kurslar YAngi Zelandiyadagi Massey universitetida (Massey University, New Zealand– <http://www.massey.ac.nz>) tashkil etilgan.

Konsorsium. Ushbu model ikki universitetni birlashmasidan iborat. Bunda o'quv materiallari bilan almashadilar yoki ba'zi vazifalarni bo'lishib oladilar. Masalan, bir universitet masofali o'qitish uchun o'quv materiallar ishlab chiqaradi, boshqasi vertual o'quv guruhlarini o'qituvchilar bilan ta'minlaydi yoki masofali o'qitish dasturlarini rasmiy akreditatsiyasini o'tkazadi. Bunday hollarda universitet butunlay, yoki uning alohida markazlari, fakultetlari, xatto ta'lim xizmati bozorida ishlayotgan tijorat yoki davlat tashkilotlari partner bo'lishlari mumkin. Konsorsiumlar faqat qat'iy markazlashgan boshqarish va yaratilayotgan ashyolarning mualliflik hamda material huquqlarini rioya etish shartlaridagina samarali bo'ladi.

Franchayzing modeli. Franchayzing prinstpidadagi tashkil etilgan masofali o'qitish modelida partner universitetlar bir-birlariga o'zlarining masofali kurslarini beradilar. Bunda ta'lim xizmati bozorida o'zini ko'rsatgan qandaydir universitet o'zida ishlab chiqqan kurslarini masofali o'qitishni endigina tashkil qilayotgan va masofali o'qitish uchun o'quv ashyolarini mustaqil ishlab chiqish tajribasiga ega bo'lmagan boshqa oliy o'quv yurti-partnerlariga o'qitish xuquqini berishi mumkin. Shunga o'hshash modelning qiziq tomoni shundaki, talabalar o'zlarining universitetiga o'qishga yozilib, konsorsiumga kirgan ilg'or oliy o'quv yurti talabasi kabi o'sha hajmda va sifatda ta'lim xizmatlariga, o'qishni bitirganlaridan keyin xatto diplomlariga ega bo'ladilar. Bunda ilg'or universitetning barcha atributikalari o'z kuchini saqlab qoladi.

Franchayzning modeliga misol sifatida Buyuk Britaniyaning Ochiq Universiteti qoshidagi Biznes Maktabi (Open University Business School, Great Britain) va uning SHarqiy evropadagi universitetlar bilan aloqasini olish mumkin.

Validasiya. Masofali o'qitishning juda keng tarqalgan modeli bo'lib, bunda ta'lim muassasalari masofali o'qitish bo'yicha xizmatlarni barcha partnyorlar keng darajada bajarishlari haqida kelishuv imzolab oladilar. Ularning biri diplom validasiyasi, kurs va dasturlarni akreditatsiyasini qiladi, rasman tan olinadigan diplom va sertifikatlarni berishga ma'sul bo'ladi, ilmiy darajalar beradi va xokazo. Bosh oliygox (davlat akreditatsiyasiga ega bo'lgan taniqli oliygox) va uning regionlaridagi ko'p sonli filiallari orasidagi munosabatlar ham shu model asosida tashkil etiladi.

Uzoqlashtirilgan auditoriyalar. Bu modelda ayniqsa zamonaviy texnologiya vositalari faol qo'llaniladi. Oliygoxda o'tkazilayotgan o'quv kurslar, ma'ruzalar yoki seminarlar talabalar yig'iladigan va uzoqlashtirilgan o'quv auditoriyalarga sinxron teleko'rsatuv, videokonfrensiya, radioeshittirish ko'rinishidagi telekommunikatsiya kanallaridan uzatiladi. Bunda bir o'qituvchi bir vaqtning o'zida talabalarning katta auditoriyasi bilan ishlaydi.

Ushbu model bo'yicha AQSH ning Viskonsin universiteti (Wisconsin Universiteti USA) da, shuningdek, Xitoyning markaziy radio va televideniya universiteti (CHina Central Radio and TV Universiteti) da masofali o'qitish tashkil etilgan.

Loyihalar. Davlat ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot dasturi doirasida keng qamrovli loyihani amalga oshirish uchun mo'ljallangan masofali o'qitish modelidan iborat. Ushbu modelda asosiy ahamiyat o'quv materiallarini ishlab chiquvchi asosiy mutaxassis xodimlar, masofali kurslarni olib boruvchi o'qituvchilar va olimlar yig'iladigan ilmiy-uslubiy markazga aylaniriladi. Markazda ishlab chiqiladigan masofali kurslar u yoki bu davlat (region) ning katta auditoriyasiga uzatiladi. Bu o'qitish vaqtinchalik hisoblanib, loyihada mo'ljallangan ishlar bajarilgandan yoki tugagandan so'ng to'xtatiladi. Bu modelga misol sifatida Amerika va Lotin Amerikasining rivojlanayotgan davlatlarida turli xalqaro tashkilotlar o'tkazgan qishloq xo'jaligi, agrotexnikaning yangi uslublari, ekologiya bo'yicha masofali o'qitish kurslarini olish mumkin.

Masofadan o'qitish bu internet tarmog'i orqali sizga qulay bo'lgan vaqtda o'qishdir. Masofaliy o'qitish uslubi asosida tinglovchilarni o'qitish hozirgi kunning eng rivojlanib borayotgan yo'nalishlaridan bo'lib, o'qituvchi bilan tinglovchilar ma'lum bir masofada joylashgan holda ta'lim berish tizimidir.

Masofaliy o'qitish tizimi bu - masofadan internet orqali o'qitish va kurslar yaratish asbobidir. Tizim talabalarni o'qitish va o'qituvchilar uchun kurslarni yaratish, kurslarni kontrol qilish va olib borish uchun zarur imkoniyatlarga ega. U o'quv yurtlarida va markazlarda masofadan o'qitish, hamda shaxsiy korxonalarda mutaxassislarni masofadan malakasini oshirish va qayta tayyorlash uchun mo'ljallangan. U quyidagi tizimlardan iborat: qayd qilish, masofadan o'qitish kurslarini yaratish va taxrirlash, o'qitish va kommunikastiya, yangiliklar. Tizim yordamida o'qituvchi masofadan o'qitish kursini yaratish, taxrirlash, doimo yangilash va kurslarni olib borish, talabalarni kursga qabul qilish va kursdan o'chirishi mumkin.

Tizim yordamida talaba individual tarzda vaqti va yashash joyidan qat'iy nazar doimo o'qish imkoniyatiga ega. Odatda talaba o'qish, topshiriqlarni bajarish, kuzatishlar, tajriba almashish, xatolar qilish va ularni to'g'rilash, fikrlash va boshqalarni o'qitish usullari bilan bilim oladi.

O'qitishda tarmoqdan foydalanish uni o'zgaruvchan qiladi. Tizim yordamida masofadan qat'iy nazar birgalikda ishlash va muxokamada ishtirok etish mumkin.

Avvalambor, masofaviy o'qitish uslubi asosida, jo'g'rofiy jihatdan uzoqda joylashgan maktablar va akademik ta'lim uchun mo'ljallangan edi. Lekin, zamonaviy axborotlar va telekommunikastion texnologiyalarining rivojlanishi tabiiy ta'lim-tarbiya jarayonini uzoq masofadan turib amalga oshirishga yo'l ochib berdi. Masofali o'qitishning uslubi asosida Xalqaro Kengashining tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi kunda jahonda 10 milliondan ortiq talabalar shu uslub asosida ta'lim olishmoqda.

Bugungi kunda taraqqiyot juda tez rivojlanmoqda va juda tez o'zgarimoqda. Deyarli har daqiqada sayyoramizning turli burchaklarida o'zgarishlar, yangiliklar va kutilmagan voqealar hodisalar sodir bo'lmoqda. Har bir kunimiz informatsiya oqimi ta'sirida kechmoqda. Ta'lim tizimida masofadan o'qitish uslubi shakllari qo'llanilmoqda. Masofadan o'qitish uslubi-bu sirtqi o'qishning yangi shaklidir. Masofadan o'qitish bu mustaqil masofadan dars o'qishdir. Mustaqil o'qitish insonning mustaqil fikrlash, xolatni baholash, xulosa va bashorat qilish qobiliyatlarini shakllantiradi.

Distatsion kurs shakli quyidagilardan tashkil topadi.

-kursning nomi

-o'qituvchining ism familyasi

-o'qituvchining elektron manzili

-kursga oid ma'lumotlar

-kurs materiallari

-talabalar

-yordam

sistemaga talablar:

tizim Windows va Internet Explorer 5.0 va undan yuqori turdagi programmalar doirasida ishlaydi. Tizim o'qituvchilar va talabalar uchun foydalanish ko'rsatmalariga ega. Dictatsion o'qitish tizimi O'zbekiston Respublikasi Davlat Patent idorasida qayd etilgan.

Masofadan o'qitishning tarkibiy belgilari: o'qituvchi, o'quvchi, kommunikatsiyadir.

Masofadan o'qitishning uslubiy materiallari quyidagilardir:

Darslik

Audio va video darsliklar

On-layn darslar (Internet sahifa)

Elektron kutubxonalar

Testlar

Multimedia, elektron darsliklar

Masofadan o'qitishda virtual kutubxonalar sputnik orkali videokonferensiyalar, darslar, Internet yordamida muloqot va informatsiya olish imkoniyatlari paydo bo'ladi. Bu esa o'quvchi uchun maxsus o'qish doirasini beradi.

Masofadan o'qitish qanday amalga oshiriladi.

Dunyoda ko'pgina Universitetlarda va o'quv markazlarida bu usul mavjud. Kerakli manzilni Internetdan topishingiz mumkin.

Manzilga kirib bu o'qish tinglovchisi bo'lish uchun maxsus shaklni to'ldirishingiz zarur. Odatda avval kursning va o'qish tartibi tavsifi bilan tanishib chiqish mumkin. Keyin shakldagi satrlarni to'ldirib, kredit kartochkangiz raqamini kiritishingiz zarur.

O'qish tartibi quyidagicha: o'qituvchi kurs bilan tanishtiradi va topshiriqlar beradi. Siz ko'rsatilgan manbalar bilan ishlab topshiriqlarni bajarasiz va

o'qituvchiga yuborasiz. O'qituvchi uni tekshirib, javobini sizga qaytaradi. Zarur holda sizga ko'rsatmalar beradi. SHu tartibda kurs mavzulari o'rganib chiqiladi. Muzokara asosan elektron pochta orqali yuboriladi. Telefon tarmog'idan ham ba'zan foydalaniladi. Bosma o'quv materiallari pochta orqali yuboriladi. O'quv jarayonida tinglovchilar darsliklardan, elektron forumlardan, videokonferenstiyalardan foydalanadi.

Bunda o'qish individual shaklda olib boriladi va o'qituvchi o'quvchining qobiliyati va xususiyatlarini hisobga olgan xolda o'qitadi. Bu individuallik o'quvchida qiziqish uyg'otadi va uni o'qishda aktivlikka rag'batlantiradi.

masofadan o'qitish tizimiga bag'ishlangan sayti.

<http://www.dist-edu.ru>-Evro Osiyo masofadan o'qitish tizimi assostiyesi serveri. Unda assosiastiyasiga kirish tartiblari, ustav xujjatlari, konferensiyalar, seminarlar va qiziqarli anjumanlar jadvali keltiriladi. Masofaviy o'qitishning afzalliklari.

Tizim bir necha afzalliklarga ega. Bunda tinglovchi individual tartibda o'qituvchi bilan, boshqalar bilan va ma'muriyat bilan muayyan muloqot qilish imkoniga onlayn tartibidagi o'qish e'lonlari onlayn va onlayn munozaralarni nazarda tutadi. Bu esa o'qituvchi va tinglovchilarga umumiy savollarni va xar bir studentning savollarini muhokama qilish imkoniyatini beradi. Tinglovchi individual ishlash bilan birgalikda, hamkorlikda ham ish yuritadi. Aynan shu imkoniyatlar vertual o'qitish guruxini yaratadi.

Masofadan o'qitishning yana bir afzalliklari shundaki, unda kattalar o'ziga qulay vaqtda va xattoki ishdan ajralmagan holda o'qishi mumkin. Aynan shu afzalliklari tufayli bu uslub dunyoda kundan-kunga keng tarqalmoqda. Ko'pgina yirik korxonalar mutaxassislari malakasini oshirish yoki qayta tayyorlash uchun shu uslubdan foydalanib, yiliga millionlab dollorlarni tejamoqdalar.

Masofadan o'qitishning yana bir afzallik tomoni unda o'qish muddatini tinglovchilar va o'quvchilar o'zlari belgilaydilar, ya'ni ular ixtiyoriy paytda o'qishni boshlaydi, materiallarni o'qituvchi nazoratida o'zlashtiradi. O'zlashtirish topshiriqlarini, testlarni bajarishiga qarab aniqlanadi. Tinglovchilar va o'quvchilar berilgan vazifani qanchalik tez o'zlashtirsa, shunchalik tez kursni va o'qishni tugatadi va guvoxnoma oladi. Programmani o'zlashtira olmasa, unga mustaqil ishlab, o'qishni davom ettirishga imkoniyat beriladi.

Masofadan o'qitish tashkiliy iqtisodiy afzalliklarga ham ega. Masofadan o'qitish uchun tinglovchilar uchun auditoriyalar, yotoqxonalar zarur emas. Masofadan o'qitishda moliyaviy xarajatlar asosan o'quv uslubiy materiallar tayyorlash uchun, maxsus auditoriyalar uchun sarflanadi. Bu xarajatlarning asosiy qismi bu jarayonni tashkil etish bosqichida sarflanadi. Keyinchalik moliyaviy xarajatlar kamayadi. SHuning uchun tinglovchilar sonining oshishi bilan o'qish narxi ham pasayadi. Masofadan o'qitishda asosiy e'tiborni o'quv uslubiy materiallarni tayyorlashga qaratish darkor. CHunki o'quv uslubiy materiallarning sifati, masofadan o'qitish sifatining eng asosiy omillaridan biridir. O'quv uslubiy material qanchalik tushunarli va batafsil bo'lsa,

shunchalik u o'quvchiga foydali bo'ladi. YA'ni material uslubiy jixatdan puxta bo'lmog'i zarur.

Distant uslubining quyidagi afzalliklarga ajratib olishimiz mumkin:

a) o'qitishning ijodiy muhiti. Mavjud ko'pgina uslublar asosida o'qituvchi ilm tolibini o'qitadi, o'quvchi esa faqat berilgan materialni o'qiydi. Taklif qilinayotgan distant metodi asosida esa o'quvchilarning o'zlari kompyuterlar asosida axborotlar bankidan kerak bo'lgan ma'lumotlarni qidirib topadi va albatta o'zlarining tajribalarini boshqalar bilan elektron tarmoqlar asosida almashadi. Bu esa kattalarni boshqalar bilan yaxshi muloqotda bo'lishini ta'minlaydi va o'z o'rnida bunday mehnat ta'lim olishni rag'batlantiradi.

b) mustaqil ta'lim olishning imkoniyati borligi. Distant uslubi asosida ta'lim berish–boshlang'ich, o'rta, universitet, sirtqi-kechki va malaka oshirish bosqichlarini o'z ichiga oladi. Tayyorgarligi har xil darajadagi kattalar o'zlarining shaxsiy dars jadvallari asosida ishlashlari mumkin va o'zining darajasidagi kattalar bilan muloqotda bo'lishi mumkin.

v) ish joyidagi katta o'zgarishlar. Distant uslubi asosida ta'lim berish turi millionlab insonlarga, hammadan ham ishlab chiqarishdan ajralmasdan ta'lim olayotganlar uchun, qulay sharoit yaratib beradi. Bunday uslub asosida o'qitish kadrlarni tayyorlashda judayam katta rol o'ynamoqda, ya'ni jo'g'rofiy va moliyaviy qiyinchiliklarsiz o'zining ishlab turgan o'rnida ilm olishi mumkindir.

g) o'qitish va ta'lim olishning yangi va unumli vositasi. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, distant uslubi asosida ta'lim berish, ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qish kabi unumlidir. Bundan tashqari, distant uslubi asosida ta'lim olish universitet tomonidan qo'yilgan chegaradan ham chetga chiqib ketadi. Bunday asosda ta'lim olayotgan talabalar yoki o'quvchilarning boshqalardan ustunligi–ularning eng yaxshi, sifatli materiallar va o'qituvchilar bilan ta'minlanishidir. Ta'lim berish va boshqarish uslubiyotiga asoslangan holda, o'qituvchi auditoriyada o'qitish shartlaridan holi bo'lishi kerakdir.

Kattalarga mo'ljallangan masofaviy o'qitishdagi texnologiyalar

O'qituvchi va tinglovchining ma'lum bir masofada joylashganligi, o'qituvchini dars jarayonida kompyuterlar, sputnik aloqasi, kabel televideniya kabi vositalar asosida o'quv ishlarini tashkil qilishini talab qiladi. Zamonaviy kompyuter texnologiyalarining tez rivojlanib borishi, ayniqsa, axborotlarni uzatish kanallarining rivojlanishi telekommunikasiya sohasiga o'ziga xos tarixiy o'zgarishlar kiritmoqda.

Masofaviy o'qitish quyidagi texnologiyalarni o'z ichiga oladi:

Interaktiv texnologiyalar:

audiokonferensiyalar;

videokonferensiyalar;

ish stolidagi videokonferensiyalar;

elektron konferensiyalar;

ovoz kommunikasiyalari;

ikki tomonlama sputnik aloqa;
virtual borliq.
Nointeraktiv texnologiyalar:
bosib chiqarilgan materiallar;
audiokassetalar;
videokassetalar;
bir tomonlama sputnik aloqa;
televizion va radio ko'rsatuvlari; disketa va CD-ROM lar

Mavzuni o'zlashtirishni ta'minlashga oid savollar:

- Kattalar o'qitishda masofali ta'lim texnologiyalarining axamiyati?
- Masofavli ta'lim tizimini, zamonaviy informatsion texnologiyalar o'ziga xos xususiyatlarini aniqlang?
- Xalqaro axborot tizimi internetdan keng foydalanish yo'llari qanday?
- Axborotlashgan tezkor kanalning rivojlanishi yangi gipermediya tizimi qanday?
- Hozirgi kunda masofali o'qitish markazlari qaysilar?

Mavzuni o'rganish bo'yicha foydalanilishi mumkin bo'lgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zmeev S. I. Andragogika: Stanovlenie i puti razvitiya // Pedagogika. — 1995.-№2.
2. Zmeev S. I. Texnologiya obucheniya vzroslyx. — M., 2002.

1.8. XALQ UNIVERSITETLARI TARIXI VA KATTALAR TA'LIMI

1. Xalq universitetlari rivojlanishining ikki xil yo'nalishi (katta yoshdagilarga mo'ljallangan maxsus va o'quv dargoxlarini ochish, universitet auditoriyalarida bilim olayotgan talabalarni bilim olishga jalb etish)
2. Xalqchil o'qitish shakllari uchun qulay imkoniyatlarning mavjudligi;
3. Jamiyatdagi o'zgarishlar paytida kattalarning ijtimoiy-psixologik himoyalanganligi.
4. Kattalar ta'limida mutaxassislar, siyosatchilar, deputatlar bilan uchrashuvlar va suxbatlar o'tkazilishi.

Tayanch iboralar va atamalar: “Oliy xalq maktabi”, “Xalq dehqonlari oliy maktablari”, „«Tarixiy-o'lkashunoslik», «Nazm klubi», «go'zallik olami», «Dars-darmonsiz xayot», «Bilimlar» jamiyati, badiiy kengashlar, kasaba uyushmalar, xalq universiteti, xuquq, meditsina, o'lkashunoslik, ruxiy yordam, bog'dorchilik, diniy fakul'tet.

Maktablar, kurslar, universitetlar o'z nomi bilan keng halq ommasiga mo'ljallanganligini bildiradi.

Xalq universitetlari rivojlanishining ikki xil yo'nalishi mavjud bo'lib, birinchisi ishchi-dehqonlarga, katta yoshdagilarga mo'ljallangan maxsus va o'quv dargoxlarini ochish bo'lsa, ikkinchi yo'nalish universitet auditoriyalarida bilim olayotgan talabalar bilim darajasiga ko'pchilikni jalb etishdir.

Xalqchil o'qitish shakllari quyidagilar bilan xarakterlidir:

- Boshqaruvning jamoaviy shakli;
- Ixtiyoriy ta'lim olish;
- O'qish muddati va dasturining ko'p variantliliigi;
- Ilmiy va amaliy mashg'ulotlarning uzviy bog'liqligi;
- Katta yoshdagilarning bilim olishi va o'zaro muloqoti uchun qulay imkoniyatlarning mavjudligi;
- Jamiyatdagi o'zgarishlar paytida kattalar ta'limining ijtimoiy-psixologik ximoyalanganligi.

Axolining madaniy-ma'rifiy, professional ongini oshirishda, ularning yoshi, ma'lumotidan kat'iy nazar xalq universitetlarining ahamiyati katta xisoblanadi.

Eng birinchi bo'lib 1844 yilda Daniyadagi jamoat arbobi va pedagog N.Gruntvig tomonidan "Oliy xalq maktabi" ochilgan.

Bunday maktablarni ochish g'oyasi uning "Xayot maktabi" asarida ilgari surilgan bo'lib, u majburiy ta'lim olmagan 17 yoshdan katta bo'lgan kishilarning bilim olishiga qaratilgan edi.

"Xalq dehqonlari oliy maktablari" nomi bilan 1864 yil Norvegiyada, 1868 yil Shvetsiyada, 1888 yil Finlandiyada ochilgan o'quv dargohlari o'z o'quvchilariga rasmiy xuquq bera olmagan, ularda o'quv dasturlari xam rasmiy tasdiqlanmagan edi.

U maktablarda umumiy ta'lim, amaliy mashg'ulotlar uyg'unligida olib borilib, agronomiya, veterinariya, kulinariya yo'nalishlarida edi.

Kattalarni o'qitish maktablari Evropada xozirgacha saqlangan bo'lib, falsafa, musiqa, tarix, drama, to'quvchilik yo'nalishlarida bo'lib, muddati 4 oygacha yozgi kurslardan iborat. Imtixon yoki sinov olinmaydi.

Xozirda Finlandiyada 91 ta xalq maktablari mavjud. Ulardan aksariyat qismi xususiy, ayrimlari siyosiy partiyalarga tegishli, ayrimlari kasaba uyushmalari qaramog'ida. Bu maktablarda o'quv kurslari 1 yildan 3 yilgacha bo'lib, ba'zilarida davlat xarajatining 55 % ini qoplaydi. Studentlar 20 %ini to'lashadi, qolgani maktab xisobidan.

Shvetsiyada 186 ta xalq maktablari bo'lsa, Norvegiyada 82 ta maktab bor.

1867 yil Kembrij universiteti o'qituvchisi D.Styuart tomonidan ishlab chiqilib, taklif etilgan aloxida predmetlar bo'yicha ma'ruzalar o'qish va yozma ishlar yozib topshirish g'oyasi ko'p davlatlar tomonidan ma'qullandi.

Bu o'quv maskanlari 1870 yildan "Ochiq universitetlar" deb yuritila boshlandi. Germaniya, Belgiya, Fransiyada xam shunday universitetlar tashkil etildi. Masalan, Fransiya kurslar baxs-munozara klublari sifatida edi.

1890 yilda Amerikada xam bunday universitetlar ochila boshladi.

CHikago va Baltimar shaxarlarida eng birinchi universitetlar ochildi.

XX asr boshlarida Rossiyada xam xalq universitetlari ochila boshladi.

Moskva davlat universiteti professorlari tomonidan ishchilar uchun bepul tashkil etilgan kurslarda I.M.Sechenov, N.Chexovlar ma'ruza o'qishardi.

Turli xil yo'nalishlarda ma'ruza o'qiladigan bunday kurslar 1906 yildan boshlab Moskvada, Peterburgda, Voronejda, Astraxanda, Samara, Saratovda, Rastov, Pskov shaxarlarida ochildi.

Bu universitetlarda o'quv predmetlari, formasi va metodlari turlicha bo'lgan.

Rossiyada "SHaxar xalq universitetlari" alohida o'rin tutgan bo'lib, ulardan biri jamoat arbobi A.L.SHanyavskiy o'z xisobidan ochgan kurslar edi.

Unda kuchli va iste'dodli olimlar A.P.Pavlov, K.A.Temiryazov, Blonskiy va boshqalar ma'ruzalar o'qishardi.

Bu universitetda 2 ta bo'lim mavjud bo'lib, 4 yillik ilmiy ommabop va 3 yillik akademik kurslar edi.

Bu erda tabiiy, tarixiy, falsafiy yo'nalishlarda ma'ruzalari qilardi.

1912- yilda bu universitetda 3600dan ortiq talabalar o'qir edi.

1908-yilda Peterburgda xalq universitetlari arboblari I-se'zdi bo'lib o'tdi. Unda 500 dan ortiq soxa vakillari ishtirok etdi. 1917-yildan keyin Xalq universitetlari ishchi-dehqon universitetlari deb yuritila boshlandi. 1925- 1931-yillari Oliy o'quv yurtlari qoshida xalq ommasi bilimi va madaniy-ma'rifiy saviyasini oshirishga mo'ljallangan kurslar, qishloq xo'jaligi va fermerlashtirish muommolarini o'rganuvchi, ishchi-dehqonlar siyosiy sovodxonligini oshiruvchi dehqonlar universitetlari tashkil etildi. 1950-yillardan boshlab xalq universitetlari o'z yo'nalishlarini kengaytirib, keng ommani madaniy – ma'rifiy, gumanitar, ilmiy –texnika fanlari bo'yicha o'qitish qamrab oldi .

Bu ishlarni bajarishda xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus, sog'liqni saqlash vazirliklari, «Bilim» jamiyatlari, badiiy kengashlar, kasaba uyushmalarining roli katta bo'ldi. Xalq xo'jaligi, qishloq xo'jaligi, fan-texnika sanoat yo'nalishlarini o'zi ichiga qamrab olgan xalq universitetlari umumiy ta'limni rivojlantirish, kasbiy mahorotni oshirish, jamiyatdagi kasblarga o'qitish kabi soxalarni o'zida mujassam etgan edi.1986-yilga kelib 39 ming xalq universiteti, unda 20 million tinglovchi, 750 ming o'qituvchilar bor edi.

1980-1990- yillari qayta qurish oilalarida xalq universitetlari umuman bu faoliyatlarini to'xtatdi. Ular o'rnida o'quv yurtlari qoshida tizimlashtirilgan chet tilini, komp'yuterni, marketingni va shu kabi alohida kasbga o'rgatuvchi kurslar vujudga keldi. Bu kurslarning maqsadi insonlarni:

- yangilanayotgan turmush tarzida jamoat va professional ishlarida faol qatnashishga tayorlash;

-o'z qiziqishi bo'yicha individual bilim olish;

-1998-yilda ochilgan xalq oliy maktabida 30 turdagi kurslarda 600 dan ortiq tinglovchi mavjud bo'lib, «Tarixiy-o'lkashunoslik», «Nazm klubi», «Go'zallik olami», «Dars-darmonsiz hayot» kabi mavzularda taniqli olimlar, muzey xodimlari tomonidan ma'ruzalar o'qilmoqda. Xozirgi kunda xalq universitetlarining mavjudligi qonun bilan to'liq mustaxkamlanmagan. Uning moliyaviy tomonlama taminlanishini xomiylar tomonidan amalga oshirilmoqda. Xozir dunyoda xalq universitetlarida 220 milliondan ortiq keksa yoshdagi insonlar ta'lim olishmoqda ular bilan alohida bilim va malakaga ega andragoglar, ruxshunoslar shug'ullanishadi. O'quv dasturlari maxsus tuzilgan bo'lib to'liq davlat tomonidan moliyalashtirilib to'lanadi.

«Bilim» jamiyati xamkorligida xozir shaxarlarda keksalar uchun maxsus kurslar faoliyat ko'rsatmokda.

1997 yil keksalar uchun xalq universiteti tashkil etildi. Unda xuquq, meditsina, o'lkashunoslik, ruxiy yordam, bogdorchilik, diniy fakul'tetlari mavjud bo'lib, 300 dan ortiq tinglovchisi bor. U erda kuchli mutaxassislar, siyosatchilar, deputatlar bilan uchrashuvlar va suhbatlar o'tkazilib turiladi.

Mavzuni o'zlashtirishni ta'minlashga oid savollar:

- Agar sizda xalq universiteti tashkiliy komitasini boshqarish imkoniyati bo'lsa, qaysi ishdagi tinglovchilarni ko'proq jalb etasiz? Qaysi yo'nalishda ilmiy va amaliy mashg'ulotlar olib borar edingiz?
- Qaysi olimlar, siyosatchilar, san'at arboblari ma'ruzalarini eshitgan bo'lar edingiz?
- O'z ota-onangiz, qarindoshlaringizga qaysi mavzularda, kurslarda ma'ruzalar eshitishni tavsiya etar edingiz? XXI asrda xalq universitetlari jamiyatimizga kerakmi?

Mavzuni o'rganish bo'yicha foydalanilishi mumkin bo'lgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Zmeev S. I. Andragogika: Stanovlenie i puti razvitiya // Pedagogika. — 1995.-№2.

2.Zmeev SI. Texnologiya obucheniya vzroslox. — M., 2002.

1.9. EVROPADA QO'SHIMCHA BIZNES MAKTABLARI.

- Biznes maktablari qo'shimcha kasbiy ta'lim sifatida.
- Biznes-maktab bu katta yoshdagilar ta'lim olishi uchun yangi tashkiliy shakl
- Biznes –maktablar AQSHda XIX asr ohirlarida paydo bo'lishi
- MVA (Master of business Administration -Biznesni boshqarish ustalari) dasturi

Tayanch iboralar va atamalar: menejer, assostiastiya, biznes, biznes-ta'limi, assostiastiya, biznes-maktabi, biznes sohasi, stajyorlik, auditoriya, keys-stadi, ishbilarmonlik, boshqarish sohasi, magistr dasturi, majburiy, tinglovchi, majburiy fanlar, iqtisod, korporativ moliya, moliyaviy buxgalteriya hisobi, menejerlik buxgalteriya hisobi, strategik menejment, operativ menejment, tashkilotchilik axloqi, loyihalash, insoniy resurslarni boshqarish, menejment, faoliyat, kar'era xalqaro biznes

Biznes-maktab bu katta yoshdagilar ta'lim olishi uchun yangi tashkiliy shakl hisoblanadi. Uning maqsadi oliy ma'lumoti bor kishilarga biznesni boshqarish masalasida ma'lum qqshimcha bilim va ko'nikmalar berishdan iborat. Biznes – maktablar AQSHda XIX asr ohirlarida paydo bo'la boshlagan. MVA (Master of business Administration -Biznesni boshqarish ustalari) dasturi bo'yicha 1901yili N'yu Xempshir shtatining Dortmund kollejidan birinchi bitiruvchilar hayotga yo'llanma oldi(AQSH). Evropa birinchi biznes-maktablar 1967 yili Buyuk Britaniyada London va Manchestr shaharlarida ochildi. Keyinchalik g'arbiy evropaning boshqa mamlakatlarida ham bunday o'quv dargohlari ochildi. So'nggi yillarda Osiyo mamlakatlarida biznes ta'limning jadal rivojlanishi kuzatilmoqda. "Businessweek" jurnali 2001 yilgi reytingida Xitoy Gonkong universiteti biznes-maktabi dunyoning 35 ta eng yaxshi biznes-maktablari orasidan joy egalladi. SHunday bo'lsada, biznes –maktablar orasida MVA dasturi bo'yicha hamon etakchilikni Aqsh biznes-maktablari qo'ldan bermay kelmoqdalar. Undan keyingi o'rinda G'arbiy Evropa bormoqda. AQSHda MVA dasturi akkredastiyasi bilan AACSB(American Assambly of collegiate Schoolsof Business - Amerika universitetlari biznes- maktablari assambleyasi) shug'ullanadi. G'arbiy Evropada EFMD(European Foundation for Manegamant Development- Evropa menejment taraqqiyoti fondi) shug'ullanadi, shuningdek asosan Markaziy Evropa va SHarqiy Evropada faoliyat olib boradigan CEEMAN (Central and East European Manegamant Development Association- Markaziy va SHarqiy Evropa menejmenti taraqqiyoti assostiastiyasi).Rossiyada ilk ikki biznes-maktabi 1988yilda tashkil topgan. Biri tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi qoshida ; ikkinchisi Xalq xo'jaligi akademiyasi qoshida. Xozirgi paytda Rossiyada 160 dan ortiq biznes maktablar faoliyat olib bormoqda. Biznes maktablari o'z assostiastisiga ega-RABO(Rossiyskaya assostiastiya biznes-obrazovaniya- biznes-ta'limi assostiastiyasi). Biznes-maktabda ta'lim asosan biznes va uni boshqarish amaliyotga tayanganligi bois, bu erda qqishni istovchi talaba biznes sohasida ozmi-ko'pmi bilim va ko'nikmaga ega bo'lishi talab etiladi. Rivojlangan mamlakatlarda biznes maktablar shu sohada o'qishni istovchi talabadan biznes va uni boshqarish sohasida ikki, ba'zilar hatto uch yillik mehnat staji bo'lishini talab qiladilar, to'g'ri, hamma ham rahbarlik qilmagan bo'lishi mumkin, ammo loaqal buxgalteriya hisobi sohasida bo'lsa ham amaliy faoliyat yuritgan bo'lishi shart. Bugungi kunda biznes-maktablari tinglovchilarining asosiy kontingentini yoshi katta biznes sohasida ma'lum amaliyotga ega bo'lgan

kishilar tashkil etadi, ular asosan malakalarini oshirish uchun o'qiydilar. Ularning umumiy yoshi 25-45 ni tashkil etadi, ko'pchiligi 30-35 yoshli kishilar. CHet ellardagi biznes-maktablar tinglovchilarining yoshlari esa birmuncha yoshroq. Ularning o'rtacha yoshi 25-30 yoshni tashkil qiladi. Amerika yoki britaniya biznes maktablariga o'qishga kirish uchun GMAT (Graduate Menegement Admissbion Test- umumta'lim testi: biznes va uni boshqarishda zarur bo'lgan matematik, verbal va analitik qobiliyatlarni sinovdan o'tkazadigan test) topshiradilar. CHet ellardan kelgan abuturientlar TOEFL(Test of Enlish as a Foreign Language- chet tili sifatida ingliz tili)-dan bo'ladigan sinovdan muvoffaqiyatli o'tib olishlari talab etiladi, yoki shunga teng keladigan imtihon topshirishlari kerak bo'ladi. Taraqqiy topgan boshqa Evropa va Osiyo davlatlari biznes maktablari ham abuturientlarni shunga o'xshash test sinovlaridan o'tkazib qabul qiladilar. YAna bir muhim talab: abuturientlar ish beruvchi tomonidan berilgan tavsiya xati (tavsiyanoma) ham taqdim etishlari kerak. Abuturienlarni quvontiradigan jihat shundan iboratki, biznes maktabga har qanday darajadagi ma'lumot bilan kirish mumkin, siz musiqachimisiz, injener, tabiatshunos yoki xarbiymisiz farqi yo'q. Biznes-maktablardagi eng keng tarqalgan o'quv dasturi bu-MVA (Ishbilarmonlik va uni boshqarish sohasi magistri) dasturi hisoblanadi. Uning doirasida o'rganiladigan ma'lum sohalar majburiy sanalib. Ba'zi sohalar tinglovchilari tomonidan tanlanishi mumkin. Majburiy o'rgatiladigan fanlarga: iqtisod, korporativ moliya, moliyaviy buhgalteriya hisobi, menejerlik buxgalteriya hisobi, strategik menejment, operativ menejment, tashkilotchilik axloqi va loyihalash, insoniy resurslarni boshqarish, menejment va faoliyat (kar'era)ni rivojlanish, xalqaro biznes kiradi. Majburiy bo'lmagan fanlarga ko'proq biznesning ba'zi jihatlarini chuqurroq o'rganiladigan predmetlar, unga yaqin jihatlar, menjmet kiradi. Majburiy predmetlarga nisbatan tinglovchilar uchun taklif qilinadigan, ular ixtiyoriy ravishda tanlashlari mumkin bo'lgan, elektiv predmetlar ko'proq. Ana shu elektiv kurslari hisobiga biznes-maktablar biznesning menejmenti olami o'zgarishlari talablariga tez moslashib bormoqda. SHunday qilib so'nggi paytlarda elektiv predmetlar qatoriga internet orqali amalga oshiriladigan, elektron biznes bilan bog'liq kurslar ham qo'shilmoqda. Chet el biznes-maktablarining MBA dasturiga uch oylik, ko'pincha chet mamlakatlarning biznes maktablari bilan kelishilgan holda chet el katta kompaniyalarida o'taladigan uch oylik stajyorlik ham kiritilgan va boshqa mamlakat biznes-maktabi bilan talabalar almashinib o'qitilishi yo'lga qo'yilgan. Rossiya biznes-maktablari nomenklatura bo'yicha MVA dasturi asosida o'qitishda chet el maktablaridan qolishmaydi. Ammo mamlakatdagi ko'pgina biznes-maktablarda taklif qilinayotgan elektiv kurslar sezilarli darajada oz. Umuman MVA dasturi bo'yicha Rossiyadagi o'quv kurslarining davomiyligi hamda taklif qilinayotgan o'quv shakli va tiplari boshqa davlatlardagi kurslar bilan mos keladi. Ikki yilni, ba'zan bir yarim yilni tashkil etadigan kunduzgi (full-time), ikki yarimdan uch yilgacha davom etadigan kechg (part-tame) o'quv shakllari amal qiladi. Bundan tashqari top menejerlar uchun mo'ljallangan

executive-MBA dasturi ham mavjud bo'lib, u ham ikki yarim-besh yilga mqljallangan, ulardan bir nechalari mazmun mohiyatiga ko'ra ham, o'zlashtirish davomiyligiga ko'ra ham ie modul' prinstipi asosiga qurilgan. Rossiya va chet el biznes- maktablari MVA dasturi bilan bir qatorda pre-MBA deb nomlangan asosan ta'lim jarayonida sezilarli darajada tanafus bo'lgan kishilar uchun tayyorlov harakteridagi o'quv dasturini ham taklif qilmoqdalar. Rossiya va bir qator chet el maktablarida masofaviy o'qish dasturi ham yo'lga qo'yilgan. Rossiyada ham boshqa chet el mamlakatlarida ham internet orqali biznes-ta'limni amalga oshiriladigan ilk uchuvchi dasturlar vujudga kelmoqda. MVA o'quv dasturi uchun Rossiya Federatsiyasi ta'lim vazirligi tasdiqlagan vaqt 1200 akademik soatni tashkil etadi. Lekin shuni ham ta'kidlab qtish kerakki, Rossiya biznes-maktablardagi auditoriya mashg'ulotlarining asosini o'qituvchilar tomonidan o'qiladigan lekstiyalar tashkil etsa, boshqa chet el biznes-maktablarida lekstiyalarga ko'p vaqt ajratilmaydi, asosiy e'tibor suhbatlar (diskussiyalar)ga qaratiladi, bunda o'qituvchi mashg'ulotning ko'proq vaqtini audentlar o'rtasida fikr almashishga ajratadi va kamdan kam hollarda xulosa yasab darsni yakunlaydi. Auditoriyadan tashqaridagi induvidual va guruh mashg'ulotlari uchun berilgan vaqt bu asosan turli loyihalar va ularning himoyasi uchun ajratiladi. Studenlarni menejer hayotining jadal sur'atiga tayyorlaydigan chet el biznes-maktablarida dars yuklamalari juda yuqori. SHuning uchun axborot izlash uchun qilinadigan sa'y-harakatlar mustaqil amalga oshiriladi. O'qishi kunduzgi ta'lim shaklda bo'lgan studentlar ochiq komp'yuter xonalarida kechki soat 10-11largacha shug'ullanadilar. Biznes-maktablar ta'lim mazmuni ular yo'nalishiga qarab menejment sohasida ma'lum bir korxona faoliyatidan olingan aniq misol asosidagi materialni o'rganishga qaratiladi va ma'lum hayotiy tajriba- ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan bo'ladi. Case-studi (keys-studi-hodisalarni o'rganish)-bu o'rganishning ham mazmuni, ham shaklidir. Case-studi aniq yozilgan lekin yakunlanmagan stenariyga asoslanib, bir bosqichli, yoki ko'p bosqichli bo'lishi mumkin. Lekin bu aksar hollarda ma'lum korxona faoliyatini o'rganib chiqqan o'qituvchining ko'p kunlik mehnati samarasi bo'lib chiqadi.

Mavzuni o'zlashtirishni ta'minlashga oid savollar:

- Biznes maktablari qo'shimcha kasbiy ta'lim sifatida qanday izohlaysiz?
- Biznes-maktab bu katta yoshdagilar ta'lim olishi uchun yangi tashkiliy shakl ekanligini isbotlang?
- Biznes –maktablar AQSHda XIX asr oxirlarida qanday paydo bo'lgan?
- MVA (Master of bisness Administration -Biznesni boshqarish ustalari) dasturi bilasizmi?
- Evropa birinchi biznes- maktablari abuturientlarni test orqali qachondan boshlab qabul qila boshlagan?

Mavzuni o'rganish bo'yicha foydalanilishi mumkin bo'lgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Zmeev S. I. Andragogika: Stanovlenie i puti razvitiya // Pedagogika. — 1995.-№2.

2.Zmeev SI. Texnologiya obucheniya vzroslox. — M., 2002.

1.10. MUSTAQIL O'ZBEKISTON SHAROITIDA ANDROGOGIKADA OILAVIY TA'LIM.

- Mustaqil O'zbekiston sharoitida andragogikada oilaviy ta'lim.
- Oila bilan ishlayotgan andragog, oilaning qaysi a'zosi bilan ish olib borishini rejalashtirib borishi .
- Tajribali andragog oilada kelib chiqqan muammoning manbasini topishi va muammo(sog'liq tomonidan, iktisodiy, psixologik)
- Oila a'zolari bilan ishlashda andragog konfedensiallikka juda katta e'tibor berishi.
- Mijozning sirini saqlash, kerakli ma'lumotlarni qaysi oila a'zosidan so'rash, ma'lumot olishda kitoblardan, testlardan foydalanishi muximligi

Tayanch iboralar va atamalar: me'yoriy xujjatlari, konstepstiyalar, davlat talablari, ta'lim va tarbiya dasturlari, tarbiyaviy ishlar, oila, maktab, jamoatchilik, hamkor, konstepstiya, kompleks dasturi, amaliyot.

O'zbekistonda «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilingandan buyon mamlakatimiz ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlar amalga oshirildi. Ahamiyatli jihati shundaki, bu o'zgarish ham mazmun, ham mohiyat, ham shakl, ham yondashuv nuqtai nazaridan kuzatildi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni ro'yobga chiqarish bosqichining ijrosi sifatida qaralishi lozim bo'lgan akademik listey va kasb-hunar kollejlari zamonaviy binolar, o'quv va laboratoriya jihozlari bilan ta'minlanishi, Prezidentimizning «2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi» haqidagi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur farmonni ijrosini ta'minlashga yo'naltirilgan qarori, harakat dasturlari mamlakatimiz umumiy o'rta ta'lim maktablari hayotida yangi davrni boshlab berdi. Biroq uning nechog'lik samarali kechishi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash sifatiga ham bog'liq. SHu ma'noda bolalarni maktabgacha

ta'lim yoshidagi tarbiyaviy masalalariga mamalakat miqyosida o'tkazilayotgan ta'limiy islohotlarning tarkibiy qismi sifatida qaralmog'i lozim.

Bu masalani uch yo'nalishda o'rganish maqsadga muvofiq: oila xususida mamlakatimiz hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan tadbirlar; oila masalasining u yoki bu jihatini jahon pedagogika fanidagi tadqiqi hamda uning jahon taraqqiyotining ijtimoiy holatiga (ehtiyojiga) nechog'lik muvofiqligi. Bu tizimda O'zbekistondagi mavjud xolat, ahvolning tahlili; mamlakatimizda bolalarni tarbiyalash, shu jumladan ularda muayyan ilmiy dunyoqarash elementlarini ijtimoiy o'rganish va pedagogik tahlil etish.

Birinchi yo'nalishning tahlili shuni ko'rsatadiki, Respublikamizda jamiyatning tayanch nuqtasi, uning mustaqilligi, ma'naviyatini ta'minlovchi ijtimoiy instituti sifatida doim diqqat markazida bo'lib kelgan. Xususan, Respublikamizda oila munosabatlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIV bobi (63, 64, 65, 66-moddalar) da belgilab qo'yilgan. Shuningdek, Respublikamizda «Oila» kodeksi mavjud. Mamlakatimizda «Oila» ilmiy-amaliy markazi tashkil etilgan bo'lib, unda «oila va jamiyat, oila va mahalla munosabatlari bilan bog'liq boy milliy an'analar, sarmazmun milliy qadriyatlarning ildizlarini, ajdodlarimiz merosini o'rganish va ommalashtirish; ... oilaning pedagogik, psixologik, etnopsixologik, etnopedagogik, muammolarini o'rganish va rivojlanish istiqbollari bo'yicha taklif va tavsiyalar tayyorlash;... yosh avlodda ma'naviyat, madaniyat, ma'rifatni yanada yuksaltirish orqali oilada barkamol avlodni tarbiyalashning eng samarali, maqbul usullarini izlash va ishlab chiqish» bo'yicha ijtimoiy pedagogik muammolarning echimiga oid amaliy tadbirlar va ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Ikkinchi yo'nalishda olib borilgan ishlarni ularning mazmuni va mohiyatiga ko'ra uch guruhga ajratgan holda tahlil etish maqsadga muvofiq.

Birinchi guruhga maktabgacha ta'limning me'yoriy hujjatlari (konstepstiyalar, davlat talablari, ta'lim va tarbiya dasturlari) mansub bo'lib, bu borada respublikamizda muayyan ishlar amalga oshirilgan. CHunonchi, maktabgacha ta'limning davlat talablari ishlab chiqilib, ular Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan holda amaliyotga joriy etilgan, tarbiyaviy ishlarda oila, maktab va jamoatchilik hamkorligi konstepstiyasi yaratilgan. «Uchinchi ming yillikning bolasi» kompleks dasturi ishlab chiqilib amaliyotga tatbiq etilgan.

Ikkinchi guruhga bolalarni oilada tarbiyalash muammosining hal etilishi masalasini kiritish mumkin. Bu borada ham respublikamizda muayyan ishlar amalga oshirilgan. Xususan, A.Munavvarov, M.Inamovalarning doktorlik dissertastiyalari to'laligicha oila pedagogikasi, oilada ma'naviy-axloqiy tarbiyaga bag'ishlangan bo'lsa, professor N.Ortiqovning doktorlik dissertastiyasining bir qismi oila, maktab va mahalla hamkorligi asosida o'quvchi shaxsini axloqiy shakllantirish masalasiga qaratilgan.

Uchinchi guruhda oilaviy tarbiyaning turli muammolariga bag'ishlangan nazariy-metodik xarakterdagi ishlanmalarning mazmuni, mohiyati, ko'lam va hokazo ko'rsatkichlariga binoan tahlil nuqtai nazaridan tadqiq etish maqsadga

muvofiqdir Tadqiqotlar shuni kqrsatadiki, sog'lom turmush tarzi, xuquqiy bilimdonlik, o'zining va oila qadr-qimmatini saqlash, oilaviy mulkni bo'lishdagi, bola tarbiyasidagi oila byudjetidagi muammolar ko'p oilalar uchun yangilik emas.

Oilada nikoxdan o'tish, ajralish, farzand tug'ilishi, bog'chaga, maktabga, institutga, armiyaga borishi, uylanishi, turmushga chiqishi, yangi ishga o'tishi, ishdan bo'shashi, boshqa joyga ko'chib o'tishi, qattiq tortishib qolish, xiyonat, vafoti bular oilada o'zaro tushunmovchilik, krizis xolatlarini keltirib chiqishi mumkin.

Keyingi un yillikda mamlakatimizda oilaviy bilim va o'qitishni rivojlantirish uchun bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Oilalarga yordam berish uchun turli xil institutlar, tashkilotlar tashkil etilmoqda. Oilaviy konsultastiyalar, tanishuv klublari, pedagogik, psixologik kabinetlar, yarashtiruv komissiyalari, shular jumlasidandir.

Oilalarga yordam beruvchi har kanday tashkilot andragogik vazifani bajaradi.

Oilada vujudga kelgan xar xil kelishmovchilik, nizolarni xal qilishda pedagoglar, psixologlar, jamoat tashkilotlari yordam beradi.

Oilalarda tug'ilgan qiyinchiliklar, ularni oilada muxokama qilish, vaziyatdan chiqish, sog'lom turmush tarzini yaratishga mutaxassis o'z maslahatlari bilan yordam beradi.

Oila bilan ishlayotgan andragog, oilaning qaysi a'zosi bilan ish olib borishini rejalashtirib borishi kerak.

Tajribali andragog o'z mijozi muammolariga xurmat bilan qaraydi. Mijozning andragog xurmatiga murojaat etishga o'zida kuch topganligini o'ziyoq uning xurmatga loyiq insonligidan darak beradi.

O'z xayot tajribasini mijozga to'g'ridan-to'g'ri singdirish xam andragog mutaxassisga to'g'ri kelmaydi.

Tajribali andragog oilada kelib chiqqan muammoning manbaasini topishga xarakat qiladi. U muammo sog'liq tomonidan, iqtisodiy, psixologik bo'lishi mumkin.

Oila a'zolari bilan ishlashda andragog konfedenstiallikka juda katta e'tibor berishi kerak. Mijozning sirini saqlash, kerakli ma'lumotlarni qaysi oila a'zosidan so'rash, ma'lumot olishda kitoblardan, testlardan foydalanish juda muxim.

Keyingi paytda oilalarga zarur pedagogik, psixologik adabiyotlar, teleko'rsatuvlar bir muncha ko'paydi. Insonlar ko'chada, ishxonada bir birlari bilan kam muloqot qilishlari, ishdan so'ng oila byudjeti uchun qo'shimcha ishlar qilish, insonlarda stress to'planishiga sabab bo'lmoqda. Bu salbiy xolat. Xozirda ijtimoiy-psixologik yordam markazlari ochilib, oilalarga yordam bermokda.

Oilada vujudga keladigan muammolarni yaxshilik bilan xal qilish, o'z turmush o'rtog'ida yangi va yaxshi sifatlarni kashf etish, turmushdan zavqlanish kabilarga oila maktablari yordam bermokdalar.

Mavzuni o'zlashtirishni ta'minlashga oid savollar:

- Mustaqil O'zbekiston sharoitida andragogikada oilaviy ta'limni ekanligiga misollar ayting?
- Oila bilan ishlayotgan andragogning vazifalarini sanang?
- Tajribali andragogning xususiyatlarini qanday?
- Oila a'zolari bilan ishlashda andragog nimaga katta e'tibor berishi kerak?

Andragog mijozning sirini saqlash, kerakli ma'lumotlarni qaysi oila a'zosidan so'rash, ma'lumot olishda nimalarga e'tibor berish kerak?

Mavzuni o'rganish bo'yicha foydalanilishi mumkin bo'lgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Zmeev S. I. Andragogika: Stanovlenie i puti razvitiya // Pedagogika. — 1995.-№2.

2.Zmeev SI. Texnologiya obucheniya vzroslox. — M., 2002.

**1.11. KATTALARNING O'QISHGA MUNOSABATI.
KATTALAR VA KITOB O'QISH.**

- YOshi katta kitobxon sifatida
- Insonning bilimli va madaniyatli bo'lishida, o'zligini tanishida kitobning o'rni .
- Insonni shakllanishida, unda kitobga, adabiyotga mexr uyg'otish andragogikaning uzviy qismi ekanligi
- Sayoxatlar - inson bilimini oshirish manbai
- Muzey - insonlarni madaniyat va ma'rifatga etaklovchi joy(muzey filsoflar, shoir-yozuvchilar, olimlarning sevimli joyi)

Tayanch iboralar va atamalar: sostialoglar, o'qituvchi, kutubxonachi, psixologlar, «Turist», o'quv stajirovkasi, tajriba almashish,ish o'rganish, shaxar,davlatlar,tabiat maskanlari, sayoxatlar, shaxri, yurti madaniyati, tarixi, san'ati, bilim doirasi, muzey , madaniyat,ma'rifat, filsoflar, shoir-yozuvchilar, olimlar, aslzodalar, bilimli, madaniyatli,o'zligini tanish.

Keyingi paytda komp'yuter texnologiyalari rivojlanishi bilan kitob o'qishga e'tibor susaymoqda deb bong urishmoqda. Lekin sostialoglar, o'qituvchi va kutubxonachilar buning aksini aytishmoqda. Kitob o'qiydiganlar soni kamayish o'rniga ortib bormoqda.

Inson bilim va madaniyatini oshirishda turizm aloxida o'rin tutadi.

XVIII asr oxirlarida Angliyada o'qiyotgan boy oila farzandlari o'qishlari yakunida 2-3 yilga Evropa bo'ylab safarga chiqishgan. Bu turistik turlar olingan bilimlarini mustaxkamlash, bilimni yanada oshirish uchun xizmat qilgan.

«Turist» - fransuz tilida «qiziqishdan yoki bekorchilikdan sayoxat qilib yurgan inson» ma'nosini bildiradi.

Rossiyada Pyotr I davrida dvoryanlarni Evropaga bilim olishga jo'natgan. Xozirgi paytda turizm orqali o'z bilimini oshirish oddiy xol bo'lib qoldi. Bugun dunyoda turistik tashkilotlar, birlashmalar faoliyat ko'rsatmaydigan davlat yo'q xisobi.

Turistik sayoxatlar orqali:

- chet tilini o'rganish;
- ilmiy va o'quv stajirovkalarga borish;
- tajriba almashish va ish o'rganish uchun borish;
- turli konferenstiyalarga borish;

Turli shaxar va davlatlarga, tabiat maskanlariga borish mumkin.

Bu sayoxatlar orkali inson o'z bilimini oshiradi. Inson borgan shaxri, yurti madaniyati, tarixi, san'ati bilan tanishib o'z bilim doirasini kengaytiradi.

Qadimdan muzey insonlarni madaniyat va ma'rifatga etaklovchi joy xisoblangan.

Muzey filosoflar, shoir-yozuvchilar, olimlarning sevimli joyi xisoblangan. Qadimda muzey aslzodalar to'planadigan joy xisoblansa, XX asrdan xamma uchun sevimli joyga aylandi.

Muzeyga kirgan odam, o'z bilimi, ma'naviyatini oshirib, o'tmishiga sayoxat qiladi. Bunda unga muzey xodimlari, shu o'rinda ularni andragoglar deyish mumkin. Muzey xodimi ekskursavod tashrif buyuruvchiga muzey haqida umumiy ma'lumot, eksponatlar xaqida tushunchalar beradi. Xozirda muzeyga keluvchilarning 70 % ayollar, ularning yarmi oliy ma'lumotli, ko'pchilik farzandlari uchun kelishadi.

Muzeyga tashrif buyurgan odam eksponatlar bilan o'zicha suhbatga kirishib, ular davriga sayoxat qiladi.

Muzeyda insonlar bilimini oshirish, andragogik faoliyatga juda yaqin.

Andragog so'zini juda ko'p ma'noli so'z desak bo'ladi.

1. Monitor - kuzatuvchi.
2. T'yutor - ximoyachi, karab turuvchi, xomiy.
3. Trener - instruktor.

Andragog o'z sohasida o'quvchidan bir necha bor ustun bo'lmog'i kerak.

Andragog translyator bo'lishi xam mumkin.

Oddiy omma uchun qiyin bo'lgan ma'lumotlarni xamma tushunadigan qilib tushuntira olishi kerak.

Andragog o'z ishini professional tashkil etganligini quyidagilar belgilaydi:

1. Tinglovchi va o'quvchilarning o'qituvchiga samimiy munosabati va ishonchi.
2. Ish yoki tinglashga borligi bilan jalb bo'lishi.

3. Bilim olishga butun kurs davomida chanqoqligi.
 4. Tinglovchilar o'rtasida samimiy va o'zaro xurmat.
 5. Bir-birlaridan yoki o'qituvchidan samimiy yordam so'rash yoki berish.
 6. Biror bir o'quvchida o'qish davrida vujudga kelgan muammoni xal qilishda baxamjixatlik.
 7. O'z muammoingni mashg'ulot paytida qo'rqmay o'rtaga tashlash.
 8. O'z pozistiyangda mustaxkam turish.
 9. Andargogning bilim va qiziqishiga xurmat bilan qarash.
 10. Tinglovchilarning kurs yakunida kursdan to'la qoniqlashlari.
- Xozirgi kunda andragog kim degan savolga keng miqyosda javob berilmoqda. Malaka oshirish institutlari o'qituvchilari, kechki maktablar, turli kurslar bunga misol bo'ladi.

Oilasida, ish joyida turli turli muammolarga duch kelgan, o'z qobig'iga o'ralib qolgan, xayotda o'z «men»ini topa olmayotgan insonlar andragog yordamiga muxtojdir.

Mavzuni o'zlashtirishni ta'minlashga oid savollar:

- YOshi katta kitobxon sifatida qanday qaraysiz?
- Insonning bilimli va madaniyatli bo'lishida, o'zligini tanishida kitobning o'rni qanday?
- Insonni shakllanishida, o'zligini topishida, unda kitobga, adabiyotga mexr uyg'otish andragogikaning uzviy qismi ekanligini isbotlang?
- Inson sayoxatlar orqali o'z bilimini oshirish manbaini sanab bering?
- Muzey - insonlarni madaniyat va ma'rifatga etaklovchi joy ekanligiga misollar keltiring?

Mavzuni o'rganish bo'yicha foydalanilishi mumkin bo'lgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zmeev S. I. Andragogika: Stanovlenie i puti razvitiya // Pedagogika. — 1995.-№2.
2. Zmeev SI. Texnologiya obucheniya vzroslyx. — M., 2002.

IKKINCHI BO'LIM

KATTALAR TA'LIMI AMALIYOTI.

2.1. Seminar tarzidagi mashg'ulotlarning o'ziga xos xususiyatlari

“Kattalarni o'zaro muloqotlari”

Seminar tarzidagi mashg'ulotlarni olib borish uchun guruhning barcha ishtirokchilari yig'ilganda va ular bir-birini birinchi marta ko'rayotganlarida mavzu yoki o'quv materialini ustida ishlashdan avval o'zaro muloqot o'rnatishga yordam beradigan usullarni qo'llash foydalidir. Xatto seminar ishtirokchilari bir-birlari bilan tanish bo'lsalar ham, har doim inson goxida yangi va qiziqarli narsalarni bilib olish mumkin. Bu bosqichda biz xotirjam va erkin vaziyatda seminar ishtirokchilarini ochiqlikka, ijodkorlikka yunaltirishga, har kimga so'zlash imkoniyatini berishga harakat qilish seminar mashg'ulotlarining samaradorligini oshiradi. Bu esa keyinchalik guruhning barcha a'zolarini o'quv jarayonida faol ishtirok etishlarini ta'minlaydigan omil hisoblanadi. Ishtirokchilarning bir-birlari bilan tanishishlari uchun turli o'yinlar variantlari mavjud. Taklif etilayotgan usullardan bir-biridan aloxida shu xil seminarlarda, shuningdek bir nechtasini bitta seminarida ham qo'llash mumkin.

Seminarining birinchi mashg'ulotida ishtirokchilar o'zaro odatiy salomlashish bilangina tanishadilar. SHu bois kattalarni o'zaro muloqotlarini faolroq tarzda o'tkazish maqsadida :

- avval siz o'zingiz xaqingizda aytsa bo'ladi, deb hisoblaydiganlaringizni so'zlab bering;
- sherigingiz to'g'risida nimalarni bizga aytib beraolasiz, unga savollar berib, munosabatga kirishasiz?

O'qituvchi shu bilan birga mashg'ulotda ishtirok etayotganlar bilan yaqinroq muloqotni hosil qiladi. Dastlab o'qituvchi seminar ishtirokchilari orasidan bir kishini tanlab:

Siz o'z xaqingizda so'zlab bering deb murojat qiladi. Bu davra bo'ylab o'zini tanishtirish, uni qiziqarliroq o'tkazish uchun har bir ishtirokchiga o'zini tanishtirganidan keyin unga kutilmagan savol beriladi, masalan: "Nima uchun sizga shunday ism berilgan?" yoki "Sizning o'tgan yildagi eng katta yutug'ingiz nimadan iborat bo'ldi?" yoki "Teatr yoki kinoda qanday rolni uynashni hoxlaysiz?" Odatda, bunday savollar ishtirokchilarning bir-biriga nisbatan qiziqish uyg'otadi va "dilidagilarni ochishga yordam beradi, Eng muhimi - so'zlovchiga xalaqit bermaslik, diqqat – e'tibor bilan tinglash lozim, chunki

ko'pchilik ishtirokchilar guruh oldida birinchi marta so'zga kirishdilar. Guruh ishtirokchilari bilan tanishuv tugaganidan keyin, darsdagi faollikni ta'minlash maqsadida endi ikkinchi bosqichga o'tiladi. Bunda ishtirokchilar xaqida ko'proq ma'lumotlar olish o'zaro muloqotni engillashtiradi. SHuningdek ishtirokchilarni mashg'ulotga bo'lgan e'tiborini kuchayishini ta'minlaydi.

SHerigingiz xaqida so'zlab bering

Boshqalar haqida so'zlash doim osonroq, shuning uchun ishtirokchilardan sherigi haqida ismi, kasbi, eng katta so'nggi yutug'i, eng katta so'nggi mag'lubiyati, o'zi bilan umumiy tomonlari haqida so'zlab berish so'raladi (tanishtiruv qisqa bo'ladi). Bunda vaqtni qat'iy belgilash zarur, masalan, tanishuvga – 5 soniya, tanishtirishga - 30 soniya. Bu mashg'ulotga qo'shimcha qiziqtirish tug'diradi.

Agar vaqtingiz juda ham chegaralangan bo'lmasa, tanishuvning boshqa, kengaytirilgan usullarini qo'llash mumkin. Bunda ishtirokchilar 4-6 kishidan iborat kichik guruhlariga bo'linadi va har bir guruhga, masalan, barchaga xos 5ta umumiy va 3ta farqda belgilarni topish vazifasi beriladi. Keyin guruhlar avval a'zolar ismlarini, keyin natijani aytadilar. Bunda ham vaqtni kat'iy belgilash zarur.

Tasavvurlar

Tasavvur qilish usulini qo'llash ishtirokchilar ismini tez va oson eslab qolishga yordam beradi. Davradagi birinchi ishtirokchi ismini shu harfdan boshlanuvchi sifat bilan qo'shib aytadi (masalan, "farosatli Farada", "aziz Adolat", "taraqqiyparvar Tolibjon" va h.z.). Odatda, sifat qanchalik oddiy yoki kutilmagan bo'lsa, shunchalik oson eslab qolinadi. Ikkinchi ishtirokchi birinchisining so'zlarini takrorlaydi va o'zini tanishtiradi, uchinchi ishtirokchi esa birinchi, ikkinchi ishtirokchilarning sifat qo'shilgan ismlarini qaytarib, keyin o'z ismini xuddi shu tartibda aytadi va shu tarzda davom etadi. Tanishuv tugaganidan keyin eng mushkul vazifa moderatorning gardaniga tushadi, chunki u hamma ishtirokchilarning ismi va sifatlarni sanab chiqadi, so'ng o'zinikini qo'shadi. Bu qiyin vazifa biroq xavotirga o'rin yo'q – guruh a'zolari albatta sizga yordam beradi.

Ishtirokchilarni darxol ijodiy muxitga kiritib qo'yadigan usullardan biri - portret chizish usulidir. Lekin u ham ko'p vaqt oladi. Bunda qatnashchilar juftliklarga bo'linadilar va oq qog'oz olib, 10 soniya ichida qog'ozga qaramasdan, sheriklarining ko'ziga qarab, uning rasmini chizishlari kerak. Moderatorning taklifi bilan ular chizishni to'xtatadilar, rasmga o'z ismlarini yozib, sheriklariga o'zlarini tanishtiradilar va portretlar bilan almashadilar. Keyin yana boshqa juftliklarga bo'linib, xuddi shu ishni takrorlaydilar. Berilgan vaqtga qarab mashqni 5-10 marta qaytarish mumkin. SHunday qilib, mashq yakunida har bir ishtirokchi 5-10 ta shaxsiy portretga ega bo'ladi. Keyin har bir ishtirokchi induvidualligini aks ettirgan 1-2 portret tanlaydi, nima uchun aynan uni tanlaganini tushuntiradi. Rasmlar deyarli qaramasdan chizilgani uchun juda kulgili, "xususiylikni aks ettirish esa ramziy bo'ladi.

“Mening tamg’am”

Bu oddiy tanishuv emas, o’zining va sherigining shaxsini anglashlidir. Bunga ko’proq vaqt kerak bo’ladi. Har bir ishtirokchi qog’ozga qalqoni konturini



chizadi, odatda, unda tamg’a aks ettiriladi (rasmga qarang). Berilgan vaqtga qarab, vazifa oddiyroq yoki murakkabroq bo’lishi mumkin. Rasmda murakkab variant keltirilgan, uning 1-2 ta elementini qo’llash mumkin. Bu ishni bajarish oson bo’lmasada, javob so’z bilan emas, rasmlar ko’rinishida ifoda etilgani ma’qul. Keyin ishtirokchilar tamg’alar bilan almashadilar va qo’llaridagi tamg’a belgilariga izoh berib, tamg’a egasini guruhga tanishtiradilar. Tamg’a egasi uni qanchalik to’g’ri tushunishganini sharxlashi mumkin.

Bu katta mashq bo’lib, seminarni boshlab beradigan va yakunlaydigan bosqichlarni egallashi mumkin. Seminar boshlanishidan avval stollar o’rtaga qo’yiladi va ularning ustiga 4-5 metrli katta qog’oz yoziladi. Vatman qog’ozlarni elimlash yoki oboydan foydalanish mumkin.

4-5 ta moy bo’yoq va 4-5 ta stakanda suv qo’yilab, har bir ishtirokchiga mo’y qalam beriladi. Ishtirokchilar shu qog’ozning hamma joyiga o’zlarini tasvirlaydigan rasmlar chizadilar. Har bir ishtirokchi bittadan rasm chizgach, soat strelkasi bo’yicha bir qadam tashlab, yana boshqa rasm chizadi. Bunda boshqalarning rasmini oxirigacha etkazish yoki uning ustiga chizib ketishdan xavotirlanmaslik kerak. Mashq oxirida butun qog’oz ajoyib tasvirlar bilan to’ladi. Uni chetga olib qo’yib, seminar ishi davom ettiriladi.

Seminar yakunida bo’yoqlari qurigan "kartina" o’rtaga olib chiqiladi. Ishtirokchilar A-4 qog’ozdan ramkalar yasaydilar. Har bir ishtirokchi o’ziga yoqqan rasmni tanlab, uning ustiga ramkani qo’yadi va ramkaning chegarasini qalam bilan belgilaydi, so’ng u shou fragmentga o’z ismini yozib qo’yadi. Odatda, bunday katta kartinadagi fragmentlar (bo’laklar) soni hammaga etarli bo’ladi. Keyin tanlangan rasm bo’lagi kesilib, A-4 formatdagi qog’ozga yopishtiriladi. Qog’oz oq emas, kul rang, marmarsimon bo’lsa yahshiroq, shunda haqiqiy pasport (fotosurat yoki gravyura o’rnatib qo’yiladigan karton ramka yoki qalin qog’oz)ga o’xshaydi. Xosil bo’lgan suratlar rang-barangligi bilan kishini lol qoldiradi va birgalikda samarali ishlash mumkinligini yaqqol namoyish qiladi. Suratlar ma’noga ega bo’lishi uchun ishtirokchi uning orqasiga seminar yakuni buyicha nimalar qilmoqchiligini yozishi mumkin. SHunda surat seminardan estalik sovg’asi bo’lib qaralmay, shaxsiy harakatlar rejasiga aylanadi.

“Mening sirim bor”

Seminar boshlanishida ishtirokchilarning bir-birlari bilan tanishishlari muhimligini ayting. Har bir ishtirokchi o'zini tanishtirishdan avval o'ng tomonidagi insonni tanishtirishini ma'lum qiling. Insonni va u vakil bo'lib kelgan tashkilotni bilib olish uchun bir daqiqa vaqt ajratiladi. Keyin har bir ishtirokchi o'zi haqida dunyoda hech kim bilmaydigan “sir”ni oshkor qiladi.

Jarayon tanishtirishdan boshlanadi. Hamma narsa erkin va oson borishini ta'minlashga harakat qilinadi. Agar ishtirokchilar davra bo'lib o'tirishgan bo'lsa, ishtirokchilarning istalganidan boshlash mumkin. Aks xolda, hammaning qarshisida o'tirgan ishtirokchidan boshlagan maqul.

Ishtirokchilar davra bo'lib turadilar. Ishtirokchilardan biri davra o'rtasiga chiqib, ismini aytadi va o'ziga xos yoki biror o'ylab topilgan harakat yoxud imo-ishorani ko'rsatib, yana joyiga qaytadi. Hamma ishtirokchilar uning harakati, so'zlash, oxangi imo-ishorasini iloji boricha aynan takrorlaydilar. SHunday qilib, har bir ishtirokchi o'z ismini aytadi va o'z harakati yoki imo-ishorasini ko'rsatadi.

Mening ismimni ayt o'yini (1) barcha ishtirokchilar davra bo'lib stullarda o'tiradilar. Ishtirokchilardan biri turib, boshqa birorta ishtirokchining yoniga keladi va uning ismini aytadi. Agar u to'g'ri aytgan bo'lsa, ikkinchi ishtirokchining o'rniga o'tiradi, agar to'g'ri topmagan bo'lsa, yana boshqa ishtirokchining ismini aytishga harakat qiladi. O'yin davomida hamma 5 harfni almashtirishi lozim.

Mening ismimni ayt o'yini (2) o'yin shartlari birinchisiga o'xshaydi. Bir jihutigina farq qiladi: boshlovchi yonida o'tirgan kishining ismini emas, istalgan ishtirokchining ismini aytadi. O'yin buyicha sherigi esa ismi aytilgan kishining yoniga kelib, keyingi ismni aytadi. O'yin hamma ishtirokchilar o'rin almashmagunlaricha davom etadi.

Mening ismimni ayt o'yini (3) bu o'yinni o'tkazish uchun kengroq joy kerak bo'ladi, sababi o'yin ko'p harakatni talab qiladi. Undan faqat tanishuv chog'ida emas, dam olish (oyoq-qo'lning chigilini yozish) uchun ham foydalanish mumkin. Barcha ishtirokchilar davra bo'lib turadilar. Bir kishi o'rtada turib, ishtirokchilardan birining ismini aytadi va pufakni yuqoriga otadi. Ismi aytilgan ishtirokchi pufakning erga tushishiga yo'l qo'ymasdan, yugurib kelishi va boshqa kishining ismini aytib, pufakni yana yuqoriga otishi lozim qo'lida ushlab qolmasdan, urib yuborishi kerak.

Keyingi mashqda ishtirokchilar davra bo'lib o'tiradilar. Ulardan biri boshqa bir ishtirokchining ismini ayta turib, qo'lidagi koptokni unga otadi. Ismi aytilgan kishi koptokni ushlab olishi, u o'ng va chap tomonidagi kishilarining, ya'ni ishtirokchilarning ismini aytishi va boshqa ishtirokchi-ning ismini aytib, o'nga koptokni otishi kerak. O'yin koptok barcha ishtirokchilarga tekkunicha davom etadi.

Ismlar lotereyasi nomli mashqda o'yin ishtirokchilari 4 tadan kichik kartochka oladilar, har biriga o'z ismlari va familiyalarini yozadilar. Keyin

kartochkalar bir quti (karobka)ga yig'iladi va aralashtiriladi. Har bir ishtirokchi qutidan lotereya olgani singari, 4 tadan kartochka oladi. Unga quyidagi topshiriq beriladi:

Topshiriq: har bir kartochkaning (4) sherigini topish, ya'ni ism va familiyalarni birlashtirish. Biroq kartochkalarni o'z-o'zidan emas, balki sherigingizda sizga kerak ism, sizda esa unga kerak ism bo'lsagina almashasiz. Ishtirokchilarning o'yinga qiziqishi ortib, ular ikki, uch va h.z kishi birlashib, bir-birlari bilan kartochka almashadilar. Natijada ishtirokchilarning ko'pchiligi bir-birlari bilan tanishadi,

Oila (nasab) ramzi nomli mashq

Har bir ishtirokchiga kartochkaga o'z familiyasi yoniga boshqa ishtirokchilarga uning ismi va familiyasini eslab qolishga yordam beradigan rasm, biror tasvir yoki ramz chizishni taklif qiling. SHundan keyin har bir ishtirokchi o'z familiyasi bilan chizilgan rasm yoki ramz o'rtasidagi bog'liqlikni sharxlaydi.

Pardalar ko'tarilsin! mashqi

Ishtirokchilar ikki guruhga bo'lingan holda bir-birlarining qarshisiga turadilar yoki o'tiradilar, lekin stol atrofiga emas. Guruhlar o'rtasiga qalin, ko'rinmas parda tortilgan (ikki kishi uni qo'lida tortib ushlab turadi), bir-birlarini ko'ra olmaydilar. Ikki tomondan bittadan ishtirokchi parda yoniga keladi, shunda pardani ushlab turganlar uni keskin tushiradilar.

Markazda turgan ishtirokchilar bir-birlarining ismlarini aytishlari kerak. SHerigining ismini birinchi bo'lib aytgan kishi uni o'lja sifatida o'z guruhiga olib ketadi. Guruh a'zolari soni doim o'zgarib turadi.

Guruh ko'zgusi mashqi

Rahbar devorda plakat tayyorlaydi. Ishtirokchilar birin-ketin o'zlarini tanishtiradilar va devorga o'zlarining ismlari, tashkilot nomi yozilgan kartochka iladilar. Agar shaxsiy ma'lumot (professional qiziqishlar, xobbi, umidlar)ni aks ettiruvchi kartochkalar bo'lsa, maqsaadga muvofiq bo'ladi. Ishtirokchilar bir-birlarini yahshiroq bilishlari va eslab qolishlari uchun plakat tadbir oxirigacha ilinib turadi.

Ismim tarixi mashqi

Ishtirokchilar juftliklarga bo'linadilar va bir-birlariga o'z ismlari "tarixi" (ma'nosi, kim qo'ygani, o'z ismiga munosabati va x.k)ni aytib beradilar. Interv'yu besh daqiqagacha davom etadi. Suhbatdan so'ng har bir ishtirokchi uz sherigini tanishtiradi.

Juftliklarda intervyu mashqi

Har bir juftlikda ishtirokchilar bir-birlaridan besh daqika davomida interv'yu oladilar. Suhbat chog'ida o'zlariga kerakli axborotni yozib oladilar. Keyin hamma davra bo'lib o'tiradi va juftliklar ketma-ket bir-birini tanishtiradi. Interv'yu erkin tarzda yoki ma'lum yordamchi savollar bo'yicha olib borilishi mumkin.

Shaxsiy varaqa mashqi

Har bir ishtirokchi yonida o'tirgan sherigidan oldindan tuzilgan tayanch so'zlar ro'yxati yoki surovnomasavollariga asoslanib, interv'yu oladi. Interv'yu davomida olingan axborot yozma qayd etiladi. Javob varaqalari yoki so'rovnomablangalari saflanayotganlarning portretida yoki familiyasini anglatuvchi ramz bilan to'ldirilishi mumkin. Bunday "shaxsiy varaka" yordamida har bir ishtirokchi boshqalarga o'z sherigini tanishtiradi. Keyin "shaxsiy varaqalar" ko'rinadigan joyga ilib qo'yiladi.

Men kimman? mashqi

Rahbar ishtirokchilarga bir varaq qog'ozning chap tomoniga ustun qilib 1 dan 10 gacha raqamlarni yozib chiqishni taklif qiladi. Har bir raqamning to'g'risiga "Men kimman?" degan savolga javob yozish kerak. Har qanday javob qabul qilinadi (xususiyat, qiziqishlar, tavsifiy belgilar va hz).

Saxnaga chiqish mashqi

Butun guruh xonaning devori yoniga to'planadi. Qarama-qarshi devor saxna vazifasini o'taydi. O'qituvchi sahnaga moderator aytgan sifat yoki xususiyat mavjud kishilar chiqishi lozimligini tushuntiradi. Masalan, sahnaga oyoq kiyimining rangi qora bo'lgan kishilar chiqdi. Birin-ketin sifatlar sanaladi va ishtirokchilar saxnaga chiqadilar. Saxnadagilar bir-birlariga razm solib, kimda aytilgan sifat yoki xususiyat borligi, kimda esa yo'qligiga e'tibor beradilar. Shundan keyin hamma joyiga qaytadi va. Masalan: ikkitadan ortiq ishtirokchini biladigan (taniydigan) kishilar; bunday seminarlarda ishtirok etgan kishilar; mavzu bo'yicha chiqish (ma'ruza) qilgan kishilarning saxnaga chiqishi so'raladi. Ishtirokchilar, shuningdek bir-birlari to'g'risida biror ma'lumotni bilib olishga yordam beradigan savollar berishlari mumkin. Asta sekin umumiy savollardan seminar mavzusiga yaqin konkret savollarga o'tish mumkin.

Iplar

Rahbar davraning markazida, 80-100 sm uzunlikdagi jun iplarni o'rtasidan, uchlarini osiltirib ushlab turadi. har bir ishtirokchi (ularning soni juft bo'lishi lozim) ipning bitta uchini ushlaydi. Keyin rahbar qo'lidagi iplarni qo'yib yuboradi. Bitta ipning ikki uchini ushlab turgan kishilar juftlik hosil qiladilar.

Rahbar endi nima qilishni tushuntiradi: ishtirokchilar o'z juftlarni bilan tanishadilar, keyin turli rasmlar, jurnallardan kesib olingan parchalar, otkritkalar qo'yilgan stol yoniga kelib, o'zlariga yoqadiganini tanlaydilar. Har bir ishtirokchi o'z sherigiga nima uchun aynan shu rasm (otkritka)ni tanlaganini asoslashga harakat qiladi. SHundan keyin hamma to'planadi va har bir ishtirokchi boshqalarga o'z sherigi to'g'risida gapirib beradi.

Mavzu bilan tanishish (mavzuga kirish metodlari)

Har qanday tadbirning boshlanishi doim ijobiy imkoniyatlar bilan birga ma'lum darajadagi xavf-xatarga ham ega. Bizning mavzu yoki guruhni eplay olmasligimiz to'g'risidagi xavotirlarimiz qandaydir yangi qiziqtiruvni omil (stimul)larga ega bo'lish va imkoniyatlarimizni kengaytirishga umid bog'lashimiz bilan muvozanatlanadi. Xavotir va umidlar seminar yoki guruh ishining boshlanishidagi mikroiklimni belgilab beradi. Bu erda xis-tuyg'ular birinchi o'ringa chiqdi. Vaxolanki, odatda, ular emas, masalaning moxiyatiga tegishli tasavvurlar oshkor qilinadi. Muloqot o'rnatishning birinchi urinishlari o'zaro hamkorlik munosabatlariga asoslangan o'quv jarayoni uchun zarur bo'lgan muxitni yaratishga imkon beradi.

Ish joyini tayyorlash

Seminar mashg'ulotini olib borishda uni muvoffaqiyatli chiqishini ta'minlash uchun muxim xisoblanadi. Mashg'ulot o'tkaziladigan xonani tayyorlash lozim. Xona bir nechta guruh ishlashi uchun etarli darajada keng bo'lishi, stol va stullar erkin, bemalol suriladigan xolda bo'lishi zarur. Mebel' jixozlarini ish jarayonining ma'lum bosqichlariga mos ravishda joylashtirishning bir nechta variantini o'ylab chiqish mumkin.

Agar o'qitishning texnik vositalari kerak bo'lsa, ularning ishchi holati (sozligi)ni oldindan tekshirib qo'yish kerak, aks xolda o'quv jarayoniga va ish tartibiga sezilarli o'zgartirish kiritish lozim bo'ladi. Vaxolanki, amaliy seminar o'tkazish uchun kanstelyariya mollarining chegaralangan turi etarli bo'ladi: katta xajmli qog'oz (flip), har xil rangdagi kartochkalar, flomaster (marker)lar, elim, qaychi, skoch, kabilar zarur, ularni oldindan olib kelib tayyorlash kerak.

Biz muallim moderator seminarini o'tkazishga aloqador kishilar bilan uni batafsil muhokama qilib olishimiz zarur buning uchun bir yoki ikki soat vaqtga ega bo'lishimiz.

Birlamchi aqliy xujum

Mavzuga chuqurlashish (o'quv materialini taqdim etish) dan oldin moderator guruhga mavzuga oid umumiy savol beradi va unga javob berishni so'raydi. Masalan, loyixani tayyorlash xaqida gapirib, moderator: "Loyixa deganda nimani tushunasiz?" yoki "Sizningcha, har kanday loyiha nimalardan tashkil topadi?" va sh.k. savollarni o'rta tashlashi mumkin. Guruh javoblari tayanch so'zlar ko'rinishida oq qog'ozga yoki doska (yozuv taxtasi)ga yozib boriladi. Moderator o'z chiqishining asosiy mazmunini ifoda etuvchi barcha tayanch so'zlar chiqmagunicha yo'naltiruvchi savollar yordamida xaqiqiy xujumni davom ettiradi.

Endi doskada qayd etilgan tayanch qog'ozlarni oldindan tayyorlangan rejaga asoslanib birlashtirish va kerakli mazmun bilan to'ldirish lozim. Agar siz bunda tayanch so'zlarning mualliflarini eslab o'tsangiz (Bahodirjon to'g'ri ta'kidlaganlaridek. yoki "Nargizaxon menga yana bir holat (jixat)ni eslatdilar). Guruh a'zolari bu axborotni o'zlari bergandek tasavvur qilib turiladi va ta'lim

olayotganlarini sezmagan xolda, uni o'zlarinikidek qabul qiladilar. Bundan tashqari, siz tayyor ko'rgazmali qurolga ega bo'lasiz; zarur xollarda kerakli so'zni marker bilan ajratish, tagiga chizish orkali e'tibo-rini unga qaratishingiz lozim bo'ladi, xolos.

Moderatorning monologi (material takdimoti)

Takdimot san'ati haqida juda ko'p yozilgan, bu erda hammaga ma'lum bo'lgan haqiqatlar ko'rgazmaning foydasi, auditoriya bilan muloqot o'rnatish, notiqlik ko'nikmalari to'g'risida takroran eslatib o'tmaymiz. Faqat materialni taqdim etish bo'yicha ayrim tavsiyalar va usullar ustida to'xtalamiz.

Monolog minimumlashtirilishi, unga guruh bilan erkin suhbat elementlari kiritilishi lozim, aks xolda ishonch uyg'otuvchi suhbat muhiti ma'ruza bilan almashib qoladi.

Zamonaviy audiovizual vositalardan foydalanishga berilmaslik kerak. O'ta zamonaviy asbob-uskuna yordamida obro' qozonishga intilish har doim ham yaxshi natija bermaydi. 2-3 ta slayd namoyish qilish uchun kodoskop, ekran, proektorlarni qalashtirib tashlagan taqdimotchini ko'rganingda "Shu tayanch so'zlarni oddiygina qilib doskada yozsa bo'lmasmidi?" deb so'raging keladi.

Shu bilan birga, ko'rgazmaning ahamiyati kattaligini nazarda tutib, har bir fikrni qayd etish zarur. Etarli chizmachilik grafik ko'nikmalarga ega bo'lmasdan turib, buni qanday qilib amalga oshirish mumkin?

Metareja

Bu metod 70-yillarda Germaniyada kashf qilingan, vaxolanki, uning ko'p elementlari ilgari ham qo'llanar edi. Metodning mohiyati quyidagidan iborat: tayanch so'zlar rangli kartochkalarga yoziladi. Seminarning maqsadi va vazifalari taqdimotini tayyorlashda A-4 qog'ozning yarmicha xajmdagi kartochkalarda maqsadlarni, boshqa rang kartochkalarda shu maqsadga tegishli vazifalarni, uchinchi xil rangdagi kartochkalarda sharxlar yoziladi.

Asosiy qoida - matn juda qisqa (bitta kartochkada 1-2 ta so'z), auditoriyaning hamma joyidan yaxshi o'qiydigan bo'lishi lozim. O'z chiqishingiz davomida siz mazkur kartochkalarni devorga, doskaga yoki oldindan tayyorlangan qog'ozga skoch yoki elim bilan yopishtirasiz, natijada chiqishingizning kengaytirilgan rejasi (metarejasi) hosil bo'ladi.

МАҚСАДЛАР

таълимнинг асослари	ақлим йўллари	конкрет лозиملар
ҳозирги йўшлар	зоҳ	мақсад
ривожланиш йўлида йўшлар	амалга ошириш даражаси	эришил воситалари
	фондлар	ким ва қачон

Ushbu metodning yutug'i uning sodda va ko'rgazmaliligida. Bundan tashqari, siz seminar qatnashchilariga maqsad va vazifalarni eslatganda doim unga

asoslanishingiz mumkin bo'ladi.

Odatda, tajribali moderatorlar skoch bo'laklarining kerakli miqdorini oldindan kesib, doskaning chetiga yopishtirib qo'yadilar va chiqishlari davomida undan oson foydalanadilar. Devordagi bu kabi metareja quyidagicha ko'rinishda bo'lishi mumkin (rasm).

2.2. KATTALAR TA'LIMIDA INTERAKTIV METODLAR

Tasavvur (assostiastiya) lar taxlili

Moderator seminar mavzusiga bevosita aloqador tushunchalarni o'qiydi va ishtirokchilardan bu tushunchalar bilan bog'liq holda yuzaga kelgan tasavvurlarni yozib borishni so'raydi. Keyin, tanaffus vaqtida, kartochkalar to'planadi, tizimlanadi va barcha tanishib chiqishi uchun foydalanadi.

Natijalar muhokama qilinadi va sharxlanadi. Muhokama davomida moderator ishtirokchilarning tasavvurlari (assostiastiyalari)ni ularning umidlari va seminari o'tkazish buyicha taklif etilayotgan dastur bilan bog'laydi.

Tugallanmagan jumlarlar

Moderator doskaga yoki plakatlarga seminar mavzusiga tegishli bir nechta jumlaning boshlanishini yozadi. Ishtirokchilar kartochkalarda bu jummalarni davom ettirish topshirig'ini oladilar. SHundan keyin kartochkalar tegishli joyga (jumlaning boshi yozilgan plakatga) yopishtiriladi.

Tugatilgan jumlar umumiy muhokama uchun turtki bo'ladi va umidlarni aniqlash, ish tartibini rejalashtirishga yordam beradi.

"SHimoliy cho'rtan baliq" o'yini

CHo'rtan baliqni katta akvariumning yarmiga joylashtirishibdi, ikkinchi yarmida esa shisha to'siq ortida ko'p sonli mayda baliqlar suzib yurarkan. CHo'rtan baliqning qorni ochib, baliqlarga tashlansa, tumshug'i bilan shisha to'siqqa urilib, xafsalasi pir bo'larkan. Keyinchalik u baliqlarga eta olmasligini tushunibdi va taqdirga tan beribdi.

Ajablanarlisi - to'siqni bildirmasdan, sekin olganlarida ham xatto baliqlar atrofida suzib yursa ham, cho'rtan ularga xujum qilmas, jim yotarkan.

Bu holat "cho'rtan baliq sindromi" ni namoyish etadi, unga quyidagilarga xos:

- vaziyatdagi o'zgarishlarni inkor etish;
- mavzuning to'liq tanishligini taxmin qilish;
- o'ta umumlashtirishga moyillik;
- avvalgi tajribaga so'zsiz amal qilish;
- ruhiy zuriqish (stress) holatida harakat qila olmaslik;
- muqobil variantlarni ko'rib chiqishdan bosh tortish;
- atrof muxit qurboni xissini tuyish;
- xis qilayotgan majburlashni taxlil qila olmaslik.

Mashqning maqsadi: bizning muvaffaqiyatimizni chegaralovchi, unga erishishga xalaqit beruvchi omillarni aniqlash va baholash muhimligini namoyish qilish.

Muhokama uchun savollar: kishilar choʻrtan baliq sindromini namoyish qiladigan holatlarga misol keltiring. Biz boshqalarga (yoki oʻzimizga) bu psixologik toʻsiqlarni engishga qanday yordam bera olamiz? Qanday xulq turlariga ega boʻlishni, qanday turidan voz kechishni xoxlardingiz? (xayotda, ishda qanday majburlashlarni xis qilasiz?. Qanday qilib majburlash tabiatini aniqlashni oʻrganish mumkin?

Har bir ishtirokchidan u qanday ishni bajarishni istayotgani yoki istamayotganligini soʻrang. Belgilangan vazifani xozir bajarishga halaqit berayotgan omillarni sanashni iltimos qiling. Ishtirokchilar xis qilayotgan majburlashlarni diagrammaga asosan real va tugʻma, qatʻiy va moslashuvchan turlarga ajrating. Toʻqima va moslashuvchan turlar oxir oqibatda bartaraf etilmasada, oʻrganilishi mumkin. Real va qatʻiy majburlashlarni engib boʻlmaydi. His qilinayotgan chegaralashlarni tahlil qilish, tajriba oʻtkazish va sharoitni toʻgʻri baholayotganiga ishonch xosil qilish har bir ishtirokchi uchun foydali boʻladi.

Tavsiyalar: oʻrganilayotgan masalalarning guruh tomonidan yahshiroq tushunilishi uchun shaxsiy hayotingizdan majburlashlarni namoyish qiladigan misol keltiring. Guruhga choʻrtan baliq sindromini engishda foydali boʻladigan xulq turlari va sifatlar roʻyhatini tuzishni taklif qiling.

Majburlash turlari

Qatʻiy Toʻqima	Qatʻiy Real
Moslashuvchan toʻqima	Moslashuvchan real

Rejalarni umumlashtirish va maqsadlarni muhokama qilinishi

Seminar ishtirokchilarning umidlari va maqsadlariga muvofiq tarzda oʻtishi uchun ularning qiziqishlarini aniqlash zarur. Seminar ishtirokchilariga ularning umidlari (ular seminardan kutayotgan natija) toʻgʻrisida savol berib, oʻzimizga kerak axborotni olishimiz, shu bilan birga, seminarda faol ishtirok etishga qiziqtirish, natijalarning muvaffaqiyati uchun oʻz masʼuliyatlarini anglashlariga yordam berishimiz mumkin.

Seminarining bu beshinchi ishtirokchilariga boshqa kishilarning muammolari, vaziyatlari, ichki dunyosi va pozistiyalariga moslashishga yordam beradi.

Posterlar

Bu - maʼlum metodlarning eng soddasi. Seminar boshlanishidan oldin moderator devorga 2-3 ta plakat poster iladi, unda kishi oʻz umidini ifoda etadigan jumlaning boshlanishi yozilgan boʻladi. Masalan: "Men seminar ... boʻladi deb umid qilaman". "Men seminardan ... olib ketishni istardim". "Men ...ni kutyapman", "Agar xafsalam pir boʻladi" va hokazo.

Ishtirokchilarga seminar boshlanishidan oldin yoki seminarning boshida maxsus ajratilgan vaqtda (odatda, tanishuvdan keyin) plakatlar yoniga kelib, jummalarni tugatish taklif qilinadi. Shundan keyin moderator albatta qisqacha umumlashtirishi va tushunarsiz holatlar bo'lmashligi uchun kerakli o'rinlarni aniqlashtirishi lozim. Seminar yakunida moderator ishti-rokchilarning e'tiborini yana shu varaqlarga qaratadi va ularni birgalikda taxlil qilish davomida amalga oshgan umidlarni aloxida ajratib, amalga oshmaganlarining sababini, kelgusida barcha umidlar ruyobga chiqishi uchun nimalar qilish lozimligini muhokama qiladilar.

Umidlar daraxti

Bu metod chiroyliroq rang-barang, biroq ko'p vaqt va oldindan tayyorgarlikni talab qiladi. Moderator kartochkalar (rangli bo'lsa, yahshirok) tayyorlaydi (ular olma ko'rinishida bo'lishi mumkin). Katta guruhni 3-4 ta kichik guruhga ajratib, ishtirokchilardan o'z umidlarini kichik guruhlar ichida belgilashni so'raydi. Kichik guruhdagi umidlar sonini 5-7 tagacha chegaralagan ma'qul. Ishtirokchilar muhokama bilan band bo'lgunlaricha, moderator vatman qog'ozga shartli olma daraxtining rasmini chizadi. Keyin guruhlar olma-kartochkalarini taqdim etadilar, moderator esa ularni daraxtga "iladi".

Seminar yakunida olmalarni terib olishni va ba'zilarining daraxtda qolib ketishining sababini muhokama qilishni so'raladi.


Umidlar varag'i

Bu metod vaqt qizig'ida, seminar boshida ishtirokchilar faol ishlamaydigan yoki muhokamada qatnashmaydigan kirish qismi bo'lganda samaralidir. Moderator davra bo'ylab quyida keltirilgan jadval tasvirlangan bitta yoki ikkita (davraning ikki tomoniga) qog'oz yuboradi. Ishtirokchilardan galma-gal jadvalga o'z fikr-mulohazalarini yozish so'raladi. Agar ularning fikrlari jadvalda aks etgan fikrlarga mos kelsa, shu joyga belgi (+) qo'yishlari mumkin. Seminar yakunida moderator xuddi shu varaqlarni yana davra bo'ylab yuboradi va ishtirokchilardan amalga oshgan xohish-istaklarni o'chirishni so'raydi. Bunday ishni kichik guruhlarda ham bajarish mumkin.

SHaxsiy pozitsiya

Bu, extimol, extiyojlarni aniqlashning eng "rasmiy", odatiy usulidir. Moderator ishtirokchilardan A-4 qog'ozni ikkita buklab, bir tomoniga seminardan nimani kutayotganlarini yozishlarini so'raydi. Ikkinchi tomonga,

masalan, ismlarini yozib. O'ziga xos tashrif qog'ozini tayyorlashlari mumkin (rasmga qarang). Shundan keyin bukilgan



varaqlar stol ustiga ko'rinadigan qilib quyiladi va moderator davra bo'ylab yurib ishtirokchilarning

umidlarini aniqlashtiradi. So'ngra kartochkalardagi ismlar tashqariga aylantirib qo'yiladi. Seminar yakunida moderator amalga oshgan umidlarni o'chirishni va kartochkalarni yana aylantirishni iltimos qiladi.

seminarda ..., men xursand bo'laman	Seminarda.men..nimani stamayman
--	------------------------------------

Umidlarni aniqlash metodi. "kalitlar"

Guruh davra bo'lib o'tiradi. Boshlovchi bir bog'lam kalitni quyidagi so'zlar bilan uzatadi: "Eshikni ochish uchun kalit kerak. Ba'zan bu kalitlar ko'p bo'lishi kerak. Men kalitlarni bir-biringizga uzata turib, seminar bilan bog'langan umidlaringizni bildirishingizni istardim. 2-3 jumla". Javoblar doskada yoki plakatda qayd etiladi. Seminar davomida ishtirokchilarning umidlari yozilgan flip devorda ilinib turadi va seminar yakunida albatta unga murojat qilish lozim: ro'yobga chiqmagan umidlar yoniga oldindan qog'ozdan yasab, tayyorlab qo'yilgan "qulfcha"lar yopishtiriladi.

G'oyalar bozori

Xonaga seminar davomida ko'riladigan mavzular yoki masalalar yozilgan plakatlar ilinadi. Ishtirokchilardan o'z g'oyalari, fikr-mulohazalari, savollari, takliflarini plakatlarda aks ettirish so'raladi. Taxminan o'n daqiqadan keyin ishtirokchi o'zi uchun bitta mavzu tanlaydi va shu mavzu yozilgan plakat yoniga keladi. SHu tariqa xosil bo'lgan guruhlar plakatlarda ifodalangan g'oya va takliflarni taxlil qiladilar va ulardan qaysi birlarini seminar dasturiga kiritishni xal qiladilar.

Umidlar mag'zi

Har bir ishtirokchi topshiriq oladi: o'z qiziqishlari va seminarga bog'layotgan umidlarini bir necha daqiqa davomida qog'ozda ifoda etish. Bu yozuvlar shaxsiy bo'lib, o'qilmaydi va xech qayerga ilinmaydi. Belgilangan vaqt tugashi bilan har bir ishtirokchi yozganlari orasidan, uning fikricha eng muhim bittasini tanlab, boshqa ishtirokchilarga e'lon qiladi.

Umidlar kostyumi

Moderator ishtirokchilarga antiqa shaklni to'ldirishni taklif qiladi. U futbolka, shim va ichkiyim ko'rinishida kesilgan qog'oz varaqlaridan iborat. Futbolda ishtirokchilarning seminardan kutayotgan natijalari, ichkiyimda xavotirlari, shimda seminarni o'tkazish buyicha takliflari yoziladi. Har bir ishtirokchi tayyor kostyumini qisqichlar yordamida ipga osib qo'yadi. Barcha ko'rgazma bilan tanishib, o'zi uchun guruhdagi umumiy vaziyatni, seminar mavzusiga munosabatni bilib olishi mumkin.

Masofani tanla

Moderator biror predmetni seminar ramzi deb e'lon qiladi va o'quv auditoriyasining o'rtasiga qo'yadi. Endi ishtirokchilarga predmetdan ularning seminar mavzusiga yaqinligi yoki uzoqligini namoyish qiladigan masofada turish taklif etiladi. Har bir ishtirokchi tanlangan masofani bitta gap bilan tushuntiradi.

So'zni harflar buyicha taxlil qilish

Seminar mavzusi bilan bog'liq tayanch tushunchalardan biri doskaga bosma harflar bilan, vertikal qilib, yuqoridan pastga yoziladi. Shundan so'ng ishtirokchilarga yozilgan tushunchaning har bir harfiga shu harf bilan boshlanuvchi so'z topish va aloxida kartochkalarga yozish taklif qilinadi. Keyin so'zlar ustma-ust ilinadi yoki erga taxlanadi va bir-biriga qiyoslanadi.

Axborotni etkazish va tahlil qilish

Har bir seminarining eng muhim vazifalaridan biri ma'lum mavzu bo'yicha axborot berishdan boshlanadigan konkret vaziyat taxlilidir. Shubhasiz, biz axborotning ma'ruza yoki xabarlar ko'rinishida taqdim etilishiga o'rganib qolganmiz, vaxolanki, bunday ma'ruza metodi "ma'ruzachining fikrlarini tinglovchilarning miyasini aylanib o'tib, daftarlarida aks ettirishning eng yahshi yo'lidir". Agar biz xabar berishga qaror qilgan bo'lsak avval o'zimizga quyidagi savolni berishimiz ma'qul bo'ladi: "Mening ma'ruzam tinglovchilarga qanday foyda keltiradi?" Bu savolga ijobiy javob bergani-mizdan so'ng, ma'ruzamiz:

- e'tiborni tortadigan nomlanishga ega bo'lishi;
- uchtdan ortiq bo'lmagan asosiy g'oyalardan iborat yaxlit xabar bo'lishi;
- kirish (taxminan 15 %), asosiy qism (75 %) va xulosa (10 %)dan tarkib

topishi lozimligini unutmashimiz kerak. Bundan tashqari, ma'ruzaning varaqlardagi yoki kartochkalardagi tezislari (har bir tezis aloxida kartochkada) bizga kuchliroq ishonch bahsh etadi. Endi axborotni uzatish va taxlil qilishda foydalanish mumkin bo'lgan boshqa metodlarni ko'rib chiqamiz.

Stend taqdimoti

Guruh katta plakat tayyorlaydi, unda loyixaning asosiy komponentlarini (tarkibiy qismlarini: nomi, maqsadi, tadbirlari va h.z.) aks ettiradi. Bunda turli-tuman materiallardan, applikasiya, kollaj yoki rangli markerlardan foydalanish mumkin. So'ngra plakatlar devorlarga ilinadi, guruhlar galma-gal o'z loyixalari xaqida gapirib beradilar. Boshqa guruhlar aniqlashtiruvchi savollar beradilar yoki o'z takliflarini bildiradilar.

Reklama kampaniyasi

Guruh o'z loyixasining plakatinigina emas, uning yorqin taqdimotini – "reklama kampaniyasi" ni ham tayyorlaydi. Bunda ijodkorlikning turli qirralarini qo'llash mumkin kostyumlar, qo'shiq, raqs, pufaklar, plakatlar, aytishuvlar va h.k.

Ekspertlar sudi

Guruhlar galma-gal o'z loyixalarining stend taqdimotini o'tkazadilar, boshqa ishtirokchilar esa oldindan tayyorlangan rollar tavsiflangan kartochkalarni oladilar. Rollar muhokama etilayotgan loyixalarning mavzusiga qarab tanlanadi. Odatda, bular tegishli davlat muassasalari, ilmiy institutlar, ta'lim muassasalari, jamg'armalar, nodavlat tashkilotlar, ayollar uyushmalari, faxriylar kengashlari vakillari bo'lishi mumkin.

Kartochkalardagi rollar mazmuni konkret ifoda etilishi, ro'l o'ynayotgan kishi unga qiynalmay kirishishi lozim. Masalan, "Petr Panteleymonovich

Sidorkin, o'rta faxriysi, 10 nafar nabiraning buvasi, "Nafaqamxo'rlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi" Boshqaruvi a'zosi, kommunistik partiya a'zosi". Ishtirokchilar butun muhokama davomida o'z rollarini saqlab qolishlari yoki har bir chiqishlaridan so'ng rollarini o'zaro almashishlari mumkin. Loyixa taqdimotidan keyin ular o'z rollariga muvofiq savol beradilar, loyixa mualliflari esa ekspertlarning barcha toifalari uchun qadrli biror jixat topishga harakat qiladilar.

Jamg'arma (fond) ko'rik-tanlovi

Ushbu mavzudagi seminar mashg'ulotida loyixa ustida ish boshlanmasidan avval moderator ular, masalan, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi (jamg'arma nomi shartli ravishda, tayyorlanayotgan loyixa mavzusiga muvofiq tanlanadi) e'lon qilgan ko'rik-tanlovga taqdim etilishini xabar qiladi. Moderator, shuningdek jamg'armaning talablarini oldindan aytishi va shu toifa guruhlarining fantaziyasini biroz chegaralashi mumkin. Masalan, loyixaning maksimal byudjeti - 5 ming dollar, amal qilish muddati - 1 yil, maqsadli guruh - ishsizlar va sh.k. Taqdimotga ajratilgan vaqt ham chegaralanadi. Moderator har bir guruh a'zolariga o'z loyihalarining maqsadga muvofiqlashni isbotlash uchun 10 daqiqa, savollarga javob berish uchun 5 daqiqa vaqt berilishini ma'lum qiladi. Loyixalar tayyor bo'lgach, ko'rik-tanlov boshlanadi guruh o'z loyixasini rollari boshqa ishtirokchilar yoki mustaqil ekspertlar (masalan, seminarlar tomonidan uynaladigan jamg'apma a'zolariga taqdim etadi. Keyin "Jamgarma Kengashi" - har bir guruhdan bir yoki ikkitadan vakil yashirin ovoz berish orqali qaysi loyixani qo'llab-quvvatlashni xal qiladi.

So'zsiz munozara

Agar to'rtta ustivor vazifa belgilansa moderator ishtirokchilarni to'rtta guruhga bo'ladi, har bir guruh vatman qog'oz (flip) hamda vazifalardan biri yozilgan kartochka qo'yilgan stol atrofida to'planadi. Barcha guruhlar bosqich davomida gaplashmasdan va hech narsani muhokama qilmasdan, indamay ishlaydilar. Bu vaqtda mashg'ulot davomida engil, e'tiborni jalb qilmaydigan, fikrni chalg'itmaydigan musiqa qo'yib qo'yish mumkin. Guruh vazifani uylab bo'lganidan so'ng har bir ishtirokchi qog'ozda o'z echimini (tadbirlar, akstiyalar, choralar va h.z.) yozadi. Moderatorning ishorasi bo'yicha (5-7 daqiqadan so'ng) ishtirokchilar stollari atrofida soat millari bo'ylab o'rin almashadilar. Har bir ishtirokchi sherigining yozganlarini o'qib, o'z g'oyalarini taklif qilishi, tushunarsiz jihatlarni aniqlashtirish uchun yozma savol berishi mumkin. Belgilangan vaqt o'tganidan so'ng yana o'rin almashadilar.

Tajribadan ma'lum bo'lishicha, ishtirokchilar hamma uylaganlarini aks ettirishlari va barcha savollarni aniqlashtirishlari uchun davrani 4-5 marta to'liq aylanishlari zarur. Moderator ishtirokchilarning hech narsa qo'shimcha qilmayotganlarini ko'rsa, mashqni ilgariroq tugatish mumkin

Sirli varaq

Bu mashg'ulotni o'tkazish uchun ishtirokchilar juftliklarga bo'linadilar bunda bir-birlari bilan kamroq tanish bo'lgan ishtirokchilarning sherik bo'lishi maqsadga muvofiq. Har bir kishiga bir varaq qog'oz beriladi. Ishtirokchilarga ular javobini bilmaydigan, mavzuga tegishli savollarni yozish taklif qilinadi.

Keyin ishtirokchilar varaqlarini almashadilar va bir-birlarining savollariga javob berishga harakat qiladilar. So'ngra ishtirokchilar to'rt kishilik kichik guruh xosil qiladilar va javobi topilmagan savollarni muhokama qiladilar. Nixoyat, sakkiz kishi yana shu maqsadga birlashadi.

Moderator ishtirokchilarga: "shubha va inoqliklar qildimi? Qaysilar? Javobi topilmagan savollarni o'qib bering", - deb murojat qiladi. Moderator tanaffus vaqtida taxlil qilish uchun varaqlarni yig'ib oladi.

Bahsli ta'kidlar

Bu mashg'ulotni boshlashdan avval moderator "To'liq qo'shilaman", "SHartli qo'shilaman", "Umuman qo'shilmayman", "Bilmayman ishonchim komil emas" ta'kidlari yozilgan 4 varaq oq. qog'oz (flip) xonaning to'rt tomonidagi devorga ilib qo'yiladi. Moderator seminar mavzusi bilan bog'liq baxsli ta'kidlarni birin-ketin o'qiydi. Ta'kidlar o'qilgan zaxoti ishtirokchilar o'nga bo'lgan munosabatlarini ifoda etish uchun javob yozilgan flip yoniga borib turadilar. Ishtirokchilar nima uchun aynan shunday munosabatda ekanliklarini sharxlaydilar. Turli fikrlarni tinglab, ishtirokchilar pozistiyalarini o'zgartirishlari mumkin. Muhokama davomida quyidagi savollarni berish mumkin:

Bu savollar ustida mushoxada yuritganingizda nimalarni xis qildingiz?

Barcha ishtirokchilar oldida o'z nuqtai nazariningizni bayon qilish oson bo'ldimi, ayniqsa, kamchilik bo'lganingizda?

O'z fikringizni o'zgartirishga qiynalmadingizmi?

Bu mashqni o'tkazishda yuqorida qo'yilgan maqsadlaringizga mos keladigan istalgan miqdordagi ta'kidlarni tanlashingiz mumkin.

Asl nusxa (original)ni topish

Ishtirokchilar orasidan 4 nafar ekspert tayinlanadi, qolganlar esa uch guruhga ajratiladi. Ekspertlardan tashqariga chiqish so'raladi, ularga katta kartinaning fragmentlari ko'rsatiladi. Kartina to'rt qismga bo'lingan, har bir ekspert ikki daqiqa davomida faqat bir bo'lakni tomosha qilib, ko'proq tafsilotlarni eslab qolishi lozim. SHundan keyin bo'laklar olib qo'yiladi. Ekspertlar bir-birlari bilan muloqot qilmaydilar, shuning uchun yaxlit kartina haqida tasavvurga ega emaslar. So'ngra ekspertlar auditoriyaga qaytib keladilar, har biri galma-gal o'z bo'lagidan eslab qolganlarini gapirib beradi. Guruhlar qisqacha yozib oladilar. Guruhlarning vazifasi yaxlit kartinani iloji boricha to'liqroq, aniqroq chizishlari lozim (ishtirokchilarga vatman qog'ozlari va rangli qalamlar beriladi). Ekspertlar xikoyasidan keyin guruhlar ularning yoniga o'z vakillarini yuboradilar. Faqat bitta ekspertga savol berish mumkin. Mashq yakunida guruhlar kartinalarini namoyish qiladilar, ekspertlar esa o'z fragmentlari qanchalik aniq ifoda etilganini baholaydilar. Bunda ekspertlarning

tanqid qilishlariga yo'l qo'yilmaydi, faqat to'g'ri bajarilgan o'rinlar qayd etiladi. Ish natijalari guruh munozarasi shaklida muhokama qilinadi.

Tarafdorlar va qarshilar bazasi

Metod aniq katta muammoni muhokama qilishda ma'qul bo'ladi. Ishtirokchilar uch guruhga ajratiladi. Bir guruh tarafdorlari o'zlarining fikrini ifoda etadi, ikkinchisi - qarshilar. Uchinchi guruh kuzatuvchilardan iborat bo'lib, ularning vazifasi baxs munozaraning muhim nuqtalarini, eng muhim fikrlarni, pozitsiyalarni qayd etib borish va baxs yakunida barchaga tanishtirish. Baxs-munozara boshlanishidan oldin belgilangan vaqt (masalan. 15 daqiqa) davomida ishtirokchilar guruhlarda o'z pozitsiyalarini tasdiqlovchi dalillardan ko'proq to'plashlari lozim. Baxsda har bir guruhdan bittadan (yoki ikkitadan) vakil qatnashadi. Qolgan ishtirokchilar ikkinchi qatorga joy-lashadilar va zarur hollarda vakillarini qo'llab-quvvatlaydilar.

Svetofo

Har bir ishtirokchi uchtdan kartochka oladi: qizil, sariq va yashil rangli. Mavzu muhokamasi davomida har bir tezisdan keyin har bir kishi tegishli kartochkani ko'rsatadi (yashil - "xa", qizil - "yo'q", sariq - "ikkilanyapman"). Fikrlar har xil bo'lganda, moderator o'z nuqtai nazarini asoslash, sharxlashni so'raydi.

Kollejlar

Moderator seminar ishtirokchilarini guruhlariga ajratadi, har bir guruh taklif etilgan mavzu buyicha kollej tayyorlash topshirigini oladi.

Bunda ishtirokchilar katta xajmdagi qog'oz (flip), eski jurnallar, qaychi, elim, markerlardan foydalanishlari mumkin.

Guruhlar: bitta mavzu ustida aloxida, har xil mavzular ustida ishlashlari mumkin.

Topshiriq bajarilganidan so'ng kollejlar ko'rgazmasi tashkil etiladi, har bir guruh o'z asarini sharxlaydi.

"3-5-6"

6 nafar ishtirokchi 5 daqiqa davomida seminar muammosi bilan bog'liq 3 ta g'oyasini qog'ozga yozadi. SHundan keyin har bir ishtirokchi o'z qog'ozini chap tomonida o'tirgan sherigiga uzatadi, har bir ishtirokchi olgan qog'ozidagi g'oyalarni o'qib, ularni rivojlantirishi yoki yangi g'oyalarni yozishi kerak. Bu harakat barcha varaqlar to'ldirilmaguncha davom etadi. Bu metod qisqa vaqt ichida 6 nafar ishtirokchiga 90 ga yaqin yangi g'oyani kashf qilishga imkon beradi.

Ekspert so'rovi

Qo'shimcha axborot, maxsus bilim, kompetent fikr olish uchun seminarga ekspert taklif qilinishi mumkin. Seminar ishtirokchilari savollar tayyorlab, kartochkalarga yozib qo'yadilar. Keyin bu kartochkalar to'planadi va tizimlanadi. U yoki bu muhim mavzuni chuqurroq, atroflicha o'rganish uchun

seminarga bir-biridan farqli, har xil fikrni qo'llab-quvvatlovchi ekspertlarni taklif qilish mumkin. Ularning chiqishlaridan so'ng ishtirokchilar bilan kichik baxs-munozara uyushtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Axborot burchaklari

Xonada burchaklar bezatiladi yoki turli mavzular buyicha axborot va materiallardan iborat stend o'rnatiladi (osiladi). Ishtirokchilar barcha axborot burchaklari bilan tanishib, ularda ko'proq qiziqish uyg'otgan stend yoki burchak yonida turadilar. SHunday qilib, seminar boshidanoq mavzular buyicha kichik guruhlar shakllanadi.

Seminar ishtirokchilari moderatoridan aniq tizimlangan, axborotning mag'zi berilgan matn oladilar. Har bir ishtirokchi matinni mustaqil o'rganadi, bunda uning nazarida muhim bo'lgan tushunchalarni belgilaydi. Keyin ishtirokchilar kichik guruhlarda ishlash uchun kattaroq xajmdagi topshiriq oladilar.

Kichik guruhlarda axborot ustida ish olib borilganidan so'ng muhokama natijalari "bozor" ga chiqariladi. Har bir guruh vaqillari lozim bo'lganda sharxlash uchun galma-gal "rasta" ortida turadilar. Barcha ishtirokchilar "bozor"ni aylanib, boshqa guruhlarining ishlari natijalari bilan tanishadilar va vaqti chegaralanmagan muhokamani olib boradilar.

"plus", "minus", "qiziqarli"

Seminar mavzulari ustida ishlash uchun har bir guruh uch bo'limli plakat oladi va unga muammoning ijobiy jihatlarini (+), salbiy qirralarini (-), kelgusida qo'llash mumkin bo'lgan tomonlarini ("qiziqarli") yozib chiqadi. Guruhlar ishlarining muhokamasi vaziyatni taxlil qilishga va konkret muammolarni echishda ustuvorliklarni belgilashga imkon beradi

Eng ayanchli bashoratlar

Moderator belgilangan muammolar xal qilinmasdan, to'planaversa, 10-20 yildan so'ng nima bo'lishi xaqida o'ylab ko'rishni so'raydi. SHu asosida gazetaga matnli yoki radio (televideniya) orqali chiqish tayyorlash mumkin.

Taqdimotdan keyin muammoni muhokama qilish va uning eng katta xavf tug'diradigan jihatlarini aniqlash mumkin.

Kartochkalar hammasini oshkor qiladi

Seminar mavzusi buyicha tayanch so'z har bir ishtirokchilar tomonidan aloxida kartochkalarga yoziladi. Keyin ular to'planib, taxlil qilinadi va mavzu bo'limlari bo'yicha ajratiladi. Bunda asosiy tushunchalarni ifoda etuvchi kartochkalar eng ustiga ilinadi (qo'yiladi). O'tkazilgan taxlil natijalari, o'z navbatida, seminar ishini davom ettirishga asos bo'lishi mumkin.

Orzu

Ishtirokchilarning faoliyatini tashkil etishda seminar mavzusiga bevosita aloqador asos bo'ladi. Bu orzu moderator yoki ishtirokchilarning o'zlari

tomonidan munozara davomida taklif qilinadi va tayanch so'zlar ko'rinishida qayd etiladi.

Har bir guruh g'oya ustida ishlaydi va o'z plakatlarini umumiy muhokamaga taqdim etadi. Moderator har bir ishlanmani muhokama qilishi, ya'ni g'oyani amalga oshirish imkoniyatlari va qiyinchiliklarini har bir holat bo'yicha ko'rib chiqishi muhim

"Ong haritasi"

Ushbu metod muammo yoki vazifaning barcha aspektlarini ko'rish va batafsil ishlab chiqish imkoniyatini beradi. Ish boshlanishida qog'ozga aylana chiziladi va uning ichida aniq ifoda etilgan muammo yoziladi. Muammoni echishga yordam beradigan barcha g'oyalar (takliflar) aylana atrofiga joylashtiriladi. Muhimroq, yirikroq g'oyalar markazga yaqin, maydaroq, ahamiyatsizroq takliflar aylanadan uzoqroq yoziladi. Keyin ular aylana bilan to'g'ri chiziqlar bilan birlashtiriladi. Birorta xususiy taklif tug'ilsa, u ham qayd etiladi va asosiy mavzuga bog'lanadi.

"Savol-javobli echim"

Har bir ishtirokchiga seminar mavzusi bo'yicha bittadan savol topish va uni bir varaq qog'ozga yozish taklif qilinadi. Keyin ishtirokchilar o'z qog'ozlarini bir-birlariga uzatadilar. Savolga javob berishni xoxlagan har bir ishtirokchi o'z fikrini qog'ozda aks ettiradi. Ish yakunida barcha savollar va javoblar o'qib eshittiriladi hamda stend yoki plakatda qayd etiladi.

"E'lonlar doskasi" ("afisha")

Ushbu metod har xil ishtirokchilar, har xil qiziqishlar, har xil imkoniyatlarni birlashtirish lozim bo'lganda ma'qul bo'ladi. Buning uchun stolga vatman qog'ozi (flip) qo'yiladi va ishtirokchilar stol atrofida turib, o'z takliflari, istaklari yoki g'oyalarini indamasdan yozadilar. SHundan keyin ular stol atrofida aylanib, boshqalarning yozganlari bilan tanishadilar. Agar biror izoh qo'shimcha qilish istagi tug'ilsa, shu erning o'zida javob yozish mumkin bo'ladi. Ishtirokchilar bir necha marta davra bo'ylab aylanganlaridan so'ng, odatda, vaziyat ancha oydinlashadi va moderator uni sxema, kartochkalar va sh.k. ko'rinishida ifoda eta oladi.

"Kartochkalar orqali so'rov"

Moderator topshiriq yoki savolni ochiq shaklda ifodalaydi (Nima qilish lozim... Qanday imkoniyatlar mavjud... Nega amalga oshirib bo'lmayapti...).

Ishtirokchilar javoblarni sodda gaplar yoki tayanch so'zlar ko'rinishida kartochkalarda qayd etadilar. Barcha kartochkalar to'planib, ishtirokchilar tomonidan moderator rahbarligida mazmuni hamda vazifalariga ko'ra tasniflanadi.

"Aqliy xujum"

Moderator muammo yoki mavzuni doska yoki plakatga yozadi. Agar ishtirokchilarda savol tug'ilsa, ularga shu xaxoti javob beriladi. SHundan keyin moderator aloxida kartochkalarga yozilgan hamda barchaga ko'rinadigan joyga ilib qo'yiladigan quyidagi qoidalarni tushuntiradi: » Har qanday g'oya, xatto u

noto'g'ri yoki noreal tuyulsa ham, qabul qilinadi. G'oyalarning soni sifatiga qaraganda muhimroq. Tanqid qilish taqiqlanadi.


Oldindan belgilangan vaqt davomida ishtirokchilar taklif etgan g'oyalar moderator tomonidan doskada yoki flipda qayd etiladi.

G'oyalar arg'umchog'i

Soddaroq oraliq vazifalarga bo'lingan asosiy mavzu har xil varaqlarga yoziladi. Bu qog'oz varaqlari ishtirokchilarga tarqatiladi. Ular esa, o'z navbatida, belgilangan vaqt davomida berilgan vazifani echish bo'yicha o'z takliflarini qog'ozga yozadilar. Keyin ishtirokchilar yonlaridagi sheriklari bilan qog'ozlarini almashadilar, ularning g'oyalarini taxlil qilib, o'z takliflarini yozib qo'yadilar. Suundan keyin qog'oz yana boshqa ishtirokchiga 3-6 kishining qo'lga tekkunicha uzatiladi. So'ngra varaqlar to'planib, ko'paytiriladi va jamoa muhokamasiga taqdim etiladi

Akvarium

Bu usul eng tezkor, lekin har doim ham eng samarali bo'lavermaydi. Stullardan ikkita davra xosil qilinadi: biri davraning o'rtasiga qaragan, ikkinchisi - tashqariga (rasmga qarang). Ishtirokchilar bir-birlariga qarab o'tiradilar va shu tariqa juftliklarga bo'linadilar. Hamma toza kartochka oladi. Moderator birinchi vazifani e'lon qiladi. bir juftlik 30 soniya davomida bu vazifaning 2 ta echimini ishlab chiqadi va kartochkalarga yozadi. Barcha kartochkalar davra o'rtasiga to'planadi ("g'oyalar kollektori"). 30 soniyadan so'ng moderatorning ishorasi bilan tashqi davradagilar soat millari bo'yicha bittadan stulga suriladilar, ichki davra esa o'z joyida qoladi. YAngi juftliklar avvalgilarini takror- lamaydigan



yana ikkitadan echim taklif etadilar. Ishtirokchilar davra bo'ylab to'liq aylanib bo'lganlaridan keyin ikkinchi vazifaga o'tadilar va hammasi boshqatdan boshlanadi. Guruh keyingi muammoni (vazifani) echish yo'llarini muhokama qilgunicha, moderator o'rtada to'plangan kartochkalarni ko'rib chiqishi, takrorlanadiganlarini ajratib qo'yishi, o'xshashlarini birlashtirishi mumkin. Asosiy tamoyil - tezkorlik. Muhokama qanchalik faol va tezkor bo'lsa, shuncha ko'p g'oya to'planadi.

swot-tajdil

Bugungi kunda bu - vaziyatni taxlil qilish hamda tashkilotning zahiralarini baholashning eng ommalashgan usuli. Uning nomi inglizcha so'zlarning birinchi harflaridan tuzilgan: Strengths (kuchli jixatlar, tashkilotlar mavjud ichki sxemalar), Weakneses-ses (zaif jixatlar, mavjud ichki muammolar), Opportunities (navbatdan tashqarida mavjud, uni rivojlantirishi mumkin bo'lgan imkoniyatlar), Threats (tashkilotning muvaffaqiyatiga to'sqinlik qilishi mumkin

bo'lgan, atrof muxitda mavjud taxdidlar). Bu metod shunchalik ko'p qo'llanadiki, uning nomini rus yoki o'zbek tiliga tarjima qilishga hojat yo'q. Uni turlicha tashkil qilish mumkin. Eng ommalashgani - har bir kichik guruhga to'rt qismdan iborat jadval beriladi.

S	W
O	T

S	Kuchli jixatlar, tashkilotda mavjud ichki ahiralar	barqaror rivojlanishning asosiy mexanizmlari bo'lib, xizmat qiladi, yangi loyixalarning poydevori xisoblanadi, to'siqlarini engish usullari bo'lishi mumkin
W	Zaif jixatlar, mavjud ichki muammolar	Tashkilotning faoliyati aynan ularni bartaraf etishga o'naltirilishi lozim, yangi loyixalar uchun ustuvor maqsad bo'ladi, rivojlanish istiqbollarini ishlab chiqishda albatta xisobga olinishi zarur
O	Tashkilotdan tashqarida mavjud, unshkilot maqsadlariga qanchalik mos kelishini yoki rivojlantirishi mumkin bo'lgan imkoniyatlar	moliyalash va qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha ahiralar yoki tashqi manbalar vazifasini o'taydi ularning o'zgarishlarini hisobga olish, kompromiss (kelishuv) imkoniyatlarini xisobga olish, o'zimiz, yangi loyihalar asosi yoki hamkorlar manbay bo'ladi
T	Tashkilotning muvaffaqiyatiga to'siqsizlik qilishi mumkin bo'lgan, atrof muxitda mavjud taxdidlar	Har bir yangi loyixada albatta xisobga olinishi zarur, ularni engish yoki zararsizlantirish usullari, yo'riqlari ishlab chiqarilishi lozim, ba'zan g'ayritabiiy holat yuzaga kelib, "dushmanlar" "itifoqchilar"ga aylanishi mumkin

Kichik guruh a'zolari har bir bo'limni muhokama qilib, jadvalni to'ldiradilar. Keyin bu muhokama natijalari moderator tomonidan bitta umumiy jadvalga birlashtiradi.

kuchlar taxlili


SWOT-taxlilning o'zgartirilgan, soddalashtirilgan varianti bo'lib, unda faqat to'siqlar va qiyinchiliklar hamda ularni engish usullari qidirilgan.

Moderator vertikal o'q chiziq chizadi, undan esa chapga gorizontal strelkalar tashkilotning rivojlanishi yoki konkret loyixani amalga oshirishdagi to'siqlar yoziladi. Strelkalarning uzunligi to'siqning jiddiyligi va kuchiga muvofiq bo'lishi lozim.


Keyin qarama-qarshi tomonga bu to'siqlarni (xalaqit beruvchi kuchlarni) engish usullariga muvofiq strelkalar chiziladi. Ular to'siqlarni engib, natijani ung tomonga o'tkazish, to'siqni imkoniyatta aylantirish uchun etarli bo'lishi zarur.

Bunday taxlilni kichik guruhlarda o'tkazish, keyin natijalarni hammaga taqdim etish mumkin. Albatta, bu kuchlarni taxminiyl baholash, chamalash bo'ladi va u aniqlashtirishni davom ettirishni talab qiladi.

Tashkilot ichida yoki tashqarisida mavjud zahiralarini tashkil qilishda ba'zan paradoksal (g'ayritabiiy) tafakkurni qo'llash foydali bo'ladi. Har qanday paradoks vaziyatga yangicha qarash, yangi echim va noan'anaviy yondoshuvlarni topishga yordam beradi. Keyingi bir nechta metod aynan shunga yunaltirilgan



Moderator ishtirokchilardan (birga yoki kichik guruhlarda) maqsadga erishish yo'lidagi asosiy to'siqlar va muammolarni sanashni so'raydi. Ularni kartochkalarda yoki flipda tayanch so'zlar yoki ramzlar orkali ifoda etish mumkin. Keyin 2-3 tadan asosiy muammolar 5-6 kishidan iborat kichik guruhlariga taksimlanadi. Moderator guruhlariga plakat yoki boshqa ko'rgazmadan foydalanib, aynan shu muammolar tashkilotingizning asosiy afzalliklari ekanligani isbotlovchi jo'shqin nutq. tayyorlash topshirigini beradi. Tayanish uchun quyidagi kabi yunaltiruvchi savollarni berish mumkin: "Bu muammolar qanday qilib xayotingizni bezaydi?" yoki "Bu muammolarni echib yoki to'siqlarni engib, biz nimadan maxrum bo'lamiz?" Ba'zan kutilmagan natijaga erishish mumkin. Bir seminarda ishtirokchilar ish vaqtidagi cho'zilib ketgan choyxo'rlik yoki tamaki-xo'rlikning "fazilatlarini" haqida gapirib, aynan shunday tanaffuslar davomida eng muhim muammolar muhokama qilinadi va eng muhim qarorlar qabul qilinadi degan xulosaga keldilar. Natijada har bir chekish xonasida va har bir samovar yonida "g'oyalar varag'i"ni osib qo'yish loyixasi tushadi; bunda rahbariyat o'z xodimlariga biror dolzarb muammoni muhokama qilib, uni echish bo'yicha uz takliflarini yozib qo'yishni taklif qilardi. Bildirilgan takliflarning ko'pchiligi kelgusida ko'p vaqtni rejalashga yordam berardi. SHunday qilib, tanaffus - ish nuqtai nazaridan har doim ham yo'qotilgan vaqt emas, ba'zan qo'shimcha kashf etilgan vaqtdir.



homitlar? Jamg'armalar?

3. hamkorlarning yo'qligi

maqsadli dastur loyihasi

*anjumanda ishtrok etish va
u erda hamkorlarni izlash*

Bu yahshi - bu yomon

YUkorida tavsiflangan metodning ko'rinishlaridan biri vaziyatni zanjir bo'ylab muhokama qilishdir. Ishtirokchilar uch guruhga bo'linadilar, moderator muammoni davrada muhokama etishni tashkil qiladi. Muhokama tarzini choyxo'rlik yoki tamakixo'rlik misolida ko'rsatish mumkin:

Moderator: SHunday qilib, biz choyxo'rlik va tamakixo'rlikka ko'p vaqt sarflanishi muammosini muhokama qilyapmiz. Men tashkilotda bunday tanaffuslarga ko'p vaqt isrof qilinishini va bu salbiy holat ekanligini ta'kidlayman, chunki bu yo'qotilgan vaqt davomida birorta foydali ish bilan shug'ullanish mumkin bo'lardi.

1 -guruh; Ha, haqiqatan ham biz tez-tez choy ichamiz va tamaki chekamiz - bu yahshi, chunki biz bu vaqtda dam olamiz va tanaffusdan so'ng yanada samarali ishlaymiz.

2-guruh: Biz tanaffuslarda dam olamiz - bu yomon, chunki biz muammolardan chalg'iyimiz va e'tiborimizni etarli darajada jamlay olmaymiz.

3-guruh; Biz muammolardan chalg'iyimiz - bu yahshi, chunki bu bizga muammolarga yangicha yondoshishga va hamkasblar bilan ularni muhokama qilishga yordam beradi.

1 -guruh; Hamkasblar bilan muhokama qilish - bu yomon, chunki bitta masala bilan qanchalik ko'p odam shug'ullansa, natija shunchalik kam bo'ladi. "Gap desa qop-qop, ish desa Andijondan top"

2-guruh. Gaplashish - bu yahshi, chunki bu vaqtda biz har kuni bir nechta norasmiy yig'ilish o'tkazamiz va fikr-mulohazalarimizni o'rtoqlashamiz.

Mohiyat tushunarliklar bir guruh avvalgisining oxirgi fikrini qarama-qarshi ma'noda davom ettiradi, ya'ni "bu yomon"ni "bu yahshi"ga aylantiradi va aksincha. Moderator ham muhokamada ishtirok etishi mumkin, chunki ba'zan munozara-suhbat bir joyda to'xtab qolishi mumkin, shunda unga yangi yo'nalish berish, mahsuldor echim va konkret natijaga olib borish zarur bo'ladi. Muhimi, suhbatda ishtirok etayotgan guruhlar soni toq bo'lishi, "pessimistlar" va "optimistlar" soni almashib turishi lozim. Javob varianti tug'ilganda guruhning istalgan a'zosi yoki kichik ichki muhokamadan so'ng guruh nomidan bir vakil gapirishi mumkin.

Eng ayanchli bashoratlar

Bu usulni ham kichik guruhlarda qo'llash mumkin. Moderator tilga olingan to'siqlar, muammolar hal qilinmasdan, to'planaversa, kattalashaversa, 10-20 yildan so'ng nima bo'lishi hakida o'ylab ko'rishni so'raydi. Shu asosida bir

guruh xikoya (she'riy bo'lishi ham mumkin) tayyorlashi, ikkinchisi kartina chizishi, uchinchisi spektakl' ko'rsatishi mumkin. Mavzu umumiy -"Yigirma yildan so'ng ... Eng ayanchli bashorat".

Taqdimotdan keyin muammoni muhokama qilish va uning eng katta xavf tug'diradigan jixatlarini, ya'ni birinchi navbatda bartaraf etilishi lozim bo'lgan holatlarni, shuningdek bu holatning oldini olish yo'llarini aniqlash mumkin.

Zahiralar portreti

Bu usul mavjud zahiralarini baholashga yordam beradi. Moderator bir-biriga yopishtirilgan 2 ta vatman qog'ozga odamning sikiletini chizadi (xamkasblardan birortasi qog'ozga yotsa, moderator uning tanasi xajmini qog'ozga tushiradi). Bunday siluetlar kichik guruhlar soniga qarab tayyorlanadi (3-4 ta). Seminar davomida moderator ularni guruhlariga tarqatadi va mavjud barcha ichki hamda tashqi zahiralarini xisobga olgan xolda tashkilot portretini chizishni taklif qiladi. Bunda aqliy zahiralar bosh qismida, amaliy zahiralar - qo'llarda, urf-odat va an'analar - oyoqlarda, moliyaviy zahiralar - qon yoki oshqozonda va h.z. ramziy tasvirlanadi. Qiziqarli bo'lishi uchun bitta guruh rasm chizishi, ikkinchi guruh kollaj sifatida tayyorlashi, uchinchi guruh esa barcha tasvirlarni real kishiga yopishtirib, jonli qo'g'irchoq qilishi mumkin. SHundan keyin guruhlar o'z ishlarini taqdim etadilar, qolganlar esa aniqlashtiradilar, sharxlaydilar, savol beradilar.

"SHlyapa"li natija

Bu - mavjud vaziyatni har tomonlama baholash usuli. Barcha ishtirokchilar shlyapadan olti xil rangli oq, qizil, qora, sariq, yashil va ko'k qog'ozlarni tanlamasdan oladilar. Keyin rang bo'yicha guruhlariga bo'linadilar. Har bir guruhga ularga mos rangdagi shlyapa rasmi chizilgan vatman qog'oz beriladi. Qiziqarliroq bo'lishi uchun guruh a'zolari shu rangdagi qog'ozdan yasalgan kepkalarni kiyib olishlari mumkin. Har bir rang o'z ma'nosiga ega.

Bu ranglarning ma'nolarini esda tutish uchun vatmandagi shlyapalarga yozib qo'yish mumkin. Muammoni muhokama qilishda ishtirokchilar o'zlarini rang tavsifiga xos ravishda, tutadilar. "Ko'k" guruh a'zolari qolgan beshta guruhga bo'linib, jarayonga aralashmasdan kuzatadilar. Ularga oxirida so'z beriladi. Muhokama vaqt ichida guruhlar asosiy noqulayliklarni shlyapalariga yozib boradilar. Muhokama uchun ajratilgan vaqt tugaganidan so'ng guruhlar galma-gal o'z shlyapalarini devorga iladilar va xulosalarini taqdim etadilar. Oxirida muhokamaga yakun yasash va natijalarni umumlashtirishlari uchun "ko'k" guruh vakillaridan bir nechtasiga so'z beriladi.

- OQ - raqamlar, vaziyatlar, statistika, bir so'z bilan aytganda - sharhlarsiz, faktlarning o'zi;
- QIZIL - xis-tuyg'ular, intuistiya (ichki sezgi), mantiqning yo'qligi, baholash xech bir real yoki taxminiyl asossiz ijobiy ham, salbiy ham bo'lishi mumkin;

- QORA - sog'lom skepsis (umidsizlik), salbiy, lekin konstruktiv munosabat, murosali tanqid, tavakkal qilishdan, mavjud yoki taxminiy to'siqlardan qo'rqish;
- SARIQ - sog'lom va asosli optimizm, taxlil va mantiqqa tayanish: kuchli jixatlar, imkoniyatlar va afzalliklarni xolis baholash;
- YASHIL - aqldan ozish chegarasidagi ijodkorlik xayolparastlik fantaziyaning erkinligi, yo'qolsin an'ana va chegaralar!
- KO'K - osoyishta kuzatish, umumlashtirish va xulosalash.

"Asalari uyasi"

Agar mavzu dolzarb, ishtirokchilar uchun muhim bo'lsa, ularga taklif etilayotgan axborot qiziqarli va zarur bo'lsa, odatda, ular shu zaxoti, tanaffusni ham kutmasdan fikr almashishni xoxlaydilar. Xonada shovqin, pichir-pichir yuzaga keladi. Moderator ishtirokchilardan balandroq ovozda gapirishi yoki ularni tartibga chaqirishiga to'g'ri keladi. Unisi ham, bunisi ham, odatda, etarlicha samara bermaydi.

Bu muammoni echish yo'llaridan biri "Asalari uyasi" deb nomlanadi. Moderator yoki boshlovchi o'z so'zini to'xtatadi va ishtirokchilarga besh daqiqa davomida "asalari" bo'lish ("engillab olish"ni, zarur bo'lsa, "uchib kelish")ni taklif qiladi. Buning uchun oldindan qog'ozdan asalari uyasi plakatini tayyorlash mumkin.

Vaqt tugaganidan so'ng, o'z chiqishini davom ettirishdan oldin moderator o'z fikrlari, muhokama davomida tug'ilgan g'oyalari bilan o'rtoqlashishni xoxlovchilar bor yoki yo'qligini, taklif etilgan mavzu yoki muammo yuzasidan e'tirozlar mavjudligini savollar orqali aniqlaydi.

Hissiy hordiq, his-tuyg'ularni

engillatish, jipslashish

Ko'pincha seminardagi muxit ishtirokchilarning ehtiyojlari bilan emas, tashqi shartlar bilan belgilanadi:tushlik dam olish vaqtini surish, seminar rejasini to'ldirish yoki ish tartibini o'zgartirish mumkin emasligi.

Bir qarashda ikkinchi darajali bo'lgan bu holatlar seminar ishtirokchilarining ish sur'atiga katta ta'sir ko'rsatadi, har doim ularni xisobga olish zarur. SHundan moderator seminar ishtirokchilari qiziqish bilan yangilik izlashlari, o'rganishlari uchun muvofiq muxit yaratishga harakat qilishi lozim. Seminar davomida ishtirokchilarning o'rganish jarayoni og'ir majburiyat sifatida emas, shaxsni rivojlantirish, boyitish usuli deb qabul qilinishi kerak. Ishtirokchilar o'zlarini qulay xis qilsalar, o'zlarida yangi bilim olish imkoniyatlarini kashf qiladi.

"... Kishini toping"

Har bir ishtirokchi topshiriqli kartochkani tanlamasdan oladi. SHundan keyin moderator guruhga 10 daqiqa vaqt beradi, ishtirokchilar o'z topshiriqlariga mos keladigan ishtirokchilarning ismlarini kartochkalariga yozib chiqadilar. 30 kishilik guruh uchun "... kishini toping" topshiriqlarining taxminiy ro'yhati quyidagicha bo'lishi mumkin:

- Ko'k ko'zli;

- Jigar rang ko'zli;
- Sizniki singari ko'zli;
- Sizning bo'yingiz bilan barobar;
- Qo'shiqlarni oson eslab qoladigan;
- Tavakkal qilishni yoqtiradigan;
- Qo'lida oyog'ini osmondan qilib tura oladigan;
- Tailandning poytaxtini biladigan (Bangkok) va ispancha biror nima deya oladigan;
- Anchous nimaligini biladigan (baliq);
- E. Filning rasmini chiza oladigan;
- A. Navoiy qachon tug'ilganini biladigan (1441);
- Tort pishira oladigan;
- Ko'zini yumib, ko'rsatish barmog'ining uchini burniga tekkiza oladigan;
- O'g'li bor;
- Raxim ismli amakisi bor;
- Lancelot kimligini biladigan (kino qaxramoni, Kengash ristari)
- Ish joyida xech qachon kofe-choy ichmaydigan;
- O'zbekiston gimnini xirgoyi qila oladigan;
- Orol dengizga bormagan yoki iti bor;
- Qo'li bilan erga yotib tura oladigan (namoyish qilishi lozim);
- Fuete qila oladigan (namoyish qilishi lozim);
- Qora mushukning bexosiyatligiga ishonadigan;
- 9 ish vaqti soat 10 da boshlanadigan;
- Yakshanba kuni ham soat 7 da uyqudan turadigan;
- Sport zali yoki basseynga boradigan;
- Bolalar bilan ishlaydigan;
- Karam sho'rva pishira oladigan;

Topshiriqlar, albatta, boshqacha bo'lishi ham mumkin. Agar vaqt etarli bo'lsa, moderator yakun yasab, ko'pchilikning ro'yhatiga tushgan ishtirokchini taqdirlashi mumkin.

2.3. KATTALAR TA'LIMIDA O'YIN TEXNOLOGIYASI

Kichik guruhlariga bo'linish uchun tanla

Ishtirokchilarni 4 ta kichik guruhga bo'lish uchun 4 ko'ngilli taklif etiladi, agar 5 ta guruh bo'lsa, 5 nafar ko'ngilli. Boshlovchi (moderator) ko'ngillilarga savol beradi: "Safar (sayoxat, sayr)ga chiqsangiz, o'zingiz bilan kimlarni olib ketardingiz?" Ko'ngillilar o'z komandalariga bittadan ishtirokchini tanlaydilar. Komandaga tanlangan kishilarga quyidagi savol beriladi: "Ryukzakni

ko'tarishni kimga ishonib topshirardingiz?" Komandaga yana bir kishidan tanlab olinadi.

Qolgan savollarni boshlovchining o'zi tuzishi yoki quyidagilardan foydalanishi mumkin: "Olmangizni kim bilan bo'lishardingiz?", "Siringizni kimga ishonardingiz?" Agar komandalarga tanlab olinmagan

bir nechta kishi qolgan bo'lsa, ularga ixtiyoriy guruhga qo'shilishni taklif qilish mumkin.

Axmedovlar oilasi

Ishtirokchilar soniga qarab oldindan oilalar va ularning a'zolari nomlari yozilgan kartochkalar tayyorlanadi. Agar ishtirokchilar soni 30 nafar bo'lsa va ularni 5 ta kichik guruhga ajratmoqchi bo'lsak bizga har birida 6 nafar a'zosi bor 5 ta oila zarur bo'ladi. Agar ishtirokchilar teng bo'linmasa, qaysidir oilada a'zolar soni kamroq bo'lishi mumkin. Oilalarni quyidagicha nomlash mumkin: Axmad, Alisher, Akrom, Abdulla, Botir, Baxoom va h.z. A'zolar: buva, buvi, ota, qiz, it, mushuk, sichqon va h.z. Bizning kartochkalarimiz quyidagi ko'rinishda bo'ladi: "Axmad buva", "Odina buvi", ... "Alisher buva" va sh.k. Ishtirokchilar bittadan kartochka oladilar va moderatorning signali bo'yicha "o'z" oilalarini topib, hammalari bitta stulga bir-birlarining tizzalariga o'tirishlari kerak: buva, buvi, ota, qiz, it, mushuk va sichqon. Vazifa - buni iloji boricha tez bajarish lozim.

O'yinning afzalligi shundaki, mazkur rollarni seminarining oxirigacha saqlab qolish va zarur xollarda osongina boshqa guruhlar, masalan, mushuklar guruhi, sichqonlar guruhi va h.z. xosil qilish mumkin.

O'tirib charchaganlar uchun xarakatli mashqlar shamol esyapti

Bu - seminarlarda eng ommalashgan o'yinlardan biri. Ishtirokchilar stullarda o'tiradilar. Moderator komandasi bilan shamol u aytgan kishilarni "uchirib ketishi"ni, shunda ishtirokchilar bir-birlari bilan o'rin almashishlari lozimligini tushuntiradi. Uning o'ziga stul qo'yilmagan. Quyidagicha komandalar berilishi mumkin:

"SHamol esyapti, oq kiyim kiyganlarni uchirib ketyapti yoki "SHamol esyapti va hamma shim kiyganlarni uchirib ketyapti...", yoki "Shamol esyapti va qo'shiq aytishni yoqtiradiganlarni uchirib ketyapti..." va sh.k. Ishtirokchilar o'rin almashgunlaricha moderator ham bo'sh stullardan biriga o'tirib oladi. Stul etmagan ishtirokchi boshlovchilik qiladi va "shamolning esishi" kimlarni olib ketishini aytadi.

Tovon tovonga

Bu o'yinni musiqa jo'rligida o'tkazish ma'qul bo'ladi. Ishtirokchilar soni juft bo'lishi lozim. SHunga ko'ra moderator yo o'yinda qatnashadi, yoki qatnashmaydi. "Boshladik" ("harakatlanishni boshladik") komandasi berilganda yoki musiqa yangray boshlaganida barcha ishtirokchilar xona bo'ylab erkin harakatlana boshlaydilar.

Ma'lum vaqtdan so'ng moderator musiqani to'xtatadi yoki "To'xtadik!" ("Stop!") deydi va "Tovon tovonga!" kamandasini beradi. Ishtirokchilar juftliklar hosil qilib, tovonlarini bir-birlariga birlashtiradilar. Keyin yana musiqa yangraydi, hamma navbatdagi komandagacha erkin harakatlanadi.

Kamandalar quyidagicha bo'lishi mumkin: "Burun burunga!", "Quloq kulokda", "Tirsak tirsakka beshtadan", ya'ni ishtirokchilar besh kishidan birlashib, guruh tashkil qilishlari lozim va h.z.

Ko'zni yumib saflan

Barcha ishtirokchilar davra bo'lib turadilar va ko'zlarini qattiq yumadilar. Moderatorning buyrug'i bilan ular bo'y-bo'yi bilan saflanishlari lozim. Ishtirokchilar bunda gaplashmaydilar, faqat bir-birlariga suyanib, qo'llari bilan bo'ylarini o'lchab ko'rishlari mumkin. Odatda, bu jarayon ko'p vaqtni oladi. Ba'zi ishtirokchilar davradan chetga chiqib ketishlari mumkin. Moderator ularni aylantirib, kerakli joyga yo'naltirishi mumkin. Bu o'yinni musiqa ostida o'tkazish ma'qul bo'ladi. Hamma bir qatorga joylashganidan so'ng moderator ko'zlarini ochishga kamanda beradi. Natija, odatda, kuchli kulguga sabab bo'ladi.

Hayotiy saxna ko'rinishlar

Bu o'yin ishtirokchilarga o'zlarini pantamimo san'atida sinab kurishgach imkon beradi. Ishtirokchilar ikkita davraga bir-birlariga qarab turadilar va juftliklar xosil qiladilar. Moderator baland ovozda biror xayotiy ko'rinishni e'lon qiladi, ishtirokchilar esa 10 soniya davomida uni ko'rsatishlari lozim. Moderatorning ishorasi bilan harakatlar to'xtatiladi va ichki davra soat millari bo'yicha bitta ishtirokchiga aylanadi. O'yin yangi juftliklarda davom etadi. Saxna variantlari: "Militsioner mast kishini bo'linga olib ketmoqchi", "Kampir echkini uyga etaklayapti", "Ota o'g'lini kamar bilan uryapti", "Muz ustida figurali uchish", "Kurash" va h.z. (variantlar soni cheksiz).

"Qirg'iz telefoni"

Ushbu mashqni seminarda taranglikni bartaraf etish va charchoqni olish uchun qo'llash mumkin.

Ishtirokchilardan davraga turishni iltimos qiling. Mashq "qirg'iz telefoni" deb nomlanishini, dashtlarda, odatda, xabarni so'z bilan emas, belgilar, ramzlar yoki harakatlar orqali etkazish (uzatish) osonroq ekanligini tushuntiring. Shuning uchun ishtirokchilar davra bo'ylab ma'lum xabarni yuboradilar. Boshlovchining harakatlarini zanjir bo'yicha birinchi, ikkinchi va h.z. barcha ishtirokchilar to'xtatishga komanda berilmaguncha takrorlaydilar. Harakatni o'ng tomondagi ishtirokchi bajarmaguncha, keyingisi boshlay olmaydi. Masalan, boshlovchi oyoqlarini tapillatadi. Undan keyin chap tomondagi ishtirokchi, keyin uning yonidagisi bajaradi. Agar kimdir navbati kelmasdan tapillay boshlasa, o'yin to'xtatiladi va yana qaytadan boshlanadi. Harakatni bajarishni boshlagan ishtirokchilar davom ettiraveradilar.

Navbat yana boshlovchiga kelganida, u oyoq tapillashiga chapak chalishni qo'shadi, ya'ni keyingi ishtirokchi oyog'ini tapillatib turgan edi, endi chapak ham chaladi. Agar biror ishtirokchi xato qilsa, o'yin to'xtatilib, hammasi boshidan tapillashdan boshlanadi.

Ikkinchi harakat ham davra bo'ylab bajarib bo'lingandan so'ng, boshlovchi keyingi harakatni ko'rsatadi: chapak ko'krak to'g'risida emas, boshdan yuqorida chalinadi, oyoqlar tapillashni davom ettiradi. Harakat navbati davrani aylanib, boshlovchiga etib kelganda, o'yin tugaydi. Bu o'yinda kishilar hamma narsani bir vaqtda bajarishga o'rganib qolganlarini kuzatish qiziqarli bo'ladi. Odatda, o'yinni 2-3 marta boshidan boshlashga to'g'ri keladi. Shunday qilib, barcha ishtirokchilar diqqatlarini jamlab, harakatni boshlovchi bilan birgalikda boshlamasdan, o'z navbatlarini kutishni o'rganadilar.

2.4. KOMMUNIKATIV O'YINLAR

"Qaramasdan chizilgan portret"

Ishtirokchilar juftliklarga bo'linadilar. Qog'ozga qaramasdan, faqat bir-birlarining yuzlariga qarab, ishtirokchilar bir-birlarining portret (rasm)larini chizadilar. 30 soniyadan keyin ular chizishni to'xtatadilar. Muallif portretga sherigining ismini yozadi va ular o'zaro rasm almashadilar. Keyin yana boshqa juftliklarga bo'linib, xuddi shu ishni takrorlaydilar. Berilgan vaqtga qarab mashqni bir necha marta qaytarish mumkin. Shunday qilib, mashq so'ngida tugallangan "portretlar" ichidan har bir ishtirokchi o'ziga ko'proq yoqqan bittasini tanlaydi va tegishli shaxlar bilan uni guruhga taqdim etadi. "Portretlar galereyasi" xonada seminar yakunigacha ilinib turishi mumkin.


Natijalarni umumlashtirish

(yakun yasash) bosqichi termometr

YOki "Kayfiyatingiz qanday?" Bu eng sodda va eng tezkor, ayniqsa, vaqt ziq bo'lgan vaziyatda foydali usul. Moderator katta vatman qog'ozga termometr rasmini chizadi va unda 0 dan 36,6 gacha nuqtalarni belgilaydi. U ishtirokchilardan shkala yoniga (buni chiqib ketayotganda qilish mumkin) o'z kayfiyatlariga mos nuqtani belgilashlarini so'raydi: 36,6 yoki unga yaqin - o'rtacha, seminar boshidagi kabi kayfiyat, seminar deyarli hech narsa bermadi; undan yuqori - seminar kuch-quvvat, g'ayrat, tashabbus berdi, biror ishni amalga oshirish istagi tug'ildi; 36,6 dan past - seminar zerikarli o'tdi, uxlab qolay dedim.

Bir so'z bilan

Moderator barcha ishtirokchilardan seminardan olingan taassurotlarni bitta so'z yoki jumla bilan bildirishni so'raydi. Agar munosabat salbiy bo'lsa, shu xaxoti buning sababini aniqlagan



ma'qul. Bu usulning varianti sifatida davra bo'ylab suhbatni taklif qilish mumkin. Moderator xozir u seminar yakunlari to'g'risida nutq so'zlashini, biroq ishtirokchilar davra bo'ylab bittadan so'z qo'shishlarini aytadi. Iloji bo'lsa, birlarining so'zlarini takrorlamasliklarini iltimos qiladi.

Moderatorning nutqi quyidagicha bo'lishi mumkin:

- Xurmatli do'stlar! Hozirgina siz bilan seminarimizni yakunladik. Umuman olganda, u ... (guruh a'zolari navbatma-navbat bittadan so'z qo'shadilar, masalan, "mazmunli", qiziqarli", "qisqa", "zerikarli" va h.k o'tdi;

- Nazarimda, biz yangi ... ("bilimlar", "ko'nikmalar" ...)ga ega bo'ldik;

- Ayniqsa, quyidagi bosqich qiziqarli bo'ldi ...

- Eng samarasiz, foydasiz narsa (bosqich, mavzu, holat) - bu... bo'ldi.

- Ertaga ishga borganimda, men seminar yakunlari bo'yicha albatta ...

Xulosa o'rnida men tashkilotchilarga shunday demoqchiman ...

O'zimizga xat

Bu - seminarni baxolashning eng asosli va qizikarli, biroq ko'p vaqt va vositalarni talab qiladigan usullaridan biri. Moderator ishtirokchilardan o'zlariga quyidagicha boshlanadigan xat yozishlarini so'raydi: "Aziz (qadrli, mexribon, xurmatli) Alisherjon! Men hozirgina... bo'yicha seminarda qatnashdim ..." Xatda ishtirokchilar ikkita savolga javob berishlari kerak: seminardan olgan ta'ssirotlari qanday, seminar natijalari bo'yicha qanday harakatlarni rejalashtirmoqdalar. Xat, albatta, ishtirokchining ismi, familiyasi va uy manzili bilan tugaydi. Taxminan 10 daqiqadan so'ng moderator barcha xatlarni yig'ib oladi. Keyinchalik moderator ularni o'qib, taxlil qiladi. Bu xatlar o'ziga xos chiqish so'rovnomasi vazifasini o'taydi. Bir oydan keyin moderator xatlarni ko'rsatilgan manzil bo'yicha pochta orqali (elektron pochadan) jo'natadi. Bunday xat olgan kishi, birinchidan, seminarda ishtirok etgan davrini eslaydi, o'sha muxit va kayfiyatni qayta xis qiladi; ikkinchidan, o'sha vaqtda rejalashtirilgan harakatlarni eslaydi va ularni bajarishga harakat qiladi. Afsuski, bu usul natijalarni seminarining o'zida, ish yakunida muhokama qilishga imkon bermaydi.

Mening kayfiyatim

Moderator seminar yakunida ishtirokchilardan o'z kayfiyatlarini ramziy ifoda etishlarini so'raydi. Bu kulayotgan yoki qovog'i osilgan yuz, quyosh yoki bo'lut ko'rinishida bo'lishi mumkin. Barcha kartochkalar to'planib, ijobiy kayfiyat va salbiy kayfiyat miqdori aniqlanadi. Mualliflarga shaxsan murojat qilmagan xolda, moderator tushunarsiz chizilgan rasmlarni yoki salbiy kartochkalarni sharxlashni iltimos qiladi: "Rassom nimani nazarda tutgan deb uylaysiz?" va "Bunday kayfiyat yuzaga kelishiga nima sabab bo'lgan?" Mualliflar o'z ramzlarini izoxlashlari mumkin, lekin bunga majburlab bo'lmaydi.

"Menga sen (siz) ning ... yoqadi"

1-variant. Ishtirokchilar davraga turadilar. Boshlovchi ishtirokchilardan biriga "Menga sening ...yoqadi" (biror yoqadigan sifatini aytadi) deb, koptok otadi. Koptokni olgan ishtirokchi uni boshqa ishtirokchiga otadi va uning o'ziga yoqadigan xususiyati (sifati) ni aytadi. Koptok har bir ishtirokchiga tegishi kerak.

2-variant. Ishtirokchilarni juftliklarga ajratib, mashqni bajarish mumkin

Gugurt donalari

Ishtirokchilar 4-5 kishidan iborat kichik guruhlariga bo'linadilar. guruh katta aylana chizilgan va 20 ta sektorga bo'lingan vatman qog'oz atrofiga o'tiradi. Har bir sektorning chetida 0 dan 24 gacha raqam yozilgan. Raqamlarni aralashtirib yozgan ma'qul. Bitta sektorga birorta kichik buyum (fishka, ruchka, qalam) qo'yiladi. Har bir ishtirokchining qo'li orqasida, kaftida 6 tadan gugurt donasini bor.

Bir-birlari bilan gaplashmasdan, xech qanday ishora va belgi ko'rsatmasdan, ishtirokchilar kaftlaridagi gugurt donalarini ma'lum qismini ikkinchi qo'llariga olib, mushtlarini oldinga cho'zadilar. Biror kishining komandasi bilan kaftlarini ochadilar va barcha gugurt donalarini xisoblaydilar. Natija ruchka (fishka) turgan sektorda yozilgan raqamga mos kelishi lozim. Masalan, 19 raqami yozilgan sektor tushsa, 5 kishi uchun quyidagicha kombinatsiyalar bo'lishi mumkin: 4, 3, 6, 2, 4. Agar 3 bo'lsa, variantlar: 0, 0, 0, 0, 3 yoki 0, 0, 1, 2, 0. Agar ishtirokchilarning gugurt donachalari raqamga mos kelmasa, ular mushtlarini yana orqalariga qilib, zarur bo'lsa, donachalar sonini o'zgartirib, qayta harakat qiladilar. Sektordagi raqam to'g'ri chiqqanidan keyin ruchka (fishka) navbatdagi sektorga o'tkaziladi va ishtirokchilarning harakatlari takrorlanadi. Mashq davomida xech kim gaplashmaydi.

SHunisi ajablanarliki, birinchi sektorlardagi raqamlarni chiqarguncha 5-6 marta harakat qilish kerak bo'lsa, davra bo'yicha aylangan sayin, so'zsiz kelishuv shakllanadi va ishtirokchilar ichki xis-tuyg'u bilan gugurt donachalaridan umumiy raqamni xosil qiladilar.

O'yin yakunida guruhlariga "kelishib olish" oson bo'ldimi, biror qoida ishlab chiqildimi yoki ichki sezgiga asoslanildimi, guruh ishiga xalaqit bergan, boshqalarning qoidalarini tushunmagan ishtirokchi bo'ldimi, ma'lum bosqichda guruh a'zolari yaxlit komandaga aylanganlarini xis qildilarmi - barcha masalalar muhokama qilinadi. Xulosalarning barchasini bitta tashkilot misolida umumlashtirish va o'yindagi harakatlarni xaqiqiy xayotdagi harakatlar bilan solishtirish mumkin.

O'quv ko'zoynagi

Bu - refleksiyaning aniqlashtirish usuli.

Barcha ishtirokchilarga ish quroli (material) tarqatiladi: shaffof plyonka varag'i, bir bo'lak sim, qog'oz teshuvchi asbob (dirokol), qaychi, stepler va markerlar.

1-topshiriq. Har bir ishtirokchi o'ziga ko'zoynak yasaydi. Ko'zoynaklar ko'rinishlari har-xil bo'lishi mumkin. Trener "yo'riqnoma" berayotgan vaqtda qo'lida ilgariroq xuddi shu materialdan yasalgan o'z ko'zoynagi bo'lgani ma'qul.

2-topshiriq. Har bir kishi uchun ta'limda (ta'lim jarayonida) nima muhimligini muhokama qilish. Muhokama 2-3 kishilik kichik guruhlarda o'tkaziladi.

3-topshiriq. Ko'zoynakda ishtirokchi uchun muhim bo'lgan jihat (tamoyil) larni ifoda etuvchi tayanch so'zlarni marker bilan yozish.

4-topshiriq. Ko'zoynakni taqib, atrofga qarash, keyin tayanch so'zlarni nazarda tutib, ruchka bilan qog'ozga kun, bir necha kun, seminar yakunlari to'g'risida o'z fikrlarini yozish. Ko'zoynakni, albatta, echib qo'yish mumkin, chunki uni taqib o'tirish nokulay bo'lishi mumkin, keyin barcha tayanch suzlar tashqaridan o'qishga moslab yozilgan.

Hayot beruvchi plakatlar

Har bir ishtirokchiga katta xajmdagi qog'oz (flip) va marker tarqating. Ishtirokchilar qog'ozlarni orqalariga yopishtirib olsinlar yoki stol ustiga ismlari yozilgan qog'ozlarni qo'ying. Ishtirokchilar oxirgi mashg'ulotdagi tanaffuslar davomida ularni to'ldirsinlar. Har bir ishtirokchi xonada aylanib, sheriklarining orqasiga yopishtirilgan (yoki stolga qo'yilgan) plakatga u xaqidagi ijobiy fikrlarni yozib, xayot beruvchi plakatlar yaratsin.

Qoidalar: 1) faqat ijobiy sharhlarni yozish mumkin;

2) faqat haqiqatni yozish mumkin.

Hech kim yolg'on tuyulgan fikrni yozmasligi kerak. Hozir tanqidiy yoki xazilning, xatto u mahsuldor bo'lsa xam vaqti emasligini aloxida ta'kidlang. Barcha ishtirokchilar bir-birlarining plakatlariga fikrlarini yozib bo'lganlaridan so'ng, plakatlarni olib, o'qib chiqishlarini so'rang. O'zingiz xona bo'ylab yurib, ishtirokchilardan ularga eng yoqqan fikrni o'qib berishlarini iltimos qiling (kishilar plakatlarda yozilgan ayrim munosabat ifodalaridan qattiq ta'sirlanadilar). Ishtirokchilarga plakatlarni ajoyib inson ekanliklarining isboti sifatida esdalik uchun uylariga olib ketishlariga ruxsat bering.

Diqqat! Agar sizning ko'rsatmalingizga qaramay, ishtirokchilar bir-birlariga salbiy munosabatda bo'lishlari va buni oshkor qilishlarini gumon qilsangiz yoki bilsangiz, bu mashqni qo'llamang. Uni "Tasdiqlovchi piramida" yoki "Qalqon" bilan almashtiring.

Guruh dostoni (poemasi)

Ishtirokchilarga bir varaqdan qog'oz tarqatiladi va qog'ozning yuqoridagi o'ng burchagiga ismlari va familiyalarining bosh harfini yozish so'raladi (siz ham o'z varag'ingizga belgi qo'ying). Har bir ishtirokchi doston (poema)ni boshlab beruvchi birinchi jumlani yozadi va varag'ini chap tomonidagi ishtirokchiga uzatadi, u esa, o'z navbatida, dostonning davomini yozadi (bitta jumla) va yonidagi sherigiga beradi. SHu tariqa har bir ishtirokchi o'z sheriklarining varaqlariga ularning dostoniga mos bittadan jumla yozib chiqadi. Tugallangan doston birinchi jumla muallifiga qaytariladi.

Barcha dostonlar yozib bo'linganidan so'ng, o'zingiznikini o'qib bering. O'qishni xoxlovchilar bor yoki yo'qligini so'rang.

UMUMIY XULOSALAR

SHunday qilib, kattalarni o'qitish jarayoni tashkil etishda quyidagilarni xulosa o'rnida ma'lum qilish mumkin:

- Turli sohalarda va aholining turli qatlamlarida ta'lim olishga ehtiyoj katta;
- Ta'lim olishni hojlovchilarni deyarli yarmi o'qish uchun kam bo'lsa ham, pul to'lashga tayyor;
- Turli sohalarda qisqa muddatli kurslar, jumladan, malaka oshirish kurslariga talab katta;
- Jamiyatda o'qishga nisbatan tabaqalanish harakati kuzatilmokda: o'qish istagi yuqori darajadagi ma'lumotga ega kishilar hamda yoshlar orasida kuchliroq;
- Kattalarni, birinchi navbatda, sifatli mazmun va uslub qiziqtiradi, aholining himoyalangan toifalari uchun esa guruhdagi muhit ham muhim ahamiyatga ega;
- O'qishni istamaslik eng avvalo, insonning shaxsiy va ijtimoiy maqsadlari bilan qaraganda o'qish kech degan e'tiqod va do'stlari, qo'shnilari, qarindoshlari ko'zi o'ngida kulgiga qolishdan qo'rqish bilan izoxlanadi;
- Insonning butun umri davomida o'z bilimni oshirishi, qo'paytirishi andragogika bilan bog'liq;
- Xar bir inson o'qish, bilim olish chegarasini o'zi belgilaydi;
- Andragogika fani kattalarni bilim olishi bilan bog'liq bo'lib, ilk marta nemis tarixchisi Aleksandr Kapp asarlarida uchraganligi aniqlandi;
- Andragogika xam ta'lim-tarbiyaga oid fanlari singari uzok tarixga ega;
- Pifagor, Sukrot, Platon, Iisus Xristos, paygambarlar, buyuk faylasuf olimlar, siyosatdonlar hayoti va faoliyati xam andragogikaning o'zidir. Ular o'z bilim va mahoratlari bilan minglab odamlarni o'z ortidan ergashtira olganlar. O'z zamondoshlari, o'qituvchilari, izdoshlari uchun ular xaqiqiy ustozlar xisoblanishgan;
- Aloxida qobiliyatlarga ega bo'lgan, xalq ichida o'z obro'-e'tiborga ega insonlar o'z bilimlari bilan ergashtira olganlar;
- Magistrlar andragogika fanini yaxshi bilishi kelajakda kattalar bilan ishlashda, ularni tushunishda dasturiy amal bo'ladi.

ГЛОССАРИЙ

Akademiya - kadrlar tayyorlash va bilimlarning keng sohalari bo'yicha oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim dasturlarini amalga oshirishga imkon beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasi.

Amaliy ishlar metodi – o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantiruvchi usul.

Androgogika -- grekcha so'zdan (andros-erkak, odam; agogeyn-etaklash) iborat ekanligi oydinlashadi. So'zma-so'z tarjima hilinsa, andragogika bu – «katta odamni etaklash» (odamni etaklash)dir

Anomaliya (yunoncha – anomal) - me'yordan, umumiy qonuniyatlardan chetlanish, noto'g'ri rivojlanish.

Axloq (lotincha «moralis» - xulq-atvor ma'nosini bildiradi) - ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yig'indisi.

Axloqiy tarbiya – muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o'quvchilar ongiga singdirish asosida ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari va axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

Aqliy tarbiya - shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

Baynalminallik («inter» – orasida, o'rtasida, aro, «natio» – xalq)– o'zga millat va elatlarning haq-huquqlari, erki, urf-odatlarini, an'analari, turmush tarzi, tili hamda vijdon erkinligini hurmat qilish, ularning manfaatlariga ziyon etkazmaslikni ifoda etuvchi shaxsga xos ma'naviy-axloqiy fazilat.

Bashoratlash - bo'lajak darsni tashkil etilishining turli varianlarini baholash va ulardan qabul qilingan mezonlarga muvofiq eng ma'qulini tanlab olish.

Bilim – shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.

Bilim olish – borliqni idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni.

Gnoseologiya (yunon tilidan gnosis – bilim, ong, o'rganish) – bilish, ilmiy bilimlarning shakllanishi, xususiyatlari, qonuniyatlari, uslublari, ilmiy tafakkur shakllari, shuningdek, insonga xos bo'lgan borliqni anglash qobiliyati haqidagi nazariya, ta'limot.

Didaktika (ta'lim nazariyasi) – (yunoncha «didaktikos» “o'rgatuvchi”, «didasko» – “o'rganuvchi”) - ta'limning nazariy jihatlarini (ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati mazmuni, ta'lim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari va hokazo muammolari)ni o'rganuvchi fan.

Didaktika tamoyillari (lotin tilidan «principium» - har qanday nazariyaning asosiy, boshlang'ich, dastlabki holati) –ta'limni tashkil etishga qo'yilgan me'yoriy talablarni ifodalovchi, shuningdek, ta'lim jarayonining asosiy maqsadi va qonuniyatlariga muvofiq uning dastlabki holatini belgilovchi qarashlari.

Didaktik tizim (yunoncha «systema» – yaxlit, qismlarda tashkil topgan, birlashtirish) – ma'lum mezonlari asosida ta'lim jarayonining yaxlit holatini belgilash, ajratib ko'rsatish.

Didaktik o'yin – o'rganilayotgan ob'ekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida o'quvchining bilishga bo'lgan qiziqishi va faollik darajasini rag'batlantiruvchi o'quv faoliyati turi.

Dunyoqarash - tabiat, jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e'tiqodlar tizimi.

Jamoa (lotincha «kollektivus» so'zining tarjimasi bo'lib, yig'ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh kabi ma'nolarni anglatadi) - bir necha a'zo (kishi)lardan iborat bo'lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh.

Jamoa an'analari – jamoa a'zolari tomonidan birdek qo'llab-quvvatlanuvchi barqarorlashgan odat.

Jamoaning norasmiy tuzilmasi - jamoa a'zolari o'rtasidagi shaxslararo ma'naviy-psixologik munosabatlarning umumiy tizimi, shuningdek, jamoada mikroguruhni tashqil qiluvchi ayrim shaxslar o'rtasidagi tanlash munosabatlarining mazmuni.

Jamoaning rasmiy tuzilishi - turli ko'rinishdagi jamoa faoliyatini yo'lga qo'yishning tashkiliy jihatlari.

Ijtimoiy adaptastiya (yunoncha adapto - moslashish) – anomal bolalar individual yoki guruhli xulqlarining ijtimoiy qadriyatlar va xulq-atvor qoidalari tizimiga mos kelishi.

Ijtimoiylashuv – ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi asosida shaxsning hayot va ishlab chiqarish jarayoniga moslashuvi.

Ijtimoiy rehabilitasiya (yunoncha rehabilitas – layoqati, qobiliyatini tiklash) - anomal bolaning psixofiziologik imkoniyatlariga tayangan holda uning ijtimoiy munosabatlar jarayonida ishtirok etishi uchun zarur sharoit yaratish, ijtimoiy faoliyat va mehnatga jalb etish.

Ilmiy dunyoqarash - uzluksiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o'zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlashgan dunyoqarash shakli.

Institut - bilimlarning bitta sohasi doirasida aniq yo'nalishlar bo'yicha oliy va qoidaga ko'ra oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasi.

Iqtisodiy tarbiya - o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish, ularda iqtisodiy faoliyat (oilalar byudjetini shakllantirish, xo'jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko'paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to'g'ri tashkil etish va hokazolar)ni tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat pedagogik jarayon.

Iqtisodiy ta'lim - o'quvchilarga xo'jalik yuritish tizimi (oilalar byudjetini shakllantirish, xo'jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko'paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to'g'ri tashkil etish va hokazolar) to'g'risidagi nazariy bilimlarni berishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

YOsh xususiyatlari - muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash - mutaxassislarning kasb bilimlari va ko'nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirish maqsadida tashkil etiluvchi ta'lim bosqichi.

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» - «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalariga muvofiq, milliy tajribaning tahlili hamda ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri o'qib bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirish mazmunini belgilab beruvchi yuridik hujjat.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli - shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish kabi tarkibiy qismlarning o'zaro hamkorligi, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik asosida «yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash Milliy tizimi» mohiyatini aks ettiruvchi andoza, loyiha Uning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

Korreksiya (yunoncha «correctio» - tuzatish) - pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanishidagi kamchiliklarini qisman yoki to'liq tuzatish.

Korreksiya (maxsus) pedagogika (defektologiya - yunoncha «defectus» – nuqson, kamchilik, «logos» – fan, ta'limot) – rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o'qitish metodlariga asoslangan, salomatlik imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi hamda shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o'rganuvchi fan.

Ko'nikma – shaxsning muayyan harakat yoki faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati.

Ko'rgazmali metodlar - predmet, hodisa yoki jarayonlar mohiyatini tabiiy holatda namoyish qilish, ularning maketlarini ko'rsatishda qo'llaniluvchi usullar.

Loyihalashtirish (rejalashtirish) - o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish

Magistratura - aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriyat negizida ta'lim muaddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'lim.

Madaniyat («cultura» so'zidan olingan bo'lib, parvarish qilish, ishlov berish ma'nosini bildiradi) – ijtimoiy taraqqiyot davomida insonlarning faoliyati tufayli qo'lga kiritilib, ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy boyliklar tizimi.

Mazmun (ta'lim (bilim olish) mazmuni) – ta'lim jarayonida shaxs tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma, malaka, fikrlash hamda faoliyat usullari tizimi.

Maktabdan tashqari ta'lim - madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda yo'lga qo'yiluvchi, bolalar hamda o'smirlarning ta'limga bo'lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab-ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish maqsadida tashkil etiladigan ta'lim bosqichi.

Malaka – muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

Mashq va o'rgatish (faoliyatda mashqlantirish) metodlari—muayyan mashqyordamida bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq va har tomonlama puxta tashkil qilish, ularni axloq me'yorlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirish usullari.

Ma'lumot – ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

Menejment – mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijalarga erishish uchun shaxs (xodim) yoki guruhga ta'sir o'tkazish asosida ularning faoliyatini tashkil etish tamoyillari, shakllari, metodlari va usullari.

Metodika (fan sifatida)— xususiy fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi.

Oila – kishilarning nikoh yoki qon-qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarzi, axloqiy mas'uliyat hamda o'zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruhi.

Oilaviy munosabatlar – ota-onalar (yoki bolaning kamoloti uchun mas’ul bo’lgan shaxslar) hamda farzandlar o’rtasida turli yo’nalishlarda tashkil etiluvchi munosabatlar.

Oila tarbiyasi – ota-onalar (yoki bola kamoloti uchun mas’ul shaxslar) tomonidan tashkil etiluvchi hamda farzandlarni har tomonlama etuk, sog’lom etib tarbiyalashga yo’naltirilgan pedagogik jarayon.

Oligofreniya - (yunoncha «olygos» – kam, «phren» - aql) - bu natal (tug’ilish payti) yoki postnatal (hayotiy rivojlanishning erta bosqichi) davrlarda markaziy nerv tizimining zararlanishi natijasida yuzaga keladigan aqliy yoki psixik rivojlanmaslik.

Oliy ta’lim - o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi negiziga asoslanib, ikki bosqich (bakalavriyat hamda magistratura)da tashkil etiladigan hamda mutaxassisliklar yo’nalishlari bo’yicha xalq xo’jaligining turli sohalariga oliy ma’lumotli mutaxassislarni tayyorlab beruvchi ta’lim bosqichi.

Oliy o’quv yurtidan keyingi ta’lim - jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo’lgan ehtiyojlarini qondirish, shaxsning ijodiy ta’lim – kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilib, oliy o’quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida aspirantura, ad’yunktura va doktoranturada ta’lim olish, shuningdek, mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish asosida amalga oshiriladigan ta’lim bosqichi.

Pedagogika (yunoncha «paidagogike» bo’lib, «paidagogos» - bola, etaklayman) – ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta’lim berishning mohiyati va muammolarini o’rganadigan fan.

Pedagogik texnologiya– ta’lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo’llash, texnologik yondashuv asosida ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o’rganadi.

Pedagog kadrlar tarkibi – o’qituvchi, metodist, tarbiyachi, psixolog, defektolog, logoped, sport instruktori, musiqa, badiiy ijodiyot, radiotexnika, sport va boshqa yo’nalishlarda faoliyat ko’rsatuvchi to’garaklarning rahbarlaridan iborat mutaxassislar.

Pedagogik mahorat – ta’lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo’llay olish qobiliyati, yuksak pedagogik tafakkur.

Pedagogik talab - turli harakatlarni bajarish, muayyan faoliyat jarayonida ishtirok etishda o'quvchi amal qilishi zarur bo'lgan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini ifodalovchi vazifa; tarbiyaning eng muhim usuli.

Rag'batlantirish - tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko'ngilini ko'tarish va uni qo'llab-quvvatlash usuli.

Rivojlanish – shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Reyting (baholash, tartibga keltirish, klassifikastiyalash) - muayyan hodisani oldindan belgilangan shkala bo'yicha baholash.

Surpedagogika (yunoncha «surdus» – kar) - eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash jarayonini o'rganuvchi fan; korrekstion (maxsus) pedagogikaning yana bir muhim sohasi.

Suhbat – savol va javob shaklidagi dialogik ta'lim metodi.

Tamoyil (yunoncha «principium») – biror-bir nazariyaning asosi, negizi, asosiy boshlang'ich qoidasi; boshqaruvchi g'oya, faoliyatning asosiy qoidasi; umumlashtirilgan talab.

Tarbiya jarayoni - o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan samarali hamkorlik jarayoni.

Tafakkur (ijtimoiy voqea-hodisalarning ongda to'laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli).

Tashhis –didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash.

Ta'lim vositalari – ta'lim samaradorligini ta'minlovchi ob'ektiv (darslik, o'quv qo'llanmalari, o'quv qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm, chizma, dioproektor, magnitafon, videomagnitafon, uskuna, televizor, radio, komp'yuter va boshqalar) va sub'ektiv (o'qituvchining nutqi, namunasi, muayyan shaxs hayoti va faoliyatiga oid misollar va hokazolar) omillar.

Ta'lim menejeri – ta'lim muassasasi faoliyatini zamonaviy menejment qonuniyatlariga muvofiq boshqaruvchi mutaxassis.

Ta'lim maqsadi (o'qish, bilim olish maqsadi) – ta'limning aniq yo'nalishini belgilab beruvchi etakchi g'oya.

Ta'lim natijasi (ta'lim mahsuli) – ta'lim yakunining mohiyatini qayd etuvchi tushuncha; o'quv jarayonining oqibati; belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi.

Ta'limni boshqarish – ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollari belgilash masalalarini o'rganadi.

Ta'limning sinf

-dars tizimi - dars shaklida muayyan o'quvchilar guruhi bilan o'quv rejasiga muvofiq tuzilgan aniq jadval bo'yicha olib boriladigan ta'lim jarayoni.

Ta'lim shakli – ta'lim jarayonining tashkiliy tuzilmasi.

Tizim (mustaqil tushuncha sifatida) - o'zaro bog'langan ko'plab elementlar (tarkibiy qismlar) o'rtasidagi mustahkam birlik va o'zaro yaxlitlik.

Test - aniq maqsad asosida muayyan holat darajasini sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarda belgilashga imkon beruvchi sinov vositasi.

To'garak - o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida sinfdan yoki maktabdan tashqari sharoitda uyushtiriluvchi qo'shimcha ta'lim shakli.

Universitet - kadrlar tayyorlash va bilimlarning keng sohalari bo'yicha oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasi.

Usul - muayyan o'quv materialini o'zlashtirishda qo'llanilayotgan asosiy ta'lim metodi bilan birga ikkinchi bir ta'lim metodining ayrim elementlaridan foydalanish.

Faoliyat - shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko'rinishi.

Fuqaro – fuqaroligi huquqiy jihatdan e’tirof etilgan hamda muayyan jamiyat (davlat) a’zosi bo’lgan shaxs.

Fuqarolik – huquqiy va axloqiy me’yorlarga ongli rioya etish, ma’lum huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarishga mas’ullik bilan yondoshuv, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma’naviy etuklik asosida muayyan davlatga mansublik.

SHaxsni ijtimoiylashtirish - uni jamiyat tomonidan tan olingan xulq-atvor me’yorlari, bilim hamda qadriyatlar tizimini o’zlashtirishdan iborat ijtimoiy hayotga jalb etish jarayoni.

Ekologik ong - tabiat va atrof-muhitning mavjud holati, ularni muhofaza etish borasidagi tushunchalarning ongdagi ifodasi.

E’tiqod - dunyoqarash negizida aks etuvchi ijtimoiy- falsafiy, huquqiy, ma’naviy-axloqiy, estetik iqtisodiy, hamda ekologik bilimlarning takomillashgan ko’rinishi; muayyan g’oyaga cheksiz ishonch.

O’z-o’zini baholash - mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish asosida o’z shaxsiga baho berishga yo’naltirilgan faoliyat usuli.

O’z-o’zini tarbiyalash metodlari - o’quvchilarning o’zini o’zi idora qilishlari, turli o’quvchilar organlari faoliyatida faol ishtirok etishlarini ta’minlash, ularning ijtimoiy mavqelarini oshirish maqsadida qo’llaniluvchi usullar.

O’z-o’zini tahlil (nazorat) qilish - o’z shaxsi, mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish, mavjud sifatlarni boyitish yoki salbiy odatlarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat usuli.

O’z-o’zini qayta tarbiyalash – shaxsning o’zidagi salbiy odatlar, xarakteridagi zararli sifatlarni yo’qotish, ularni bartaraf etishga qaratilgan ichki faoliyati jarayoni.

O’zlashtirish –ta’lim jarayonida ustuvor o’rin tutuvchi ijtimoiy talablarga muvofiq shaxs tomonidan muayyan xatti-harakat va xulq usullarining egallanishi.

O’rgatish - tarbiyalanuvchilar ijtimoiy xulq-atvor ko’nikmalari, odatlarini shakllantirish maqsadida rejali va izchil tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlar.

O'qituvchi (pedagog) – pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha maxsus ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik va ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega hamda ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxs.

O'quv dasturi – muayyan o'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar mazmuni, umumiy vaqtning mavzularni o'rganilishi bo'yicha taqsimlanishi, mavzularning ketma-ketligini belgilash hamda ularning o'rganilish darajasini yorituvchi me'yoriy hujjat.

O'quvchilarning o'z-o'zini boshqarishi - o'quvchilarning jamoa faoliyatini uyushtirish va boshqarishdagi faol ishtiroklari.

O'quv qo'llanmasi – 1) ma'lum o'quv fanlari bo'yicha metodik materiallar, tushuntirishlar, tavsiyalarni yorituvchi hamda o'qituvchi yoki o'quvchilar uchun mo'ljallangan manba; 2) muayyan fan bo'yicha tayyorlangan hamda metodik jihatidan o'quv-tarbiyaviy jarayonda bevosita foydalanish imkonini beruvchi qo'shimcha o'quv materiallari.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi - yoshlarni vatan himoyasi hamda harbiy mudofaaga tayyorlash, ularda favqulotda holatlarda harbiy mudofaani tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Hikoya – o'qituvchi tomonidan mavzuga oid dalil, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo'lib, tasviriy vositalar yordamida obrazli tasvirlash yo'li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishi.

Hisobga olish – ta'limning muayyan davrida o'quvchilar va o'qituvchi faoliyatini umumlashtirish, xulosalash.

Huquqiy madaniyat – shaxs tomonidan huquqiy bilimlarning o'zlashtirilishi hamda huquqiy faoliyatni tashkil etish darajasining sifat ko'rsatkichi.

Huquqiy tarbiya - shaxs tomonidan o'zlashtirilgan nazariy-huquqiy bilimlar negizida huquqiy faoliyatni tashkil etish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, unda ijobiy huquqiy sifatlarni qaror toptirish va huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Huquqiy ta'lim - o'quvchilarga huquqiy me'yorlar, qonunlar hamda ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mohiyati to'g'risidagi tizimlangan bilimlarni berish, ularda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongni shakllantirish jarayoni

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A. Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" T.:2008 y.
2. I.A.Karimov "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" T.:1998y 63bet14.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi T. 1997 yil 29 avgust
4. . Zmeev S. I. Andragogika: Stanovlenie i puti razvitiya // Pedagogika. — 1995.-№2
5. Zmeev SI. Texnologiya obucheniya vzroslox. — M., 2002.
6. Rossiyskaya pedagogicheskaya ensiklopediya: V 2 t. / Pod red. V. V. Davq-dova. — M., 1993 — 1999.
7. 3.Onushkin V. G., Ogarev E.I. Obrazovanie vzroslox: Mejdissiplinarny slovar' terminologii. — SPb.; Voronej, 1995.
8. 4. Rabochaya kniga andragoga / Pod red. S. G. Vershlovskogo. — SPb., 1998
9. 5. Knovls M. Txe Modern Practice of Adult education: from Pedagogy to Andragogiy. — N. Y., 1970
10. 3.Metodik qo'llanma, " DACUM kasbiy ta'limda",N.S.Raximov, B.M, Farshi-Vjalali, Toshkent ,2008
11. 4. O.B.CHikurov –Pskov Metodik qo'llanma. " Menga kim o'rgatadi ?" 2-qism. 2004
- 12.5. A.X. Abdullaev, N.S.Raximov, M, O, Xadaev Katta yoshdagilarni o'qitish markaziga: qadam-baqadam T;," CHASHMA" -2013
- 13.6. Azizxajeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: TDPU, 2003.
14. Ochilov M. Muallim qalb me'mori. – T.: O'qituvchi, 2000.
15. Ma'naviyat darslari (Tuzuvchi S. Nishonova). – T.: Qqituvchi, 1994.

16. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. T.: O'qituvchi, 1995.
17. Pedagogika tarixidan xrestomatiya / Tuzuvchi: O. Hasanboeva. – T.: O'qituvchi, 1992.
- 18.11. Garmonichno razvitoe pokolenie - osnova progressa Uzbekistana. Tashkent, 1997, 62 s.
19. Bepalko B.P. Slagaemue pedagogcheskoy texnologii. M.: Pedagogika, 1989, 190 s.
20. 13. Djumaboeva F. A. Povushenie kachestva obucheniya i ob'ektivnosti ostenki znaniy studentov na osnove invariantnux testov. Tashkent, 1999, 17 s
21. Klarin M.V. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom prostesse. M.: Znanie, 1989, 75 s
22. Kondakov N.I. Logicheskiy slovar-spravochnik. M.: Nauka, 1975, 717 s.
23. Nazarova T.S. Pedagogicheskie texnologii: novuy etap evolyustii. Pedagogika. 1997, N3, 20-26 s
- 24.. Nikandrov N.D. Programmirovannoe obuchenie i idei kibernetiki. (Analiz zarubejnogo oputa). M.: Nauka, 1970, 206 s.
25. Selevko G. Vzglyad na problemu. Pedagogika. 1997, N9, 27-32 s.
26. Farberman B.L. Osnovu teorii invariantnux testovux zadaniy. . 1997, N3-6, 40-45 s
27. N.Sayidahmedov YAngi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. Toshkent, 1999 y., 55 bet
28. <http://www.ziyonet.uz/ru/library>
29. [www. adpima com](http://www.adpima.com)
30. [www. amazon co](http://www.amazon.co)
31. [www. ip kpro aaa net.](http://www.ipkproaaa.net)

MUNDARIJA

Kirish	
I Bob Andragogika fanining nazariy asoslari.....	
1.1. Andragogika fanining maqsad va vazifalari.....	
1.2. Androgogikani nazariy va amaliy rivojlanish tarixi.....	
1.3. YOshi katta inson -ta'lim sub'ekti sifatida	
1.4. SHaxs kasbiy rivojlanishining andragogik asoslari.....	
1.5. Katta yoshlarni uzluksiz ta'limi masalalari.....	
1.6. Modulli ta'lim – yoshi kattalarni o'qitishning texnologik shakli sifatida	
1.7. Kattalarni o'qitishda masofali ta'lim texnologiyalari.....	
1.8. Xalq universitetlari tarixida kattalar ta'limi.....	
1.9. Qo'shimcha kasb ta'limida biznes- maktablari.....	
1.10. Mustaqil o'zbekiston sharoitida androgogikada oilaviy ta'lim.....	
1.11. Kattalarning o'qishga munosabati. Kattalar va kitob o'qish.....	
II Bob Kattalar ta'limi amaliyoti.....	
2.2. Seminar tarzidagi mashg'ulotlarning o'ziga xos xususiyatlari	
2.2. Kattalar ta'limida interaktiv metodlar.....	
2.3. Kattalar ta'limida o'yin texnologiyasi.....	
2.4. Kommunikativ o'yinlar.....	
Umumiy xulosalar.....	
Glossariy.....	
Adabiyotlar ro'yxati	
Ilova.....	

I L O V A

- Tarbiya -insonlarni, yoshlarni va.x.k. ob'ektiv va sub'ektiv ta'sirlar asosida axloqiy, aqliy, amaliy, jismoniy shakllanish jarayoni bo'lib, tarbiyachi o'zi xoxlagan sifatlarni tarbiyalanuvchilar ongiga singdirish uchun ularning ruhiyatiga ma'lum maqsadga yo'naltirilgan tizimli ta'sir ko'rsatishiga aytiladi. Tarbiya mazmuni ta'lim va ma'lumot olish jarayonlariga kiradigan ishlarning mazmuni bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning natijalarini o'zida aks ettiradi..
- Ta'lim-maxsus tayyorlangan kishilar rahbarligida o'tkaziladigan, ta'lim oluvchilarni bilim, ko'nikma, malakalar bilan qurollantiradigan, bilish qobiliyatlarini o'stiradigan, ularning dunyoqarashlarini tarkib toptiradigan maxsus tashkil etilgan o'qitish jarayonidir.
- Pedagogik jarayon - Ta'lim-tarbiyaning maxsus tashkil etilgan uyg'unlashgan xolati.

- “Ta'lim-tarbiya ong maxsuli, ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni-tafakkurni o'zgartirmasdan esa – ko'zlagan oliy maqsad-ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi.”

I.Karimov

Ta'lim dasturlarining uyg'unlashuvi

- Ta'limda **uzluksizlik** - ta'lim dasturlarining o'zaro uyg'unlashuvida ko'rinadi.
- Uzluksiz ta'lim-Maktabgacha ta'lim →Umumo'rta ta'lim→ O'rta-maxsus kasb xunar ta'limi→Oliy Ta'lim → Oliy ta'limdan keyingi aspirantura, doktorantura→ Malaka oshirish va qayta tayyorlash
- **Uzluksizlik- Umum ta'lim dasturlari va kasb- xunar ta'limi dasturlarining uyg'unligida**

Ta'lim islohotlari talablari :

- — ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi o'rtasidagi munosabatlarni majburiy itoatkorlikdan ongli intizomga aylanishiga e'tibor qaratish;
- - ta'limda yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish;
- - ta'limda axborot kommunikation texnologiyalardan foydalanishning yanada keng imkoniyatlarini yaratish;
- - ta'lim- tarbiyada pedagogik maxoratni

Ta'limda majburiy itoatkorlikdan ongli intizomlilik tamoyiliga o'tish omillari

- pedagogik jarayonda tinglovchilarni emas, balki jarayonni boshqarishga o'tish;
- o'qituvchi faoliyatining innovatsion xususiyatlarini rivojlantirish;
- o'qitishning samarali metodlaridan noan'anaviy usullar, zamonaviy pedagogik texnologiya, interfaol usullardan foydalanish;
- zamonaviy axborot kommunikatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish;
- Ta'limni shaxsiy ehtiyojga aylantirish va mustaqil ta'limni rivojlantirish

Ta'limda majburiy itoatkorlikdan ongli intizomlilik tamoyiliga o'tish omillari

- Zamonaviy ta'lim - tarbiya jarayonini tadqiq qilish natijasida oliy va o'rta mahsus kasb ta'lim tizimi talabalarining yosh xususiyatlarini hisobga olib, ta'limda pedagogik jarayonga pedagogikaning kattalar ta'limi bilan shug'ullanuvchi sohasi androgogikaning o'ziga xos xususiyatlarini singdirib borish pedagogik jarayonda tinglovchilarni emas, balki jarayonni boshqarishga o'tish omilini ta'minlaydi .

Androgogika

- Androgogika-pedagogikaning kattalar ta'limi soxasi sifatida ta'limni tashkil etish amaliyotini o'rganadi.
- Androgogika-kattalar ta'limining samaradorligi-ta'limning ehtityojga aylanishiga asoslanadi.
- Androgogikada o'qitish metodlarini tanlash guruhning (yosh/ bosqich rol o'ynamaydi) hususiyatlaridan kelib chiqadi.(kasbiy, shaxsiy, jamiyat va jamoaviy ehtiyojlardan)

Kattalar ta'limining o'ziga xos xususiyatlari

- Katta yoshlilar mustaqil, o'z-o'zini boshqarish xususiyatlaridan kelib chiqib, jarayonni emas, ularni boshqarishga bo'lgan har qanday xatti-xarakatni inkor etadilar.
- Har qanday yangi axborotni o'zining hayotiy, kasbiy, ijtimoiy dunyoqarashi bilan solishtirgan xolatda qabul qiladi va kelayotgan axborotga o'z munosabatini bildiradi.
- Ta'lim berishda ularning hayotiy, kasbiy faoliyati tajribasiga tayanib ish ko'rish kerak
- Katta yoshlilar bilim olishga maqsadli yo'nalgan bo'lib, bilim olish orqali o'z muammolarini hal qilish, lavozimda ko'tarilish, kasbiy maxoratni oshirish, va.x.k. Ularda har tomonlama ehtiyojlarini qondirish va qoniqish hosil qilishga yo'naltirilgan. va qoniqish hosil qilishga yo'naltirilgan.

Pedagogika - Androgogika

- Ta'lim oluvchi mavqei
- Ota-ona tazyiqi va o'qituvchiga bog'liq
- Mustaqil tanlash imkoniyati, ixtiyoriy, ongli o'z-o'z nazorat qilish
- Ta'limga tayyorgarlik
- YOsh psixologiyasi xususiyatlari va individual rivojlanish bosqichlaridan kelib chiqib aniqlanadi
- Hayotiy maqsad va muammolaridan kelib chiqadi. Ma'lum sharoitlarda yoshi va hayotiy tajribasining hajmi ta'lim olishga to'sqinlik qiladi

- **Ta'limda majburiy itoatkorlikdan ongli intizomlilik tamoyiliga o'tish omillari**
- o'qituvchi faoliyatining innova^çion xususiyatlarini –akmeologik, kreativlik, refleksiv xususiyatlarini rivojlantirish;
- o'qitishning samarali metodlaridan noan'anaviy usullar, zamonaviy pedagogik texnologiya, interfaol usullardan foydalanish;

ANDROGOGIKA

(o'quv qo'llanma)

Muharrir:

Komp'yuter operatori:

Bosishga ruxsat etildi 26.03.2014 yil. Bichimi 84x108

Ofset bosma. Shartli bosma tabog'i 0. 7.

Adadi 1000 nusxa. Buyurtma № 30. bahosi kelishilgan narxda

